

TOSHKENT DAVLAT TEKNIKA
UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA
ULARNING MALAKASINI OSHIRISH
TARMOQ MARKAZI

HAYOTIY FAOLIYAT XAVFSIZLIGI

yo‘nalishi

**FAVQULODDA VAZIYATLAR
VA FUQARO MUHOFAZASI**

TOSHKENT-2023

Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021-yil 25-dekabrdagi 538-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dastur asosida tayyorlandi.

Tuzuvchi: Favqulodda vaziyatlar vazirligi Fuqaro muhofazasi instituti p.f.n., Xusanova S.I.

Taqrizchi: TDTU, Xabibullayev S.Sh.

O‘quv-uslubiy majmua Toshkent davlat texnika universiteti Kengashining 2021 yil 29 dekabrdagi 4-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.

MUNDARIJA

| | |
|--|-----|
| I. IShChI DASTUR | 4 |
| II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI. | 10 |
| III. NAZARIY MATERIALLAR..... | 15 |
| IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI | 82 |
| V. KEYSLAR BANKI..... | 97 |
| VI. GLOSSARIY | 101 |
| VII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI | 111 |

I. Ishchi dastur

Kirish

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrdan tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktyabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabr “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarorida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishning huquqiy asos, aholi va xududlarni FVdan muhofaza qilish tadbirlarini rejalshtirish, qutqaruv, birlamchi tiklov va boshqa kechiktirib bo‘lmaydigan ishlarining tashkiliy asoslari, favqulodda vaziyatlarning tasnifi: tabiiy, texnogen, ekologik favqulodda vaziyatlar ularni oldini olish choralar, muhandislik texnik tadbirlarini tashkil etish va soha yo‘nalishidagi fanlarni o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol usullarni qo‘llash uslubiyoti bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish malakalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Modulning maqsadi va vazifalari

“Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi” modulining **maqsadi**:

Hayotiy faoliyat xavfsizligi yo‘nalishi bo‘yicha Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi moduli bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishdan iborat.

“Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi” modulining **vazifalari**:

- “Hayotiy faoliyat xavfsizligi” yo‘nalishi bo‘yicha Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi fanini o‘qitishning dolzarb muammolari va ularni o‘quv jarayoniga tatbiq etish masalalari bilan tanishtirish;
- “Hayotiy faoliyat xavfsizligi” yo‘nalishi bo‘yicha Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi fanini o‘qitishda mutaxassislik fanlari o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish;
- “Hayotiy faoliyat xavfsizligi” yo‘nalishi bo‘yicha Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi fanini o‘qitishda fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta’minlashga oid ko‘nikmalarni shakllantirish.

Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalariiga qo‘yiladigan talablar

Kutilayotgan natijalar: Tinglovchilar “Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi” modulini o‘zlashtirish orqali quyidagi bilim, ko‘nikma va malakaga ega bo‘ladilar:

Tinglovchi:

- fuqaro muhofazasi omillarini;
 - rejalahtirishga qo‘yiladigan talablarni;
 - terrorizm tushunchasi, uning salbiy illatlari va amalga oshirish usullarini;
 - xalqaro terrorizm va unga qarshi olib boriladigan harakatlarni;
 - terroristik harakatlarga qarshi O‘zbekistonda yaratilgan huquqiy baza asoslari va jahon miqyosidagi uning ishtirokini;
 - qutqaruv va birlamchi tiklov ishlarining mohiyatini;
 - texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlarni sababchi omillari va turlarini
- bo‘lishi lozim.**

Tinglovchi:

- Fuqaro muhofazasi omillarini rejalahtirish;
- fuqaro muhofazasi bo‘yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlarni rasmiylashtirish;
- terrorizm salbiy illatlari va amalga oshirish usullaridan foydalanish;
- xalqaro terrorizm va unga qarshi olib boriladigan harakatlarni tahlil qilish;
- har qanday ekstremal vaziyatlarda qutqaruv va birlamchi tiklov omillarini ishlab chiqish;
- texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlarni sababchi omillari va turlaritahlil qilish;
- muhofaza tadbirlarining iqtisodiy yo‘nalishlarini aniqlash;
- aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish huquqiy me'yoriy manbalarini amaliy tahlil qilish;
- gidrotexnik inshootlardagi yong‘in chiqish va portlash xavfi bo‘lgan ob’ektlardagi avariyalarda olib boriladigan chora-tadbirlar ishlab chiqishi **ko‘nikma** siga ega bo‘lishi kerak.

Tinglovchi:

- fuqaro muhofazasi bo‘yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlarni rasmiylashtirish;
- xalqaro terrorizm va unga qarshi olib boriladigan harakatlarni amalga oshirish;
- har qanday ekstremal vaziyatlarda qutqaruv va birlamchi tiklov omillarini amalga oshirish uslublari dan foydalanish;

-gidrotexnik inshootlardagi yong‘in chiqish va portlash xavfi bo‘lgan ob'ektlardagi avariyalarda olib boriladigan chora-tadbirlar ishlab chiqish **malakalarini** egallashi zarur.

Tinglovchi:

- Fuqaro muhofazasi omillarini rejalashtirish va fuqaro muhofazasi bo‘yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlarni rasmiylashtirish;
- aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish huquqiy me'yoriy manbalarini, amaliy tahlil qilishi va tadbiq eta olish;
- soha yo‘nalishidagi fanlarni o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol usullarni qo‘llash bo‘yicha **kompetensiyalarga** ega bo‘lishi lozim.

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

“Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi” kursi ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

- ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;
- o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so‘rovlardan, test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrslash, kichik guruhrular bilan ishlash va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

“Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi” moduli mazmuni o‘quv rejadagi “Hayotiy faoliyat xavfsizligi” “Mehnat muhofazasi” va “Yong‘in xavfsizligi” o‘quv modullari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, “Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi” sohasi muammo va vazifalarini pedagogik jarayonga tatbiq etish masalalarini hal etishga, shuningdek, sohadagi yangi texnika va texnologiyalarni o‘quv jarayoniga joriy etish orqali ta’lim va ishlab chiqarish uyg‘unligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Modulning oliy ta’limdagi o‘rnii

Ta’lim tizimida sezilarli o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Ayniqsa, ilmiy-texnik taraqqiyotning tezda o‘sishi “Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi” modulining oliy ta’limdagi o‘rnida ham aks etmoqda.

Modul “Hayotiy faoliyat xavfsizligi” yo‘nalishi Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi modulini o‘qitishda innovatsion texnologiyalarni yaratish va ulardan ta’lim tizimida foydalanish orqali ta’limni samarali tashkil etishga va ta’lim sifatini tizimli orttirishga yordam beradi. Zamonaviy axborot texnologiyalari va pedagogik dasturiy vositalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan

foydanishni o‘zlashtirish va o‘quv-tarbiya jarayonida qo‘llash haqidagi bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishga asoslanganligi bilan alohida ahamiyatga ega.

Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti

| № | Modul mavzulari | Tinglovchining o‘quv yuklamasi, soat | | | |
|--------------|--|--------------------------------------|----------|-------------------|--------------------|
| | | Jami | Nazariy | Amaliy mashg‘ulot | Qo‘shma mashg‘ulot |
| 1. | Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishning huquqiy asosi | 2 | 2 | | |
| 2. | Aholi va xududlarni FVdan muhofaza qilish tadbirlarini rejalashtirish | 4 | 2 | 2 | |
| 3. | Aholi va xududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida xalqaro tashkilotlar va xorij mamlakatlari bilan hamkorlik | 2 | 2 | | |
| 4. | Xalqaro terrorizmning oqibatlari va unga qarshi kurashda O‘zbekistonning tutgan o‘rni | 2 | 2 | | |
| 5. | Yuzaga kelgan xavflarni bartaraf etishda qutqaruв ishlarini o‘tkazish | 4 | | 4 | |
| 6. | Kuchli ta’sirli zaharli moddalar qo‘llaniladigan ob’ektlardagi avariyalarda kimyoviy holatni baholash | 2 | | 2 | |
| 7. | Fuqarolarni himoya qilish uslubiyotlarini o‘rganish | 2 | | 2 | |
| Jami: | | 18 | 8 | 10 | |

NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishning huquqiy asosi

Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishning mohiyati va asoslari. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qarorlari, me'yoriy hujjatlari.

2-mavzu: Aholi va xududlarni FVdan muhofaza qilish tadbirlarini rejalashtirish

Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo'yicha rejalar, ularning ishlab chiqilishi va mazmuniga qo'yiladigan asosiy talablar. Tinchlik davridagi tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarni oldini olish. Favqulodda vaziyatlarni bartaraf qilish harakatlari rejasining tuzilishi, bo'limlari va ilovalarning mazmuni.

3-mavzu: Aholi va xududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida xalqaro tashkilotlar va xorij mamlakatlari bilan hamkorlik.

Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bilan shug'ullanuvchi xalqaro tashkilotlar. O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining xalqaro hamkorligi. Xorij mamlakatlarida favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tizimi

4-mavzu: Xalqaro terrorizmning oqibatlari va unga qarshi kurashda O'zbekistonning tutgan o'rni.

Terrorizm va uning mohiyati. Terrorchilik harakatlarini amalga oshirish usullari va vositalari. Terrorizmga qarshi kurash. Terrorizm bilan bog'liq ekstremal va favqulodda vaziyatlarda aholining harakatlari

AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-amaliy mashg'ulot: Aholi va xududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tadbirlarini rejalashtirish

Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi bo'yicha rejalashtirish tadbirlarini amaliy bajarish.

2-amaliy mashg'ulot: Yuzaga kelgan xavflarni bartaraf etishda qutqaruv ishlarini o'tkazish

Favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda ularning oqibatlarini bartaraf etishni tashkil etish, birinchi navbatda qutqaruv ishlari va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni tashkil qilish uchun kuch va vositalardan foydalanish.

3-amaliy mashg'ulot: Kuchli ta'sirli zaharli moddalar qo'llaniladigan ob'ektlardagi avariyalarda kimyoviy holatni baholash

Kimyoviy holatni aniqlash va baholashni o'rganish, havodagi zaharli moddalarini aniqlash, tuproq va sochiluvchi materiallarda zaharli moddalarini aniqlash.

4-amaliy mashg'ulot: Fuqarolarni himoya qilish uslubiyotlarini o'rganish

FV da fuqarolarni himoya qilish usullarini o'rganish. Favqulodda vaziyatlarda shaxsiy himoya vositalaridan foydalanishni o'rganish.

TA'LIMNI TASHKIL ETISH SHAKLLARI

Ta'limni tashkil etish shakllari aniq o'quv materiali mazmuni ustida ishlayotganda o'qituvchini tinglovchilar bilan o'zaro harakatini tartiblashtirishni, yo'lga qo'yishni, tizimga keltirishni nazarda tutadi.

Modulni o'qitish jarayonida quyidagi ta'limning tashkil etish shakllaridan foydalaniladi: 1) ma'ruza; 2) amaliy mashg'ulot.

O'quv ishini tashkil etish usuliga ko'ra:

1) jamoaviy; 2) guruhli (kichik guruhlarda, juftlikda); 3) yakka tartibda.

Jamoaviy ishslash – bunda o'qituvchi guruhlarning bilish faoliyatiga rahbarlik qilib, o'quv maqsadiga erishish uchun o'zi belgilaydigan didaktik va tarbiyaviy vazifalarga erishish uchun xilma-xil metodlardan foydalanadi.

Guruhlarda ishslash – bu o'quv topshirig'ini hamkorlikda bajarish uchun tashkil etilgan, o'quv jarayonida kichik guruxlarda ishslashda (3 tadan – 7 tagacha ishtirokchi) faol rol o'ynaydigan ishtirokchilarga qaratilgan ta'limni tashkil etish shaklidir. O'qitish metodiga ko'ra guruhni kichik guruhlarga, juftliklarga va guruhlarora shaklga bo'lish mumkin. *Bir turdag'i guruhli ish* o'quv guruhlari uchun bir turdag'i topshiriq bajarishni nazarda tutadi. *Tabaqalashgan guruhli ish* guruhlarda turli topshiriqlarni bajarishni nazarda tutadi.

Yakka tartibdagi shaklda - har bir ta'lim oluvchiga alohida- alohida mustaqil vazifalar beriladi, vazifaning bajarilishi nazorat qilinadi.

II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTReFAOL TA'LIM METODLARI

“Muammoli vaziyat” metodi

“Muammoli vaziyat” metodi - ta'lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning yechimini topish bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir.

“Muammoli vaziyat” metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi ta'lim oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. Ular qo'yilgan muammoning yechimini topishga qodir bo'lishlari kerak, aks holda yechimni topa olmagach, ta'lim oluvchilarning qiziqishlari so'nishiga, o'zlariga bo'lgan ishonchlarining yo'qolishiga olib keladi. «Muammoli vaziyat» metodi qo'llanilganda ta'lim oluvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning yechimini topishni o'rganadilar.

“Muammoli vaziyat” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta'lim beruvchi mavzu bo'yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga muammoni bayon qiladi.

2. Ta'lif beruvchi ta'lif oluvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.
3. Ta'lif beruvchi ta'lif oluvchilarni kichik guruhlarga ajratadi.
4. Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o'rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so'ng bir xil fikrlar jamlanadi.
5. Bu bosqichda berilgan vaqt mobaynida muammoning oqibatlari to'g'risida fikr-mulohazalarini taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so'ng bir xil fikrlar jamlanadi.
6. Muammoni yechishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar, ularni tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni yechish yo'llarini ishlab chiqadilar.
7. Kichik guruhlar muammoli vaziyatning yechimi bo'yicha taqdimot qiladilar va o'z variantlarini taklif etadilar.

Barcha taqdimotdan so'ng bir xil yechimlar jamlanadi. Guruh ta'lif beruvchi bilan birligda muammoli vaziyatni yechish yo'llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi

Topshiriq:

Quyida keltirilgan topshiriq variantlari bo'yicha tabiiy ofat sabablarini, oqibatlarini va unga qarshi chora – tadbirlarni Respublikamizning qaysi hududlarida va qachon kuzatilganini keltiring va ularni grafik shaklda ifodalang.

| FV turlari | Variantlar | | | | | | | | | |
|-----------------------|-------------------|------|------|------|-------|------|------|------|------|-------|
| | 1,20 | 2,19 | 3,18 | 4,17 | 5,16, | 6,15 | 7,14 | 8,13 | 9,12 | 10,11 |
| Tabiiy tusdagi | | | | | | | | | | |
| Sel(jala) | X | | | | | | | | | |
| Ko'chki | | X | | | | | | | | X |
| Zilzila | | | X | | | | | | X | |
| Toshqin | | | | X | | | | X | | |
| Surilish | | | | | X | | X | | | |
| Qor ko'chkisi | | | | | | X | | | | |

Topshiriqni bajarish namunasi.

| FV turlari | FV sababi | FV oqibati | FVga qarshi chora-tadbirlari |
|-------------------|---|--|--|
| Jala | Kunning isib ketishi, haroratning ko'tarilishi, ob- | Toshqinlarning paydo bo'lishi, selning yuzaga kelishi, bino va inshootlarning suv ostida | Suv omborlarini qurish, metereologik stansiyalar bilan doimiy aloqada bo'lish, irrigatsiya |

| | | | |
|--|----------------------------|--|--|
| | havoning keskin o‘zgarishi | qolishi, odamlarning halokati, moddiy zarar. | tizimlarini tozalash, odamlarni ogohlantirish. |
|--|----------------------------|--|--|

«FSMU» metodi

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiyl fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi:




ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiy tartibda taqdimot qilinadi.

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

Fikr: xavflarni o‘rganishda xavf-sabab-oqibat tushunchalari bir-biri bilan bog‘liqlikda bo‘ladi.

Topshiriq: Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

Demak,



Mana shu uchchala tushunchalar ko‘ngilsiz hodisaning asosiy ko‘rsatkichlari hisoblanadi. Ko‘ngilsiz hodisaning oqibatlari turli ko‘rinishda bo‘ladi.

Misolda oqibatga havo transportini yaroqsiz holga kelishi, odamlarning turli darajada jarohat olishi, o‘lim bo‘lishi, yong‘in chiqishi, portlash yuz berishi, buzilishlar, atrof-muhitni zararlanishi va boshqa ko‘ngilsiz hodisalar kiradi.

“Blits-o‘yin” metodi

Metodning maqsadi: tinglovchilarda tezlik, axborotlar tizmini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maksadida qo‘llash samarali natijalarni beradi.

Metodni amalga oshirish bosqichlari:

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya’ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ularidan materialni sinchiklab o‘rganish talab etiladi. Shundan so‘ng, ishtirokchilarga to‘g‘ri javoblar tarqatmadagi «yakka baho» kolonkasiga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.

2. Navbatdagi bosqichda trener-o‘qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiradi va guruh a’zolarini o‘z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga ta’sir o‘tkazib, o‘z fikrlariga ishontirish, kelishgan holda bir to‘xtamga kelib, javoblarini «guruh bahosi» bo‘limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.

3. Barcha kichik guruqlar o‘z ishlarini tugatgach, to‘g‘ri harakatlardan ketma-ketligi trener-o‘qituvchi tomonidan o‘qib eshittiriladi, va o‘quvchilardan bu javoblarni «to‘g‘ri javob» bo‘limiga yozish so‘raladi.
4. «To‘g‘ri javob» bo‘limida berilgan raqamlardan «yakka baho» bo‘limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bulsa «0», mos kelsa «1» ball quyish so‘raladi. Shundan so‘ng «yakka xato» bo‘limidagi farqlar yuqoridan pastga qarab qo‘shib chiqilib, umumiy yig‘indi hisoblanadi.
5. Xuddi shu tartibda «to‘g‘ri javob» va «guruh bahosi» o‘rtasidagi farq chiqariladi va ballar «guruh xatosi» bo‘limiga yozib, yuqoridan pastga qarab qo‘shiladi va umumiy yig‘indi keltirib chiqariladi.
6. Trener-o‘qituvchi yakka va guruh xatolarini to‘plangan umumiy yig‘indi bo‘yicha alohida-alohida sharhlab beradi.
7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo‘yicha o‘zlashtirish darajalari aniqlanadi.

1 –topshiriq: «Favqulodda vaziyatlarning egallagan maydoniga ko‘ra turlari» ketma-ketligini joylashtiring. O‘zingizni tekshirib ko‘ring!

| Talofat ko‘lamiga nisbatan ketma-ketligi | Yakka baho | Yakka xato | To‘g‘ri javob | Guruh bahosi | Guruh xatosi |
|--|------------|------------|---------------|--------------|--------------|
| Mahalliy miqyosida | | | | | |
| Respublika miqyosida | | | | | |
| Lokal | | | | | |
| Transchegaraviy | | | | | |
| Global | | | | | |

2-topshiriq: Favqulodda vaziyatlarda talofat olgan kishini tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish tartibi ketma- ketligini ifodalab o‘zingizni tekshirib ko‘ring!

| Belgilangan tartib bo‘yicha ketma-ketligi | Yakka baho | Yakka xato | To‘g‘ri javob | Guruh bahosi | Guruh xatosi |
|---|------------|------------|---------------|--------------|--------------|
| Sezgi a’zolarini tekshirish | | | | | |
| Nutqini tekshirish | | | | | |
| Qon tomirlari butunligini tekshirish | | | | | |
| Og‘iz bo‘shlig‘ini tekshirish | | | | | |
| Nafas olishini tekshirish | | | | | |

III. NAZARIY MATERIALLAR

1-mavzu: Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishning huquqiy asoslari.

REJA:

1.1. Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishning mohiyati va asosi.

1.2. O'zbekiston Respublikasi qonunlari.

1.3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qarorlari, me'yoriy hujjatlar.

Tayanch iboralar: demokratik fuqarolik jamiyati, huquqiy madaniyati, moddiy va madaniy boyliklarini muhofaza qilish, tezkor harakatini muvofiqlashtiruvchi mexanizmlar, texnogen avariya va halokatlar, moddiy-texnik ta'minoti, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash, favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf, xabar berish va aloqa tizimlarini tashkil qilish, ekologik xususiyatli favqulodda vaziyatlar, qutqaruv va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlar.

1.1. Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishning mohiyati va asosi.

Bizga ma'lumki, XX asrning 60-yillaridan fuqaro mudofaasi tizimi faoliyat ko'rsatib kelgan. Uning asosiy vazifasi tinchlik davrida va urush sharoitida mamlakat aholisini yalpi qirg'in qurollari va boshqa xujum vositalaridan himoya qilish, urush sharoitida iqtisodiyot ob'ektlarining barqaror ishlashini ta'minlash hamda halokat o'choqlarida qutqarish va tiklash ishlarini o'z vaqtida samarali amalga oshirishdan iborat edi.

Lekin aholi hayotiga faqatgina ommaviy qirg'in qurollari emas, balki boshqa xavf-xatarlar ham tahdid solib turadiki, ularni nazardan chetga qochirish aslo mumkin emas. Bular turli tabiiy ofatlar, avariya, halokatlardir. Sodir bo'lib o'tgan bir nechta tabiiy ofatlar (mas., Chernobil atom elektr stansiyasidagi avariya, 25000 odamning yostig'ini quritgan Spitak zilzilasi va boshq.) fuqaro mudofaasining o'rni va vazifalariga boshqacha ko'z bilan qarash kerak ekanligini ko'rsatib berdi. Fuqaro mudofaasi qo'shnulari bunday yirik ko'lamdag'i ofatlarga qarshi kurashishga tayyor emas ekanligi, fuqaro mudofaasi vazifalari faqatgina harbiy davr chegarasida qolishligi mumkin emasligi, ular oldiga qo'yilgan vazifalar ko'lamini kengaytirish lozimligi ayon bo'lib qoldi. Endilikda fuqaro mudofaasi uchun avariya, halokat va tabiiy ofatlarning oqibatlarini tugatish, avariya-qutqaruv ishlarini olib borish bilan birga sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish, bunday vaziyatlarni bashoratlash vazifasi yetakchi rol o'ynashi lozim edi.

Fuqaro mudofaasi o‘rnini bo‘lishi mumkin bo‘lgan yirik ko‘lamdagi favqulodda vaziyatlarga avvaldan tayyorlikni ta‘minlovchi yangi maxsus davlat tizimi egallashi, u tinchlik hamda urush davrida aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishni taqozo etar edi. Bu tizim aholini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va qutqaruv ishlarini o‘tkazibgina qolmay, boshqa muhim tadbirlarni: xavfli hududlarni xaritalashtirish, seysmik mustahkam bino va inshootlarni qurish, qisqa, o‘rta va uzoq muddatli bashoratlash ishlarini tashkil qilishi va aholi tayyorligini amalga oshirishi lozim edi.

Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida qo‘yilgan dadil qadamlardan biri - avval Mudofaa vazirligi qoshida fuqaro muhofazasi va favqulodda vaziyatlar boshqarmasining, so‘ngra esa shu boshqarma negizida **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 4 martdagি PF-1378-sonli Farmoni** bilan Favqulodda vaziyatlar vazirligining tashkil etilishi bo‘ldi.

Farmon bilan favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish, aholi hayoti va salomatligini, moddiy va ma‘naviy qadriyatlarni muhofaza qilish, shuningdek tinchlik va harbiy davrda favqulodda vaziyatlar vujudga kelganda ularning oqibatlarini tugatish hamda zararlarini kamaytirish sohasida davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish vazirlikning asosiy vazifalaridan biri deb belgilandi.

2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi vazifalariga muvofiq, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish chora-tadbirlari samaradorligini yanada oshirish maqsadida:

1. Quyidagilar favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish tizimini takomillashtirishning eng muhim yo‘nalishlari belgilandi:

O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligini favqulodda vaziyatlar tahdidi va xavfini oldindan bartaraf etadigan, aholi hayoti va sog‘ligiga xavf tug‘ilganda o‘z vaqtida va kompleks yordam ko‘rsatishga qaratilgan faoliyat olib boradigan, uning har bir xodimi “O‘z vaqtida ogohlantirish, qutqarish va yordam berish” shiori ostida xizmat qiladigan mobil, zamonaviy professional xizmatga aylantirish;

aholi, birinchi navbatda, voyaga yetmaganlar va yoshlar bilan muloqotlarni mustahkamlash va kengaytirish, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari va boshqa fuqarolik jamiyati institatlari bilan favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish sohasida o‘zaro hamkorlikni ta‘minlash;

O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi tuzilmasini takomillashtirish, aholi va hududlar xavfsizligiga tahdidlar, tabiiy va texnogen xususiyatli xavflar manbalari mavjudligini hisobga olgan holda, tuman va shaharlardagi kuch va vositalarni samarali taqsimlash, aholi hayoti va sog‘lig‘iga

xavf tug‘ilganda o‘z vaqtida va sifatli yordam ko‘rsatuvchi turli xizmatlarning tezkor harakatini muvofiqlashtiruvchi mexanizmlarni yaratish;

-favqulodda vaziyatlar sodir bo‘lishi xavfining chuqur tahlilini va aniqlashni nazarda tutuvchi favqulodda vaziyatlarni monitoring qilish va prognozlash tizimini takomillashtirish, respublika hududlarini seysmik xavflar, texnogen avariya va halokatlar manbalari bo‘yicha rayonlashtirish;

-fuqarolarning hayoti va sog‘ligi, mol-mulkiga xavflarni barvaqt profilaktika qilish va ularning oldini olish, hayotiy faoliyatni ta‘minlovchi ob’ektlar va tizimlarning barqaror ishlashini, tahdidlar va ularning kelib chiqish omillarini oldindan aniqlash, bartaraf etish borasida aniq choralar ko‘rish, aholining ushbu sohada ma'lumotlarga ega bo‘lish darajasini oshirishni ta‘minlash;

-katta va alohida muhim suv xo‘jaligi ob’ektlarining texnik holatini hamda bexatar ishlashini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, shuningdek, kichik hajmli kemalarni ekspluatatsiya qilish bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlar yuzaga kelishining oldini olish va suv havzalarida odamlar xavfsizligini ta‘minlash maqsadida davlat nazorati va kuzatuvini kuchaytirish;

-aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish vakolatiga ega rahbarlar va mansabdar shaxslar tomonidan ommaviy axborot vositalari imkoniyatlaridan keng foydalangan holda fuqarolarni favqulodda vaziyatlar sodir bo‘lganda harakat qilishga tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish;

-O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi xodimlarini favqulodda vaziyatlarga tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini rivojlantirish, shuningdek, vazirlilik uchun kadrlarni shakllantirish tartibini tubdan qayta ko‘rib chiqish;

-O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Gidrometeorologik va Seysmologik xizmatlarning moddiy-texnik ta‘minotini yanada yaxshilash, o‘quv va ilmiy-texnik bazasini modernizatsiya qilish, ilmiy xodimlar, mutaxassislar va qutqaruvchilarning samarali ishlashi uchun munosib sharoitlar yaratish;

-favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish choratadbirlarini tashkil qilish va amalga oshirishning barcha bosqichlarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng tatbiq etish;

-favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etishga qaratilgan maqsadli va ilmiy-tadqiqot dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, shuningdek, ular yuz berganda iqtisodiyot ob’ektlari faoliyati barqarorligini oshirish.

-O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Gidrometeorologik xizmat markazi tarkibiy tuzilmalari bilan birgalikda;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Katta va alohida muhim suv xo‘jaligi ob’ektlarining texnik holatini hamda bexatar ishlashini nazorat qilish davlat inspeksiyasi;

-O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi G‘.A.Mavlonov nomidagi Seysmologiya institutining tezkor xabarlar xizmati va seysmik xavfning seysmologik monitoringi va prognostik monitoring respublika tarmog‘i.

Gidrometeorologik xizmat markazi va uning tarkibiy tuzilmalari, Katta va alohida muhim suv xo‘jaligi ob’ektlarining texnik holatini hamda bexatar ishlashini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Seysmologiya institutining tezkor xabarlar xizmati va seysmik xavfning seysmologik monitoringi va prognostik monitoring respublika tarmog‘i mavjud shtat birligi va moddiy-texnik bazasi bilan to‘liq, amaldagi moliyalashtirish tartibi, mehnatga haq to‘lash va moddiy rag‘batlantirish tartibi bilan o‘tkaziladi.

Seysmologiya institutining tezkor xabarlar xizmati va seysmik xavfning seysmologik monitoringi va prognostik monitoring respublika tarmog‘i bazasida O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining seysmoprogностик monitoring Respublika markazi tashkil etilsin.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi G‘.A.Mavlonov nomidagi Seysmologiya instituti O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining seysmoprogностик monitoring Respublika markazi faoliyatini ilmiy-metodik jihatdan ta'minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasida aholi va iqtisodiyot ob’ektlarini muhofaza etishni ta'minlashga rahbar etib O‘zbekiston Respublikasi Bosh Vaziri belgilandi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, shaharlar va tumanlarda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi va tegishli hududlarning hokimlari; vazirliklar, idoralar, uyushmalar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda vazirlar, davlat qo‘mitalari va uyushmalar boshqaruvlari raislari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning direktor va boshliqlari aholi va iqtisodiyot ob’ektlarini muhofaza etishga rahbar etib tayinlandilar.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, shaharlar va tumanlarda favqulodda vaziyatlar boshqarmalari (bo‘limlari)ning tashkil etilishi va boshqarma (bo‘lim) boshliqlarining joylardagi fuqaro muhofazasi boshliqlarining o‘rindosarlari hisoblanishi aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish samaradorligini oshirishda katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

1.2. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari

Vatanimiz Prezidenti tomonidan olib borilayotgan odilona siyosat tufayli inson manfaati, inson qadriyati eng oldingi o‘rindadir. Asosiy Qomusimiz bo‘lgan

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosini ham inson, uning qadr-qimmati, salomatligi tashkil etadi. Insonning hayoti, yashashga bo‘lgan huquqi Konstitutsiya bilan muhofaza qilinadi.

Asosiy Qomusimizda xavfsizlik, fuqarolar muhofazasi masalalariga ham o‘rin berilgan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-moddasida shunday deyiladi:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti favqulodda vaziyatlar (real tashqi xavf, ommaviy tartibsizliklar, yirik halokat, tabiiy ofat, epidemiy) yuz bergan taqdirda fuqarolarning xavfsizligini ta‘minlashni ko‘zlab, O‘zbekiston Respublikasining butun hududida yoki uning ayrim joylarida favqulodda holat joriy etadi, qabul qilgan qarorini uch kun mobaynida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining tasdig‘iga kiritadi. Favqulodda holat joriy etish shartlari va tartibi qonun bilan belgilanadi.

Oliy Majlisning vakolatlariga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining umumiy yoki qisman safarbarlik e’lon qilish, favqulodda holat joriy etish, uning muddatini uzaytirish va to‘xtatish to‘g‘risidagi farmonlarini tasdiqlash kiradi (78-modda).

Mahalliy hokimiyat organlarining Konstitutsiyamiz tomonidan belgilangan vazifalari qatoriga jumladan quyidagilar kiradi:

qonuniylikni, huquqiy-tartibotni va fuqarolarning xavfsizligini ta‘minlash;

mahalliy byudjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig‘imlarni belgilash, byudjetdan tashqari jamg‘armalar hosil qilish;

atrof muhitni muhofaza qilish (100-modda).

So‘nggi yillarda Oliy Majlis tomonidan yangi asrda aholining xavfsizligini kafolatlovchi, fuqarolar mas’uliyati va jamiyat taraqqiyotining huquqiy zaminini belgilovchi bir nechta qonunlar qabul qilindi. «Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatlari favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida», «Fuqaro muhofazasi to‘g‘risida»gi, «Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida», «Gidrotexnik inshootlar xavfsizligi to‘g‘risida», «Odamning immunitet tanqisligi virusi bilan kasallanishning (OIV kasalligining) oldini olish to‘g‘risida», «Qishloq xo‘jalik o‘simliklarini zararkunandalar, kasalliklar va begona o‘tlardan himoya qilish to‘g‘risida», «Radiatsiyaviy xavfsizlik to‘g‘risida», «Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida», «Qutqaruv xizmati va qutqaruvchi maqomi to‘g‘risida», «O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga qo‘sishimchalar kiritish haqida»gi qonunlar shular jumlasidandir.

Yuqorida sanab o‘tilgan qonunlar ichida O‘zbekiston Respublikasining 1999 yil 20 avgustdagи “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatlari favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonuni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi asosiy hujatlardan biri hisoblanadi.

Ushbu qonun aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatlari favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi hamda favqulodda vaziyatlar ro'y berishi va rivojlanishining oldini olish, favqulodda vaziyatlar keltiradigan talafotlarni kamaytirish va favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishni maqsad qilib qo'yadi.

Qonunda davlat hokimiyati va boshqaruving barcha darajadagi organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tomonidan aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlarda muhofaza qilishning asosiy tamoyillari, maqsadlari, vazifalari va usullari aniqlanib, mustahkamlab qo'yilgan.

I bo'lim "Umumiy qoidalar" deb nomlanib o'z ichiga 1-5-moddalarni oladi. Ularda qonunning asosiy maqsadi, favqulodda vaziyatlar bo'yicha asosiy tushunchalar, qonun hujjatlari, muhofazaning asosiy prinsiplari va axborot qanday bo'lishi lozimligi ko'rsatib berilgan.

Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishning asosiy tamoyillari insonparvarlik, inson hayoti va sog'lig'ining ustuvorligi; oshkorlik; axborotning o'z vaqtida berilishi va ishonchli bo'lishi; favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish choralarining oldindan ko'rinishidan iborat.

II bo'lim - "Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishni ta'minlash tizimi" - 6-14-moddalar. Muhofaza tizimini tashkil etuvchi organlar, ularning vazifalari haqida so'z yuritiladi. Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi, Vazirlar Mahkamasi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, vazirliklar, idoralar, mahalliy hokimiyat organlarining vakolatlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning majburiyatları belgilab berilgan, ilk bor fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalarining ishtiroki ko'rsatilgan.

Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo'yicha maxsus vakolatli davlat boshqaruvi organi Favqulodda vaziyatlar vazirligining vazifalari 8-moddada keltirilgan:

favqulodda vaziyatlarning oldini olish, bunday vaziyatlarda aholi hayoti va sog'lig'ini, moddiy va madaniy boyliklarni muhofaza qilish, shuningdek favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish va zararni kamaytirish yuzasidan choralar ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi;

aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida maxsus dasturlar ishlab chiqilishi va ilmiy-tadqiqotlar amalga oshirilishini tashkil etadi;

o'z vakolati doirasida vazirlik va idoralar, korxona, muassasa va tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar qabul qiladi;

boshqaruv organlarining, aholini va hududlarni muhofaza qilish kuchlari va vositalarining favqulodda vaziyatlar sharoitida harakat qilishga tayyor bo‘lishini tashkil etadi;

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish kuchlari va vositalari boshqaruvini amalga oshiradi, boshqaruv punktlari, xabar berish va aloqa tizimlarini tuzadi;

favqulodda vaziyatlar sharoitida avariya-qutqaruv ishlari va kechiktirib bo‘lmaydigan boshqa ishlar o‘tkazilishini tashkil etadi;

aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tadbirlari bajarilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi;

ishlab chiqarish va ijtimoiy ob’ektlar bo‘yicha loyihalar va qarorlar yuzasidan davlat ekspertizasi o‘tkazilishida ishtirok etadi;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

“Fuqarolarning huquq va majburiyatları” deb nomlanuvchi III bo‘lim 15-19-moddalarni o‘z ichiga oladi va qonunning asosiy bo‘limi hisoblanadi. Chunki ushbu qonun umuman ayni insonni, uning hayotini, salomatligini va shaxsiy mulkini muhofaza qilishga qaratilgan. Bu bo‘limda shaxs, jamiyat va davlat manfaatlari uзвиy birlikda ko‘rib chiqilgan.

Bo‘limning 18-19-moddalari aholini va mutaxassislarni favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash va muhofaza sohasidagi bilimlarning targ‘iboti masalalariga bag‘ishlangan. Endilikda umumta‘lim maktablari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari hamda oliy o‘quv yurtlarida, ishlab chiqarish va turar joylarda aholini favqulodda vaziyatlardan harakat qilishga o‘rgatish umumiylar majburiydir, deb qonunda belgilab qo‘yildi.

20-25-moddalar qonunning IV bo‘limini tashkil etadi. Bu bo‘lim “Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish”ga bag‘ishlangan bo‘lib, favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun zarur bo‘lgan kuch va vositalar, favqulodda vaziyatlar ro‘y bergan zonalar chegarasi, qo‘srimcha kuch va vositalar qaerdan olinadi kabi savollarga javob beradi.

Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga qaratilgan harakatlar hududi va ob’ektlarida bunday vaziyat ro‘y bergan korxona, muassasa va tashkilotlarning, vazirlilik, idora va hokimliklarning kuchlari va vositalari bilan amalga oshiriladi. Zarurat bo‘lganda qo‘srimcha kuch va vositalar jalb qilinadi.

“Yakunlovchi qoidalar” deb nomlanuvchi V bo‘lim moliyaviy va moddiy resurslarning zaxiralarini barpo etish va ulardan foydalanish tartibini belgilaydi. Bu yerda shuningdek aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi qonunni buzganlik uchun tashkilotlar, mansabdar shaxslar va fuqarolar javobgar bo‘lishlari ta‘kidlab o‘tilgan.

“Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida davlat siyosatini og‘ishmay amalga oshirish, haqiqiy xavf-xatar manbalarini va ularning tabiatini anglab yetish har bir kishiga o‘zini yuz berishi mumkin bo‘lgan avariya, halokat, tabiiy ofatlardan muhofaza qilinganini sezish iskoniyatini beradi.

O‘zbekiston Respublikasining 2000 yil 26 maydagi “Fuqaro muhofazasi to‘g‘risida”gi qonuni “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonundan farqli o‘laroq harbiy harakatlar olib borish davri masalalariga bag‘ishlangan. Ushbu qonun fuqaro muhofazasi sohasidagi asosiy vazifalarni, ularni amalga oshirishning huquqiy asoslarini, davlat organlarining, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning vakolatlarini, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining huquqlari va majburiyatlarini, shuningdek fuqaro muhofazasi kuchlari va vositalarini belgilaydi.

Qonun 5 bo‘lim va 23 moddadidan iborat. I bo‘lim - “Umumiy qoidalar” - beshta moddani o‘z ichiga olib, bu moddalarda fuqaro muhofazasining asosiy tushunchalari, vazifalari, qonun hujjatlari, ushbu qonunni buzganlik uchun javobgarlik va xalqaro hamkorlik to‘g‘risida ma'lumotlar berilgan.

Fuqaro muhofazasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

aholini harbiy harakatlar olib borish paytida yoki shu harakatlar oqibatida yuzaga keladigan xavflardan himoyalanish usullariga o‘rgatish;

ob’ektlarni harbiy harakatlar olib borish paytida yoki shu harakatlar oqibatida yuzaga keladigan xavflardan himoyalash harakatlari va usullariga tayyorlash;

boshqaruv, xabar berish va aloqa tizimlarini tashkil qilish, rivojlantirish va doimiy shay holatda saqlab turish;

iqtisodiyot ob’ektlarining barqaror ishlashini ta’minlash yuzasidan tadbirlar kompleksini o‘tkazish;

aholini, moddiy va madaniy boyliklarni xavfsiz joylarga evakuatsiya qilish;

fuqaro muhofazasi harbiy tuzilmalarining shayligini ta’minlash;

aholini umumiy va yakka muhofazalanish vositalari bilan ta’minlash tadbirlarini o‘tkazish;

aholining harbiy harakatlar olib borish paytidagi yoki shu harakatlar oqibatidagi hayot faoliyatini ta’minlash;

radiatsion, kimyoviy va biologik vaziyat ustidan kuzatish va laboratoriya nazorati olib borish;

qutqaruv va boshqa kechiktirib bo‘lmaydigan ishlarni o‘tkazish;

harbiy harakatlar olib borish paytida yoki shu harakatlar oqibatida zarar ko‘rgan hududlarda jamoat tartibini yo‘lga qo‘yish va saqlab turish;

aholini va hududlarni muhofaza qilish yuzasidan boshqa tadbirlarni amalga oshirish.

“Fuqaro muhofazasiga rahbarlik qilish, davlat organlari va tashkilotlarning fuqaro muhofazasi sohasidagi vakolatlari” deb nomlangan II bo‘lim 7 ta moddadan iborat bo‘lib 6-12-moddalarni o‘z ichiga oladi. Bo‘limning asosiy maqsadi fuqaro muhofazasiga rahbarlikni amalga oshiruvchi, fuqaro muhofazasi sohasidagi maxsus vakolatli davlat organi, vazirliklar, idoralar, mahalliy hokimiyat organlari, tashkilotlar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining vazifalari nimalardan iborat degan savollarga javob berishdan iborat.

Favqulodda vaziyatlar vazirligi fuqaro muhofazasi sohasidagi maxsus vakolatli organ hisoblanadi. Uning vazifalari quyidagilardan iborat:

o‘z vakolati doirasida davlat hokimiyati va boshqaruva organlari, tashkilotlar, mansabdar shaxslar va fuqarolar uchun bajarilishi majburiy bo‘lgan qarorlar qabul qiladi;

O‘zbekiston Respublikasi fuqaro muhofazasi reja loyihasini ishlab chiqadi;

harbiy qismlar va fuqaro muhofazasi tuzilmalari boshqarilishini tashkil etadi;

fuqaro muhofazasi ehtiyojlarini ko‘zlab zarur quroq-aslahalar, texnika, muhofazalanish vositalari va boshqa moddiy-texnika vositalari yetkazib berilishi uchun davlat buyurtmasi loyihasini shakllantiradi;

xabar berishni tashkil etish va fuqaro muhofazasi tizimini shay holatga keltirish bo‘yicha direktiv hujjatlar ishlab chiqadi;

fuqaro muhofazasi kuchlari va vositalarining jangovarlik hamda safarbarlik tayyorgarligini ta‘minlaydi;

shaxsiy tarkib va aholi fuqaro muhofazasi sohasida o‘rgatilishini tashkil etadi;

fuqaro muhofazasi tadbirlari bajarilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Fuqaro muhofazasi sohasidagi fuqarolarning huquq va majburiyatları III bo‘limda keltirilgan. Fuqarolar o‘z huquq va majburiyatlarını amalga oshirish uchun fuqaro muhofazasi sohasida yetarli bilimga ega bo‘lishlari zarur. Shu sababli ham ularni fuqaro muhofazasi sohasida o‘rgatish 16-modda bilan umumiy va majburiy deb belgilab qo‘yilgan.

IV bo‘lim - “Fuqaro muhofazasi xizmatlari va kuchlari” - fuqaro muhofazasi tadbirlarini amalga oshirish uchun zarur xizmatlar va kuchlar, tuzilmalarning tarkibini aniqlab beradi.

18 yoshdan 60 yoshgacha bo‘lgan erkaklar, 18 yoshdan 55 yoshgacha bo‘lgan ayollar ba’zi hollarni mustasno qilgan holda fuqaro muhofazasi tuzilmalari tarkibiga qabul qilinadilar va qidiruv ishlarini olib borish, tibbiy yordam ko‘rsatish,

yong‘inlarning tarqalishiga yo‘l qo‘ymaslik, jamoat tartibini saqlash kabi tuzilmalar tarkibida harakat qiladilar.

Va nihoyat, V bo‘lim “Fuqaro muhofazasini moliyaviy ta‘minlash. Fuqaro muhofazasi ob’ektlari va mol-mulki” deb nomlangan. Bu bo‘limda fuqaro muhofazasini moliyalash, fuqaro muhofazasi qo‘shinlarining asosiy fondlari, ob’ektlari va mol-mulki masalasi ko‘rib chiqilgan.

Ma'lumki, respublikamizda mavjud bo‘lgan gidrotexnik inshootlarda avariya, halokat yuz bergudek bo‘lsa, aholi va hududlarimizga ma'lum miqdorda xavf tug‘dirishi mumkin. Shu sababli O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XV sessiyasida qabul qilingan qonunlardan yana biri **“Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to‘g‘risida”**gi qonundir.

Qonun 15 moddadan iborat. Ushbu qonunning maqsadi gidrotexnika inshootlarini loyixalashtirish, qurish, foydalanishga topshirish, ularni rekonstruksiya qilish, konservatsiyalash va tugatishda xavfsizlikni ta‘minlash bo‘yicha faoliyatni amalga oshirishda yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Qonunda gidrotexnika inshootlari, foydalanuvchi tashkilot, favqulodda vaziyat, gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi, xavfsizlik deklaratsiyasi, xavfsizlik mezonlari, gidrotexnika inshooti avariya xavfining yo‘l qo‘yiladigan darajasi kabi tushunchalarga ta‘rif berilgan. Bundan tashqari qonunda Vazirlar Mahkamasi, mahalliy davlat hokimiyyati organlarining vakolatlari ko‘rsatib berilgan, gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi ustidan davlat nazorati haqida so‘z yuritilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi huzuridagi Katta va alohida muhim suv xo‘jaligi ob’ektlarining texnik holatini hamda bexatar ishlashini nazorat qilish davlat inspeksiyasi gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi ustidan davlat nazoratini amalga oshiruvchi maxsus vakolatli organ hisoblanadi.

Qonunning 15-moddasida gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzishda aybdor bo‘lgan shaxslar qonunda belgilangan tartibda javobgar bo‘lishlari belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 2000 yil 31 avgustda qabul qilingan qonunlar orasida **“Radiatsiyaviy xavfsizlik to‘g‘risida”**gi qonun alohida o‘rin tutadi. Ushbu qonunning maqsadi radiatsiyaviy xavfsizlikni, fuqarolar hayoti, sog‘lig‘i va mol-mulki, shuningdek, atrof muhitni ionlashtiruvchi nurlanishning zararli ta’siridan muhofaza qilishni ta‘minlash bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Favqulodda vaziyatlar ichida o‘zining keltiradigan kulfatlari bilan radiatsiyaviy avariylar alohida ajralib turadi. Boshqa turdagи favqulodda vaziyatlar kabi inson sog‘lig‘iga keltiradigan ziyoni tezda ko‘zga ko‘rinmaydi. Shuning uchun ushbu qonun aholi hayoti va salomatligini muhofaza qilishda muhim o‘rin tutadi.

Ushbu qonun 5 bo‘lim va 28 moddadan iborat bo‘lib, ularda asosiy tushunchalarga ta’rif berilgan, radiatsiyaviy xavfsizlikni tartibga solish, radiatsiyaviy xavfsizlikni ta’minalashga qo‘yiladigan talablar, radiatsiyaviy avariya sodir bo‘lganda radiatsiyaviy xavfsizlikni ta’minalash kabi masalalar ko‘rib chiqilgan.

Qonunning I bo‘limi “Umumiy qoidalar” (1-6-moddalar) deb atalib, unda ushbu qonunning maqsadi, qonunda qo‘llaniladigan asosiy tushunchalar, radiatsiyaviy xavfsizlikni ta’minalashning asosiy prinsiplari, fuqarolarning radiatsiyaviy xavfsizlikni ta’minalashdagi huquq va majburiyatları, fuqarolarning ijtimoiy himoyasi masalalariga o‘rin berilgan.

Ikkinci bo‘lim “Radiatsiyaviy xavfsizlikni ta’minalash sohasini tartibga solish” deb nomlanadi va 7-11-moddalarni o‘z ichiga oladi. Radiatsiyaviy xavfsizlikni ta’minalash sohasini davlat tomonidan qanday tartibga solinadi, nazorat qanday olib boriladi, davlat ekspertizasi qanday bo‘ladi kabi savollarga javob berilgan. Bo‘limning 8-moddasiga asosan radiatsiyaviy xavfsizlikni ta’minalash sohasidagi davlat nazoratini Sanoatda va konchilikda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish agentligi, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi, O‘zbekiston Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi davlat bojxona qo‘mitasi amalga oshiradi.

“Radiatsiyaviy xavfsizlikni ta’minalashga doir talablar” III bo‘limda (12-22-moddalar) keltirilgan. Bo‘limda tabiiy radionuklidlar ta’sir etish chog‘ida, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda hamda ichimlik suvidan foydalanishda, tibbiy rentgenradiologik muolajalar o‘tkazilganda xavfsizlikni ta’minalash tartiblari yoritib berilgan.

“Radiatsiyaviy avariya sodir bo‘lganda radiatsiyaviy xavfsizlikni ta’minalash”ni IV bo‘limdagi 23-25-moddalar bayon etadi. Bu bo‘limda fuqarolar va atrof muhit radiatsiyaviy avariyalardan muhofaza qilinishlari shartligi (23-modda) bildirilgan va ionlashtiruvchi nurlanish manbalaridan foydalanuvchining avariya sodir bo‘lgan paytdagi majburiyatları (24-modda) keltirilgan.

V bo‘lim - “Yakuniy qoidalar” xalqaro shartnomalar, nizolarni hal etish va qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlikka bag‘ishlangan.

Respublikamizda aholi xavfsizligini ta’minalash uchun 2000 yil 15 dekabrda **“Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi** qonun qabul qilindi.

Qonunning maqsadi terrorizmga qarshi kurash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat bo‘lib, asosiy vazifalari etib shaxs, jamiyat va davlatning terrorizmga qarshi kurashishni ta’minalash, davlatning suverenitetini va hududiy yaxlitligini himoya qilish, fuqarolar tinchligi va milliy totuvlikni saqlash, deb belgilandi.

Qonun “Umumiy qoidalar”, “Davlat organlarining terrorizmga qarshi kurash sohasidagi vakolatlari”, “Terrorchilikka qarshi operatsiyaning o’tkazilishi”, “Terrorchilik harakati oqibatida yetkazilgan zararni qoplash va jabrlangan shaxslarning ijtimoiy reabilitatsiyasi” hamda “Terrorizmga qarshi kurashda ishtirok etayotgan shaxslarning huquqiy va ijtimoiy himoyasi” deb nomlanuvchi 5 bo‘limdan iborat bo‘lib, 31 moddani o‘z ichiga oladi.

Terrorizmga qarshi kurashni amalga oshirishda davlat boshqaruva organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, mansabdaor shaxslar, fuqarolar ko‘maklashishlari zarurligi 6-moddada belgilab berilgan.

Terrorizmga qarshi kurashni O‘zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Davlat chegaralarini himoya qiluvchi qo‘mita, Davlat bojxona qo‘mitasi, Mudofaa vazirligi hamda Favqulodda vaziyatlar vazirligi amalga oshiradi (8-modda). Jumladan, Favqulodda vaziyatlar vazirligi favqulodda vaziyatlardan aholini muhofaza qilish, terrorchilar harakat qilayotgan zonada joylashgan alohida muhim, toifalangan va boshqa ob’ektlar barqaror ishlashini, shuningdek terrorchilik oqibatlarini tugatish yuzasidan vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar va mahalliy davlat hokimiyati organlarining faoliyatini muvofiqlashtiradi hamda tadbirlar o’tkazadi; qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi (14-modda).

Qonunning 31-moddasiga muvofiq terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzilishida aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar.

O‘zbekiston Respublikasining 2006 yil 28 sentyabrdagi «**Xavfli ishlab chiqarish ob’ektlarining sanoat xavfsizligi to‘g‘risida**»gi qonuni xavfli ishlab chiqarish ob’ektlarining sanoat xavfsizligi sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

Sanoat xavfsizligi shaxs va jamiyat hayotiy muhim manfaatlarining xavfli ishlab chiqarish ob’ektlaridagi avariylar va noxush hodisalardan hamda ularning oqibatlaridan himoyalanganlik holatidir.

Xavfli ishlab chiqarish ob’ektlariga portlash-yong‘in xavfi bo‘lgan muhitni yuzaga keltirishi mumkin bo‘lgan moddalar; tasdiqlangan standartlarga muvofiq tirik organizmga ta’sir qilish darajasiga ko‘ra I, II va III xavflilik darajalariga (o‘ta xavfli, yuqori darajada xavfli va o‘rtacha darajada xavfli) mansub zararli moddalar; muayyan turdagи tashqi ta’sir chog‘ida issiqlik ajratgan va gazlar hosil qilgan holda o‘z-o‘zidan juda tez tarqaladigan kimyoviy o‘zgaruvchan portlovchi moddalar; inson sog‘lig‘i va atrof muhit uchun xavfli konsentratsiyali moddalar mavjud bo‘lgan ishlab chiqarish chiqindilari foydalaniladigan, ishlab chiqariladigan, qayta ishlanadigan, hosil qilinadigan, saqlanadigan, tashiladigan, yo‘q qilinadigan; 0,07 megapaskaldan

ortiq bosim ostida yoki ishlatiladigan suyuqlikning normal atmosfera bosimidagi qaynash haroratidan ortiq haroratda ishlaydigan uskunlardan, ko‘chmas asosga o‘rnatilgan yuk ko‘tarish mexanizmlari, eskalatorlar, osma yo‘llar, funikulyorlar (tog‘ temir yo‘llari)dan foydalaniladigan; qora va rangli metallar eritmalar hamda ushbu eritmalar asosida qotishmalar olinadigan; konchilik ishlari, foydali qazilmalarni qazib olish va boyitish ishlari, shuningdek yer osti sharoitida ish olib boriladigan korxonalar yoki ularning sexlari, uchastkalari, maydonchalari va boshqa ishlab chiqarish ob'ektlari kiradi.

Qonun 23 moddadan iborat bo‘lib, unda xavfli ishlab chiqarish ob'ektini loyihalash, qurish va foydalanishga qabul qilib olishga, foydalanishga oid, shuningdek xodimlarga oid sanoat xavfsizligi talablari keltirilgan. Qonunga muvofiq sanoat xavfsizligi talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish ushbu ob'ektlardan foydalanuvchi tashkilotlar tomonidan tekshirilishi belgilab qo‘yilgan.

Xavfli ishlab chiqarish ob'ektida qo‘llaniladigan texnika qurilmalarini sertifikatlashtirish (13-modda), faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash (14-modda), sanoat xavfsizligi ekspertizasi (15-modda), sanoat xavfsizligi deklaratsiyasi (19-modda) masalalari yoritib berilgan.

O‘zbekiston Respublikasining 2008 yil 26 dekabrdagi «**Qutqaruv xizmati va qutqaruvchi maqomi to‘g‘risida**»gi qonuni 5 bob, 31 moddadan iborat bo‘lib, qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalarining tashkil etilishi, faoliyati va tugatilishi sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

Qutqaruvchi – muayyan dastur bo‘yicha qutqaruv ishlariga tayyorlangan va belgilangan tartibda attestatsiyadan o‘tgan O‘zbekiston Respublkasi fuqarosi.

Qutqaruv xizmati – faoliyati bo‘yicha yagona tizimga birlashtirilgan, asosini professional qutqaruv tuzilmalari tashkil etgan, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etishga doir vazifalarni hal etish uchun mo‘ljallangan boshqaruv organlari, kuchlar va vositalar majmui.

Qonunning 1-bobi «Umumiyl qoidalar» deb nomlanib, 6 moddani o‘z ichiga oladi. Ularda asosiy tushunchalar, qutqaruv xizmatlari, qutqaruv tuzilmalari va qutqaruvchilar faoliyatining asosiy prinsiplari, asosiy vazifalari va qutqaruv ishlarining turlari keltirilgan. «Qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalari» deb nomlangan 2-bob (7-15-moddalar) qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalarini tashkil etish, safini to‘ldirish, attestatsiyadan o‘tkazish, faoliyati, faoliyatni moliyalashtirish masalalarini yoritadi.

3-bob – Qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalarining favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishdagi ishtiroki – qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalarini favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga jalb qilish (16-modda),

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish ishlariga rahbarlik qilish (17-modda) va qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalariga o‘z faoliyatini amalga oshirishida ko‘maklashish (18-modda).

Qutqaruvchilar va ularning maqomi 4-bobda ko‘rilgan. Unda qutqaruvchilarning huquqlari va majburiyatları, ularning ish vaqtı (xizmatni o‘tash) rejimi, mehnatga haq to‘lash, uy-joy bilan ta‘minlash, ijtimoiy muhofaza qilish choralari qanday bo‘lishi kabi savollarga javob topish mumkin. 28-31-moddalarni o‘z ichiga olgan 5-bob «Yakunlovchi qoidalar» deb nomlanadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2009 yil 15 dekabrdagi **«O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga qo‘sishimchalar kiritish haqida»gi** qonuniga muvofiq, kodeks 204¹ va 249¹-moddalar bilan to‘ldirilgan:

204¹-modda. Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, shuningdek, fuqaro muhofazasi to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablarini bajarmaslik.

Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, shuningdek, fuqaro muhofazasi to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablarini bajarmaslik – fuqarolarga eng kam ish haqining uchdan bir qismidan bir baravarigacha, mansabdor shaxslarga – uch baravaridan yetti baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Xuddi shunday huquqbazarlik odamlar sog‘lig‘iga, yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkiga zarar yetishiga olib kelsa, atrof tabiiy muhitga va odamlar hayotiga tahdid solsa, - fuqarolarga eng kam ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – yetti baravaridan o‘n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar to‘g‘risidagi axborotni yashirish, o‘z vaqtida taqdim etmaslik yoki ular haqida atayin soxta axborot taqdim etish etish – mansabdor shaxslarga eng kam ish haqining yetti baravaridan o‘n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

249-modda. O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi organlari.

Ushbu kodeksning 204-moddasida nazarda tutilgan huquqbazarliklar aniqlangan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi organlarining mansabdor shaxslari ma’muriy huquqbazarlik to‘g‘risida bayonnomaga tuzadilar.

Ma’muriy huquqbazarlik to‘g‘risidagi bayonnomaga ko‘rib chiqish uchun ushbu Kodeksning 282-moddasida belgilangan tartibda sudga yuboriladi.

«Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartishlar kiritish haqida (2010 yil 17 sentyabr) – 2 ta modda. O‘zbekiston Respublikasining «Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida»gi qonuning 2, 8, 9 va 22-moddalariga o‘zgartishlar kiritilgan.

1.3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qarorlari, me'yoriy hujjatlar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 iyundagi “Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida mutaxassislarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish choralari to‘g‘risida”gi PQ-3030-sonli Qarori: O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi tashkil topgan vaqtidan beri aholini va rahbarlar tarkibini fuqaro muhofazasi va favqulodda vaziyatlar sohasida tayyorlash vazirlikning ustuvor vazifalaridan biri deb belgilangan. Shu maqsadda, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining fuqaro mudofaasi va favqulodda vaziyatlar bo‘yicha rahbarlar tarkibini tayyorlash markazi negizida O‘zbekiston Respublikasi Fuqaro muhofazasi instituti (bundan keyin - Fuqaro muhofazasi instituti) tashkil etilgan.

O‘tgan yillar davomida Fuqaro muhofazasi institutida fuqaro muhofazasi yo‘nalishi bo‘yicha 32068 tinglovchi, safarbarlik tayyorgarligi yo‘nalishi bo‘yicha 4196 tinglovchi, Favqulodda vaziyatlar vazirligining va boshqa vazirlik va idoralarning 601 nafar shartnomaga asosidagi harbiy xizmatchilari hamda 2342 nafar qutqaruv xizmatlarining qutqaruvchilari tayyorgarlikdan o‘tkazildi.

Shu bilan birga, respublikada va xorij mamlakatlarida aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish hamda fuqaro muhofazasi sohasida kadrlar tayyorlash ishlarining har tomonlama tanqidiy taxlili shuni ko‘rsatmoqdaki, ushbu sohada mutaxassislarni tayyorlashning mavjud tizimi hozirgi kun talablariga to‘liq javob bermaydi. Favqulodda vaziyatlarda ularni oldini olish va harakat qilish davlat tizimining (bundan keyin FVDT) boshqaruv organlari xodimlarini, fuqaro muhofazasi kuchlarini, shuningdek, aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga, oliv kasbiy ma'lumotli mutaxassislarni magistr darajasida tayyorlashning yagona tizimi mavjud emas. Amaldagi o‘quv dasturlari tubdan qayta ko‘rib chiqishni talab etadi. Ushbu sohada fundamental va amaliy tadqiqotlar yetarli darajada olib borilmayapti.

Tayyorgarlikdan o‘tkazishning yagona tizimini yaratish, mutaxassislarni aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida qayta tayyorlash va malakasini oshirish darajasini va sifatini yanada takomillashtirish va tubdan o‘zgartirish, ilmiy-tadqiqotlar olib borish samaradorligini oshirish,

shuningdek, Fuqaro muhofazasi instituti moddiy-texnik bazasini rivojlantirish maqsadida:

Fuqaro muhofazasi institutining asosiy vazifalari:

respublika aholisi va hududlarini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, shuningdek, fuqaro muhofazasi sohasida kompleks tadbirlarni tashkil etish va bajarish bo'yicha FVDTning respublika va mahalliy boshqaruv organlari mutaxassislari va mansabdar shaxslarini hamda fuqaro muhofazasi kuchlarini tayyorlashning yagona tizimini tashkil etish, rivojlantirish va tashkiliy-uslubiy rahbarlik qilish;

davlat standartlari, jahon tajribasi, fan va ta'lim sohasidagi innovatsion texnologiyalar an'analari talablarini hisobga olgan holda "Favqulodda vaziyatlarda aholi xavfsizligi" mutaxassisligi bo'yicha magistr darajasiga ega bo'lgan oliy ma'lumotli, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash;

aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, shuningdek, fuqaro muhofazasi sohasida Favqulodda vaziyatlar vazirligining kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchilari va fuqaro xodimlarini, tarkibiy va hududiy bo'linmalari qutqaruv xizmatlari qutqaruvchilarini, FVDT tarkibiga kiruvchi boshqa vazirlik va idoralarning qutqaruv tuzilmalarini, shuningdek, mutaxassislari va mansabdar shaxslarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish;

Favqulodda vaziyatlar vazirligi aholini va rahbarlar tarkibini tayyorlash markazlarining fuqarolarni hamda vazirliklar, idoralar, tashkilotlar va korxonalar, mahalliy davlat hokimiyyati organlari, o'zini o'zi boshqarish organlari mansabdar shaxslarini tayyorlash, shuningdek, umumiyo'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus kasb-hunar va oliy o'quv muassasalarining o'quvchi yoshlarini favqulodda vaziyatlarning oldini olish va sodir bo'lganda harakat qilishga tayyorlash bo'yicha faoliyatiga o'quv-uslubiy rahbarlik qilish;

fuqaro muhofazasi muammolarini hal etishga, tabiiy, texnogen va ekologik xususiyatlari favqulodda vaziyatlarni oldini olish va ularni bartaraf etishga yo'naltirilgan fundamental va amaliy-ilmiy tadqiqotlar, konstrukturlik ishlanmalarini tashkil etish va amalga oshirish;

favqulodda vaziyatlarning oldini olish va harakat qilish, tabiiy ofatlar, avariya va halokatlar oqibatlarini bartaraf etish, hayotiy faoliyat xavfsizligini ta'minlash, aholining barcha toifalarini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga safarbar etishga doir bilimlarni aholi o'rtasida ommalashtirish.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi fuqaro muhofazasi tuzilmalari va ular tuziladigan tashkilotlarni belgilash tartibi to'g'risidagi Nizom hamda tuzilmalarni moddiy-texnik vositalar bilan ta'minlash (tabellashtirish) me'yorini tasdiqlash haqida"gi **369 – sonli qarori**.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 21 avgustdagи “Aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorgarligini oshirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi **650-sonli qarori**.

“Mahalla fuqaro muhofazasi”ning asosiy vazifalari hisoblanadi:

mahalliy davlat hokimiyati organlari va tashkilotlarga fuqarolar yig‘inlari darajasida fuqaro muhofazasi va favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlikka doir vazifalarni bajarishda ko‘maklashish;

aholini favqulodda vaziyatlarda, shuningdek harbiy harakatlar olib borish paytida yoki shu harakatlar oqibatida yuzaga keladigan xavf-xatarlardan himoyalanish usullariga o‘qitish va tayyorlash;

favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish tadbirlariga aholini ixtiyoriy ravishda jalb qilishga ko‘maklashish.

“Mahalla fuqaro muhofazasi” o‘ziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

a) *mahalliy davlat hokimiyati organlari va tashkilotlarga fuqarolar yig‘inlari darajasida fuqaro muhofazasi va favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlikka doir vazifalarni bajarishda ko‘maklashish sohasida*:

qutqaruv va boshqa kechiktirib bo‘lmaydigan ishlarni bajarishga mo‘ljallangan yig‘ma guruhni tuzadi, ta’mnoti va faoliyatini tashkillashtiradi;

o‘z fuqarolar yig‘inlari hududida favqulodda vaziyatlar yoki harbiy harakatlar davrida foydalanish uchun mo‘ljallangan moddiy, tibbiy va boshqa resurslar zaxiralarini yaratadi hamda ularning saqlanishini ta‘minlaydi;

aholini, moddiy va madaniy boyliklarni xavfsiz hududlar (joylar)ga evakuatsiya qilishga tayyorlash bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirishda ko‘maklashadi;

shaxsiy himoya vositalarini qabul qiladi va aholiga tarqatadi;

tegishli hududda ommaviy tadbirlarni o‘tkazish davrida va favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga jamoat tartibini saqlashda yordam ko‘rsatadi;

aholiga xabar berish va ma'lumot (axborot) yetkazish avtomatlashtirilgan tizimining terminal komplekslarining doimiy tayyor holatda saqlanishini ta‘minlashda ishtirop etadi;

sanitariya-gigiena va epidemiyaga qarshi, shuningdek odamlar va hayvonlar o‘rtasida yuqumli kasalliklar tarqalishining oldini olish tadbirlarida ishtirop etadi;

tegishli fuqarolar yig‘ini hududida joriy etilgan favqulodda vaziyat rejimini saqlab turishda va fuqaro muhofazasi tadbirlarini o‘tkazishda ishtirop etadi;

b) aholini favqulodda vaziyatlarda, shuningdek harbiy harakatlar olib borish paytida yoki shu harakatlar oqibatida yuzaga keladigan xavf-xatarlardan himoyalanish usullariga o‘qitish va tayyorlash sohasida:

o‘quv-maslahat punktlarining samarali faoliyatini tashkillashtiradi va ta'minlaydi;

mahalla fuqarolar yig‘ini aholisi bilan tizimli ravishda favqulodda vaziyatlarda, shuningdek harbiy harakatlar olib borish paytida yoki shu harakatlar oqibatida yuzaga keladigan xavf-hatarlardan muhofazalanish usullari bo‘yicha suhbatlar va mashg‘ulotlar o‘tkazadi;

qo‘mondonlik-shtab va taktik-maxsus o‘quv mashqlarini o‘tkazishda ishtirok etadi;

v) favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish tadbirlariga aholini ixtiyoriy ravishda jalb qilishga ko‘maklashish sohasida:

favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish tadbirlariga jalb etish maqsadida aholi o‘rtasida targ‘ibot-tashviqot ishlarini amalga oshiradi;

mahalla fuqarolar yig‘ini o‘quv-maslahat punktlarida tayyorgarlikdan o‘tgan aholi ro‘yxatini shakllantiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 10 dekabrda qabul qilingan «**Xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarining sanoat xavfsizligi to‘g‘risida**»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar haqida» 271-sonli qaroriga to‘rtta Nizom va konsepsiya ilova qilingan:

1-ilova. Xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarini identifikatsiyalash tartibi to‘g‘risida Nizom.

2-ilova. Sanoat xavfsizligi ekspertizasi tizimi to‘g‘risida Nizom.

3-ilova. O‘zbekiston Respublikasida putur yetkazmaydigan nazorat tizimini shakllantirish va rivojlantirish konsepsiysi.

4-ilova. Xavfli ishlab chiqarish ob'ektining sanoat xavfsizligi deklaratsiyasini ishlab chiqish tartibi to‘g‘risida Nizom.

5-ilova. Xavfli ishlab chiqarish ob'ektida avariya yuz bergan taqdirda boshqa shaxslarning hayoti, sog‘lig‘i va (yoki) mol-mulkiga hamda atrof muhitga zarar yetkazganlik uchun fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish tartibi to‘g‘risida Nizom.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 5 yanvardagi «**Qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalarini favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga jalb qilish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida**»gi 2-sonli qarori qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalarini jalb qilish sohasida huquqiy tartibga solishni belgilaydi.

Qutqaruv tuzilmalarini favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga jalb qilish:

xizmat ko‘rsatilayotgan ob’ektlar va hududlarda favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda ularni bartaraf etishga doir harakatlar rejasiga muvofiq;

favqulodda vaziyatlar ro‘y bergen va ularning ko‘lami kengaya boshlagan taqdirda belgilangan tartibda;

mazkur qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalari faoliyatiga rahbarlik qilayotgan yoki buning uchun qonun hujjatlarida belgilangan vakolatlarga ega bo‘lgan davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, tashkilotlar, shu jumladan jamoat birlashmali mandabtor shaxslarining qaroriga binoan amalga oshiriladi.

Yirik favqulodda vaziyatlar ro‘y berganda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining muhandislik-sapyorlik bo‘linmalari, harbiy-transport aviatsiyasi va harbiy-tibbiy xizmat muassasalari jalb etilishi mumkin.

Qarorda shuningdek, favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish ishlariga rahbarlik qilish, favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish shtabining funksiyalari, favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga jalb qilingan qutqaruv xizmatlarining o‘zaro hamkorligini muvofiqlashtirish, jalb qilingan kuch va vositalarni moddiy va moliyaviy ta’minalash, qutqaruv ishlarini to‘xtatish masalalari yoritilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 8 iyuldagagi “**Qarovsiz qolgan hayvonlarni tutish va saqlash bilan bog‘liq xizmatlar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida**”gi 202-sonli qarori aholi punktlarida itlar va mushuklarni saqlash masalalarini tartibga solish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish, qarovsiz qolgan hayvonlarni tutish xizmatlari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan.

Ichki ishlar, Qishloq va suv xo‘jaligi, Sog‘liqni saqlash vazirliklari, Davlat tabiatni muhofaza qilish qo‘mitasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari oldiga vazifalar qo‘yilgan. Shahar va tuman obodonlashtirish boshqarmalari huzurida qarovsiz qolgan hayvonlarni tutish bo‘limlari tashkil etiladigan shaharlar va tumanlar ro‘yxati (1-ilova), aholi punktlarida itlar va mushuklarni saqlash qoidalari (4-ilova) keltirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 19 iyuldagagi “**Aholini zilzilalar oqibatida yuzaga kelgan favqulodda vaziyatlarda (tabiiy va texnogen tusdagи) harakat qilishga tayyorlash kompleks dasturini tasdiqlash to‘g‘risida**”gi 208-sonli qarori bilan tasdiqlangan Dasturning asosiy vazifalari:

aholining barcha qatlamlarini zilzilalar oqibatida yuzaga kelgan favqulodda vaziyatlarda (tabiiy va texnogen tusdagi) harakat qilishga tayyorlash tizimi samaradorligini oshirish;

aholini o‘qitish bilan qamrab olishni kengaytirish;

ko‘ngilli qutqaruv drujinalarini tuzish va ular faoliyatini tashkil etish;

zilzila oqibatlarining seysmik xavfi darajasini kamaytirish;

aholiga yuzaga kelayotgan seysmik vaziyatni baholash ko‘nikmalarini singdirish va zilzila paytida mutanosib tarzda harakat qilish uchun shart-sharoitlarni ta'minlash;

ta’lim muassasalarining o‘quvchilari va talabalarini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlashning kompleks tizimini ishlab chiqish.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 24 avgustdagи “**O‘zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida**”gi 242-sonli qarori Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi FVDT boshqaruv organlari, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyat organlarini, favqulodda vaziyatlarda aholini va hududlarni himoya qilish masalalarini hal etish vakolatiga kiramidan boshqa tashkilotlarning kuch va vositalarini birlashtiradi hamda favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish sohasidagi tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish, ular yuzaga kelganda aholi xavfsizligini, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishni hamda tinchlik va harbiy davlat iqtisodiyotiga zararni kamaytirishni ta'minlashga mo‘ljallangan.

Qarorda FVDTning vazifalari, tarkibiy tuzilmasi, FVDT rahbar va kundalik boshqaruv organlari, kuch va vositalari, moliyaviy va moddiy resurslar zaxiralari, xabar berish, aloqa, boshqaruv tizimlari, faoliyat rejimlari keng, aniq va ravshan yoritib berilgan. FVDT boshqaruv organlarining respublika, mahalliy va ob'ektlar darajasidagi vazifalari belgilangan. Qarorga FVDT funksional quyi tizimini tashkil etuvchi vazirlik va idoralar ro‘yxati, mahalliy davlat hokimiyati organlarining aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo‘yicha funksiyalari ilova qilingan bo‘lib, ulardan har birining favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi vazifalari keltirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh Vaziri-Fuqaro muhofazasi boshlig‘ining 2008 yil 26.dekabrdagi «**Vazirlik va idoralar o‘rtasida favqulodda vaziyatlar masalalari bo‘yicha kundalik o‘zaro hamkorlik va axborot berish yo‘riqnomasini tasdiqlash va amalga kiritish to‘g‘risida**»gi 3- sonli buyrug‘ida favqulodda vaziyatlarni ro‘yxatga olish tartibi, axborotni ijro etish va berish tartibi, favqulodda vaziyatlar to‘g‘risidagi axborotning mezonlari keltirilgan. Ilovada

favqulodda vaziyat tahlidi, favqulodda vaziyatning parametrlari, aholini va hududlarni muhofaza qilish tadbirlari, avariya-qutqaruv va boshqa kechiktirib bo‘lmaydigan ishlar, favqulodda vaziyatni bartaraf etish uchun jalb qilingan kuch va vositalar to‘g‘risidagi axborotni berish shakllari ko‘rsatilgan.

Nazorat savollari:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 iyundagi “Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish tizimi samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5066-sonli farmoni qaysi asosiy hujjat vazifalariga muvofiq ishlab chiqilgan.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 iyundagi “Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish tizimi samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5066-sonli farmoni bilan qanday idora va tashkilotlar FVV tizimida o‘tkazilgan?
2. Fuqaro muhofazasi institutida 2017-2018 o‘quv yilidan boshlab 5A640103 –“Favqulodda vaziyatlarda aholi xavfsizligi”mutaxassisligi bo‘yicha magistratura yo‘nalishini ochish qaysi hujjat asosida amalga oshirildi?
3. FVV va FVDTiga ishga qabul qilishga mo‘ljallangan o‘rta-maxsus ma'lumotga ega bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlash vazifasi yuklatiladigan kasb-hunar kollejlarida qutqaruvchilar qanday mutaxassisliklar asosida tayyorlanadi?
4. FVV va FVDTiga ishga qabul qilishga mo‘ljallangan “Hayot faoliyati xavfsizligi” mutaxassisligi bo‘yicha oliy ma'lumotli bakalavrлarni tayyorlash vazifasi yuklatiladigan oliy ta'lim muassasalarini sanab bering?
5. O‘R FVV qaysi hujjat asosida tashkil topgan?
6. FVV qanday maqsadda tashkil etilgan?
7. Qanday vaziyat favqulodda vaziyat deyiladi?
8. Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish deganda nimani tushunasiz?
9. Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish deganda nimani tushunasiz?
- 10.Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishning asosiy prinsiplari nechta yo‘nalishdan iborat va qanday nomlanadi?
11. Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun qo‘sishlar va harbiy tuzilmalarni kimning Qaroriga asosan jalb etiladi?
- 12.Fuqaro muhofazasi deganda nimani tushunasiz?
- 13.O‘zbekiston Respublikasida kim fuqaro muhofazasining boshlig‘i hisoblanadi?
14. Fuqaro muhofazasi tuzilmalari nima uchun tashkil etiladi va qanday ishlarni amalga oshiradi?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.– T.: “O‘zbekiston”, 2017 y.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
3. 1996 yil 4-mart kunidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligini tashkil etish to‘g‘risidagi”gi PF-1378-sonli Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 27 oktyabrdagi “Tabiiy, texnogen va ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi to‘g‘risida”gi 455-sonli Qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 7 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi aholisini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga tayyorlash tartibi to‘g‘risida”gi 427-sonli Qarori.
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 24 avgust kunidagi “O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 242-sonli Qarori.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 iyundagi PF-5066-sonli“Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish tizimi samaradorligini tubdan oshirish chora - tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 iyundagi PQ-3029-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha tashkiliy tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 iyundagi “Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida mutaxassislar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3030-sonli Qarori.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 10 apreldagi PF-5706-sonli “O‘zbekiston Respublikasida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish hamda yong‘in xavfsizligini ta‘minlashning sifatli yangicha tizimini tadbiq etish to‘g‘risida”gi Farmoni.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 10 apreldagi PQ-4276 – sonli “Favqulodda vaziyatlar tuzilmalarining faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha tashkiliy tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori.

2-mavzu: Aholi va xududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tadbirlarini rejalashtirish

Reja:

1. Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishda ishlab chiqiladigan rejalar, ularni ishlab chiqish uchun dastlabki ma'lumotlar.
2. Favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish harakatlar rejasining tuzilishi.
3. Fuqaro muhofazasi rejasining tuzilishi.

2.1.Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishda ishlab chiqiladigan rejalar, ularni ishlab chiqish uchun dastlabki ma'lumotlar.

Fuqaro muhofazasi rejasi umumdavlat miqyosida ishlab chiqiladi. Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tadbirlarini barvaqt amalga oshirish favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ular sodir bo'lgandagi zarar va talafotlarni kamaytirish maqsadida respublika, idoralar, hokimiyatlar va ob'ektlarning xatti-harakat rejalarini, shuningdek FVDT hamma darajalaridagi hamkorlik rejalarini ishlab chiqiladi.

Hamkorlik rejasi harbiy qo'mondonlik organlari bilan ishlab chiqiladi.

Rejalashtirish tinchlik va harbiy harkatlar davrlariga alohida-alohida ishlab chiqiladi. Favqulodda vaziyatlar chog'ida aholini va hududlarni muhofaza qilish bo'yicha harakatlar rejasini mahalliy davlat hokimiyati organlari ishlab chiqadilar, xodimlar va ishlab chiqarish va ijtimoiy ob'ektlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo'yicha zarur choralarini rejalashtirish korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi majburiyatlarini hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularni oldini olish va harakat qilish davlat tizimi faoliyatini rejalashtirishga Favqulodda vaziyatlar vazirligi tashkiliy-uslubiy rahbarlik qiladi.

FM boshlig'i o'z vakolatlari doirasida quyidagi huquqlarga ega:

- FMning tegishli rejalarini amalga joriy etish;
- aholini, moddiy va ma'naviy boyliklarni xavfsiz joylarga evakuatsiya qilish to'g'risida qaror qabul qilish;
- Fuqaro muhofazasi bo'yicha direktivalar, buyruqlar, qarorlar va farmoyishlar chiqarish.

Aholini va hududlarni zamonaviy qirg'in vositalari qo'llanilishi oqibatlaridan muhofaza qilish va Fuqaro muhofazasi sohasidagi tadbirlarni amalga oshirishga oid harakatlarni muvofiqlashtirish tegishli hududlar, tarmoqlar va tashkilotlarning Fuqaro muhofazasi boshliqlari zimmasiga yuklanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

- Fuqaro muhofazasi sohasidagi yagona siyosatni o‘tkazilishini ta'minlaydi;
- O‘zbekiston Respublikasi Fuqaro muhofazasi rejasini tasdiqlaydi;

Fuqaro muhofazasi tadbirlari hududlarning iqtisodiy, tabiiy va boshqa tavsiflarini, xususiyatlarini hamda favqulodda vaziyatlarni sodir bo‘lish xavfi qanchalik realligini hisobga olib, oldindan rejalshtiriladi va amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri - Fuqaro muhofazasi boshlig‘ining har yili “Aholi va hududlarni Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo‘yicha joriy yilda bajarilgan tadbirlar yakuni va kelgusi yildagi vazifalar to‘g‘risida” buyrug‘iga ko‘ra

- O‘zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish Davlat tizimining boshqaruvi organlari, kuchlari va aholini tayyorlash bo‘yichayil uchun tashkiliy ko‘rsatma”, “O‘zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish Davlat tizimining aholi va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatlari favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo‘yicha yil uchun asosiy tadbirlar rejasini” tasdiqlanadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, Toshkent shahar va viloyat hokimlari, vazirliklar, qo‘mitalar, agentliklar, uyushmalar, kompaniyalar va idoralari rahbarlari-Fuqaro muhofazasi boshliqlari:

- ikki hafta muddatda “Favqulodda vaziyatlarda ularni oldini olish va harakat qilish Davlat quiy tizimining aholi va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatlari favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo‘yicha yil uchun asosiy tadbirlar rejasini” ishlab chiqilsin va belgilangan vazifalarning belgilangan muddatda va sifatli bajarilishini ta'minasinlar.

- aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo‘yicha amalga oshirilgan tadbirlar, erishilgan yutuqlar va xal etilmagan masalalar to‘g‘risidagi hisobotlarning mazkur buyruqning tashkiliy ko‘rsatmasida belgilangan muddatlarda Favqulodda vaziyatlari vazirligiga muntazam ravishda taqdim etilishini ta'minasinlar.

O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlari vazirligi Profilaktika boshqarmasi tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyaga asosan korxonalarda quyidagi rejalar tuziladi:

- Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo‘yicha bajariladigan asosiy tadbirlar rejasini;
- favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish harakatlari rejasini;
- alohida davr uchun Fuqaro muhofazasi rejasini;
- ob'ekt barqarorligini oshirish rejasini (o‘ta muhim va toifalangan ob'ektlar uchun).

- evakuatsiya rejasi.
- o‘zaro hamkorlikda harakat qilish rejasi.

Respublikamiz bo‘yicha Favqulodda vaziyatlar vazirligi tomonidan “O‘zbekiston Respublikasi hududida tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish harakat rejasi” ishlab chiqilgan va O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan tasdiqlangan. Rejada respublikamizda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan barcha tabiiy va texnogen favqulodda vaziyatlar sodir bo‘lishi ehtimoli mavjud bo‘lgan barcha potensial xavfli ob'ektlar xisobga olingan. favqulodda vaziyatlar sodir bo‘lgan taqdirda jalb etiladigan barcha kuch va vositalar ro‘yxati berilgan.

Yuqori darajada muhofaza qilish maqsadida hamma Fuqaro muhofazasi rejalariga quyidagi talablar qo‘yiladi:

- reja to‘liq ishlab chiqilishi;
- mazmunning qisqa bo‘lishi;
- vaqt ni qat’iy hisobga olinishi;
- reallik va aniqlik;
- iqtisodiy maqbullik.

Rejaning to‘liq ishlab chiqilishi o‘zini muvaffaqiyatli bajarilishini va bosh vazifa-aholi va moddiy boyliklar muhofaza qilinishi hal etilishini ta‘minlaydigan tadbirlar kompleksi ishlab chiqilishidan iborat. Shuning uchun rejada aniq tadbirlar, ularning mazmuni, shakli, muddatlari va bajaruvchilari ko‘rsatiladi.

Reja bo‘limlarining bayoni qisqa bo‘lishi ulardan foydalanish oson bo‘lsin uchun kerak. Shuning uchun rejaning mazmunli bo‘lishiga undagi hamma tadbirlar to‘liq ishlab chiqilgan grafik yo‘l bilan erishiladi. Buning uchun sxema-xaritada ob'ektlar, ish turlari va hajmi shartli belgilar bilan tasvirlanadi. Tushuntirishlar jadvallar, sxemalar, grafiklar, suratlari sharhlar, tushuntirish xatlari tarzida beriladi (bu ikki talabni rejaning ilova tarzidagi jadvalda ko‘rsatilsa bo‘ladi).

Vaqtni qat’iy hisobga olinishi rejalahtirilgan har bir tadbir sifatli va to‘liq hajmda bajarilishi uchun kerak.

Rejaning aniq(konkret) va real bo‘lishi u bajarilishining zarur tartibi hisoblanadi. Buning uchun mahalliy sharoit ma'lumotlari sinchiklab o‘rganiladi: ehtimol bo‘lgan vayronlik, uyulma, talafotlar tusi, moddiy zarar oldindan bashoratlanadi, oqibatlari yo‘qotilishi uchun kerakli Fuqaro muhofazasi kuch va vositalariga bo‘lgan talab hisoblab chiqiladi.

Rahbarlar tarkibining professional tayyorligi sharoitni oldindan taxminlay olishi, tez qarorga kela bilishi bilan belgilanadi.

Ob'ektiv reallikka baho berish va tadbirning bajarilish vaqtini belgilash Fuqaro muhofazasidan taktik o'quv-mashqlarda, amaliy mashg'ulotlarda, trenirovkalarda bajariladi.

Iqtisodiy maqbullik-tinchlik davrida ham, alohida davrlarda ham muhofaza inshootlaridan foydalanishni hisobga olib borish imkoniyatidir. Ular tinchlik davrida madaniy-maishiy xonalar va korxonalar (afe, bar, kirkona, ombor, garaj, yer osti bo'shliqlari) bo'lsa, alohida davrda muhofaza inshootlari bo'ladi.

Fuqaro muhofazasi rejasiga yagona talab qo'yilishi bir tomondan kelishib olish uchun kerak bo'lsa, ikkinchi tomondan zarur bo'lib qolganda rejadan foydalanish qulay bo'lishi uchun kerak.

Reja tuzishdagi ish hajmining hammasi shartli ravishda to'rt bosqichga bo'linadi:

- *birinchi bosqichda* ijrochilar tarkibi, ularning tayyorligi aniqlanadi, bor ma'lumotlar va spravka ma'lumotlari, hujjatlar o'rganiladi, materiallar umumlashtiriladi, taqvim (kalendor) reja ishlab chiqiladi;

- *ikkinchi bosqichda* reja amalda ishlab chiqiladi va reja hujjatlari tuziladi;

- *uchinchi bosqichda* hamma tadbirlar bir-biriga moslashtiriladi va yuqori tashkilot bilan kelishib olinadi, zaruriyat bo'lsa reja tuzatib to'g'rilanadi va tasdiqlanadi;

- *to'rtinchi bosqichda* hamma rejallashtirilgan tadbirlar, reja tasdiqlangandan keyin, tegishli ijrochilarga yetkaziladi.

Fuqaro muhofazasi rejasini ishlab chiqishni bevosita tashkil etish tegishli Fuqaro muhofazasi boshlig'iga yuklatiladi, rejalarini ishlab chiqishga Fuqaro muhofazasi shtatlari xodimlari, boshqarma va bo'lim boshliqlari, evakuatsiya komissiyasi, Fuqaro muhofazasi xizmatlari va bo'limlari, iqtisodiyot ob'ektlarining bosh mutaxassislari jaib qilinadi.

Rejani ishlab chiqishga jaib etiladigan mansabdor shaxslar Fuqaro muhofazasi boshlig'ining buyrug'ida belgilanadi.

Guruhdagi mutaxasislarning toifalariga qarab, rejani qaerga moslashtirib tuzilayotganligini inobatga olib, ma'lumotlarni keltiriladi.

Viloyat, tuman va shaharlar miqyosida rejalar va uning ilovalarini ishlab chiqish uchun quyidagi dastlabki ma'lumotlar (materiallar) to'plab olinadi:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, Vazirlar Mahkamasining Fuqaro muhofazasini tashkil etish va faoliyatiga oid farmonlari va qarorlari, ko'rsatmalari.

2. O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining nizomlari, ko'rsatmalari va tavsiyalari, Fuqaro muhofazasi rahbar va me'yoriy hujjatlarining talablari.

3. Yuqori organlarning ko'rsatmalari va tavsiyalari.

4. Fuqaro muhofazasi tuzilmalarining soni, shaxsiy tarkibi hamda aholini va moddiy boyliklarni muhofaza qilish imkoniyatlari haqidagi ma'lumot.

5. Panajoylar soni, ularning sig'imi, boshqa muhofaza inshootlaridan foydalanish imkoniyati.

6. Ob'ektning tavsifi, uning mudofaa va iqtisodiy imkoniyati.

7. Toifalangan shaharga favqulodda vaziyatlarda yordam berish imkoniyati.

8. Toifalangan shahar iqtisodiyot ob'ektlarining ro'yxatlari:

a) favqulodda vaziyatlarda o'z ishini davom ettiradigan ob'ektlar;

b) evakuatsiya qilinadigan ob'ektlar.

9. Potensial xavfli, shuningdek tasarrufida kimyoviy, shuningdek portlash-yong'in xavfi va xavfli qismlari bor ob'ektlar (neft omborlari, neft-gaz quvurlari, kuchli ta'sirchan zaharli moddalar (KTEZM) va zaharlovchi moddalar tashiladigan temir yo'l magistrallari, aeroportlar, ko'priklar va boshqa ob'ektlar) ro'yxati.

10. Xavfli zonalardagi aholi punktlari haqidagi ma'lumotlar.

11. Toifalanmagan shaharning va qishloq tumanining Fuqaro muhofazasi tadbirlarini tayyorlash va o'tqazish hamda evakuatsiya qilingan aholini qabul qiluvchi va joylashtiruvchi Fuqaro muhofazasi kuchlari guruhini tuzish imkoniyatlari.

12. Fuqaro muhofazasi vazifalari bajarilishiga ta'sir etadigan mahalliy xususiyatlar ko'rsatilgan fizika-jo'g'rofiy ma'lumotlar.

13. Favqulodda vaziyatda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan sharoitga berilgan bahodan chiqarilgan xulosalar.

Ob'ektlarda fuqaro muhofazasi rejalariniishlab chiqish uchun quyidagi ma'lumotlar yig'iladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, Vazirlar Mahkamasining Fuqaro muhofazasini tashkil etish va faoliyatiga oid farmonlari va qarorlari, ko'rsatmalari.

2. O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining nizomlari, ko'rsatmalari va tavsiyalari, Fuqaro muhofazasi rahbar va me'yoriy hujjatlarining talablari.

Misol tariqasida Favqulodda vaziyatlar vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan "Kimyoviy, radiatsion va biologik (bakteriologik) vaziyatlarni baholash yuzasidan uslubiy qo'llanma"ni keltirish mumkin. Ushbu qo'llanmadan foydalanib kimyoviy avariylar sodir bo'lganda zaharlanish hududlarining kengligi va uzunligini hisoblash formulalari, jadvallari berilgan. Misollar orqali tushuntirib berilgan. Bulardan tashqari reja tuzishda ta'lab etiladigan jabrlanishi mumkin bo'lgan kishilarni hisoblash bo'yicha, tibbiy yo'qotishlarni aniqlash bo'yicha formulalar keltirilgan.

3. Vazirlik, boshqarma, xokimiyat organlarining ko'rsatmalari va tavsiyalari.

4. Fuqaro muhofazasi tuzilmalari, shaxsiy tarkiblarida kishilar to‘g‘risida ma'lumot. (telefon nomerlari, adreslarilari, ma'lumotlari, malakasi bo‘yicha ma'lumot).

5. Panajoylarning tayyorlik holati, sig‘imi, boshqa muhofaza inshootlari to‘g‘risida ma'lumot.

6. Ob'ektning ichki hususiyatlari (imoratlarning konstruksiyalari), asosiy rejasi, genplan, situatsion reja) joylanish rejasi, muhandislik tizimlarining (elektr, suv, gaz, kanalizatsiya, aloqa tizimlarining) sxemasi.

Yoqilg‘i-moylovchi moddalar zahirasi, yong‘indan xavfli moddalar zaxirasi, KTEZM zahirasi, elektr podstansiyalari, bug‘qozon o‘rnatilgan bino, suv gidrantlarining joylashish o‘rni to‘g‘risida ma'lumotlar yig‘iladi.

7. Ob'ekt atrofida joylashgan potensial xavfli ob'ektlar, temir yo‘l, yong‘indan xavfli ob'ektlar ularning ta'siri to‘g‘risida.

8. Evakuatsiya qilinadigan korxona ishchilarini qabul qilish joyi, uning holati to‘g‘risida ma'lumot.

9. Fuqaro muhofazasi vazifalari bajarilishiga ta'sir etadigan mahalliy xususiyatlar ko‘rsatilgan fizika-jug‘rofiy ma'lumotlar.

10. Favqulodda vaziyatda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan sharoitga berilgan bahodan chiqarilgan xulosalar.

Fuqaro muhofazasi rejalarini ishlab chiqishda Fuqaro muhofazasi kuchlari guruhiga katta e'tibor beriladi. Guruh deganda Fuqaro muhofazasi kuchlarining belgilangan joydagi avariya-qutqarish ishlarini o‘tkazishga mo‘ljallangan qismi tushuniladi. U ikki eshalondan biri va zahiradan iborat bo‘lishi mumkin. Ob'ektidagi kuchlar guruhi, odatda, bir nechta smenalardan iborat bo‘ladi. Shikast o‘chog‘ining yoki ofat zonasining fuqaro muhofazasi kuchlari kiritiladigan har bir yo‘nalishiga razvedka kuchlari ajratiladi va harakatni ta'minlash otryadi (HTO) tuziladi. Razvedkani rejallashtirish sharoit haqidagi ma'lumotlarni tezda olib, shartli belgi tarzida xaritaga tushirish uchun amalga oshiriladi.

Avariya-qutqarish ishlarini rejallashtirish va o‘tkazishning hududdan va iqtisodiyot ob'ektidan qat‘i nazar, quyidagi tartibi belgilangan:

1. Shikast o‘choqlarini va ofat joylarini razvedka qilish, qidiruv-qutqarish ishlari kompleksini o‘tkazish.

2. Aholini, qishloq xo‘jaligi mollarini, o‘simgiliklarni, sanoat va qishloq xo‘jaligida ishlab chiqariladigan mahsulotlarni, moddiy boyliklarni muhofaza qilish tadbirdari.

3. Shikastlangan aholi hayot faoliyatini tashkil qilish, halok bo‘lganlarni hisobga olish va ko‘mish, yaradorlarni kasalxonalarga yotqizish.

4. Karantin-observatsion, sanitар-gigienik, epidemiyaga qarshi tadbirlar.

5. Mahalliy organlar va harbiy qo‘mondonlik organlari bilan hamkorlik.

Evakuatsiya tadbirlarini rejalashtirishda transportda va piyoda olib chiqiladigan aholi sonini aniq bilishi, qancha transport vositalari kerakligini, odamlarni transportda (piyoda) olib chiqish tartibini, qimmatbaho uskunalarni, oziq-ovqatni olib chiqish tartibi va muddatlarini hisoblab qo‘yishi kerak.

Ob'ekt ishlashi barqarorligini oshirish barqarorlik yuzasidan ilmiy tadqiqotlar asosida va ob'ekt joylashag hududning iqlimini hisobga olib rejalashtiriladi.

Muhandislik, tibbiy va boshqa tur ta'minotni rejalashtirishda ishlar hajmi, tadbirlari, bajarilish tartibi har qaysi tur ta'minotning asosiy vazifalari qandayligiga qarab belgilanadi.

Fuqaro muhofazasi boshqarmalari, bo‘limlari va xizmatlari reja bajarilishini ta'minlashlari uchun hujjatlarni oldindan ishlab chiqiladi. Ta'minotning hamma turlari uchun talab-bildiruvlar, naryadlar, yukxatlar, buyum va texnikani olish uchun ishonchnomalar, shahar tashqarisidagi zonaga evakuatsiya davrida turadigan xonanini egallash uchun orderlar oldindan tayyorlab qo‘yiladi. Bu hujjatlar, dastlabki va spravka materiallari Fuqaro muhofazasi rejalariga ilova qilinmaydi, balki bevosita ijrochilarining ish papkalarida saqlanadi.

Vazirliklar va idoralar favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo‘yicha harakatlar rejasini, nizomlar, qoidalar va yo‘riqnomalarni kelishib olish uchun O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligiga taqdim etishlari kerak.

Rejalarga har yili 1 yanvardagi holatga muvofiq yilning birinchi choragi davomida tuzatishlar kiritiladi. Favqulodda vaziyatlar yuzaga kelgan taqdirda rejaga darhol aniqliklar va tuzatishlar kiritilishi kerak. Reja ikki nusxada tuziladi. Nus’halardan biri ob’ektning boshqarish punktida, ikkinchisi yuqori tashkilotda saqlanadi.

Reja hujjatlari mazmunli, aniq hamda shtabga munosib yuqori saviyali qilib ishlab chiqilishi kerak. Rejalashtirishda taqlidchilikka, yuzaki va asossiz yondashishlarga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi.

2.2. Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish harakatlar rejasining tuzilishi.

Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish tadbirlarining hajmi, bajarilish muddatlari, tartibi nazarda tutiladi.

Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish favqulodda vaziyatlar ro‘y berganda odamlar hayoti va sog‘lig‘ini saqlash, atrof tabiiy muhitga yetkaziladigan zarar va moddiy talofatlar miqdorini kamaytirishga, shuningdek favqulodda vaziyatlar ro‘y beragan zonalarni halqaga olib, xavfli omillar ta’sirini tugatishga qaratilgan avariya-qutqaruv ishlari va kechiktirib bo‘lmaydigan boshqa ishlar kompleksidir. Bu ishlarni

amalga oshirish uchun FVDTning favqulodda vaziyatlarni tugatuvchi kuch va vositalardan foydaniladi. Bu kuch va vositalar favqulodda vaziyatlar vazirligiga bevosita va tezkor bo‘ysunadigan Fuqaro muhofazasi qo‘shinlaridan, respublika ixtisoslashgan tuzilmalaridan, vazirlik va idoralarning harbiyashgan va professional ixtisoslashgan avariya-qayta tiklash tuzilmalaridan, mahalliy hokimlik organlarining (Qoraqolpog‘iston Respublikasi Vazirlar kengashi, viloyat, shahar, tuman xokimliklarining) tuzilmalaridan, ob'ektlarning ixtisoslashgan tuzilmalaridan, hududlar va ob'ektlarning umumiy va maxsus tuzilmalaridan iborat bo‘ladi.

FVDTning ish rejimidagi asosiy tadbirlar rejaning bo‘limlarida va ilovasida keltiriladi.

Hududiy darajada ishlab chiqiladigan favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish harakatlari rejasi ikki bo‘lim va to‘rt ilovadan (matn qismi va ilovalardan) iborat bo‘ladi.

Birinchi bo‘limda yirik ishlab chiqarish avariyalari, halokatlari va tabiiy ofatlar ro‘y berganda viloyat hududidagi bo‘lishi mumkin bo‘lgan sharoitga qisqacha baho berilib quyidagilar yoritiladi:

1. Radiatsion kimyoviy va yong‘indan xavfli shaharlarning va aholi punktlarining, KTZM, portlash xavfi va biologik moddalar bor ob'ektlarning, shunday moddalar ortilgan transport vositalari to‘planib qolishi ehtimol bo‘lgan temir yo‘l uzellarining, bu moddalar tashiladigan magistrallarning, neft-gaz konlari, neft quvurlari, gidrouzellalar va h.k. ob'ektlarning ro‘yxati.

Viloyat hududidagi, shuningdek qo‘shni viloyatlardagi va muayyan mamlakatlar hududlaridagi epidemiologik, epizootik, epifitotik va seysmik jihatdan noqulay joylar, tabiiy ofatlar (ko‘chkilar, o‘pirilishlar, qor ko‘chkilari, suv bosishlar).

Shu joylarda yashayotgan aholi soni, taxminan ko‘riladigan talafot.

Sanoat va qishloqho‘jalik ishlab chiqarishiga yetishi mumkin bo‘lgan zarar.

2. Yirik ishlab chiqarish avariyalari, halokatlari va tabiiy ofatlar oldini olish yoki ular oqibatlarini kamaytirishi yuzasidan, aholi, qishloq xo‘jaligi hayvonlari va o‘simpliklarini, moddiy va madaniy boyliklarni muhofaza qilish yuzasidan bo‘lajak tadbirlar va ularning taxminiyl hajmlari, shuningdek yuqoridagi hodisalar ro‘y berganda o‘tkaziladigan qutqarish va boshqa shoshilinch ishlar hamda viloyatning bo‘lajak tadbirlar bajarilishiga ta’sir etishi mumkin bo‘lgan boshqa xususiyatlari.

Bo‘lishi mumkin bo‘lgan sharoitdan kelib chiqib, quyidagi konkret tadbirlar
rejalashtiriladi:

- boshqarishni, xabarlashni va aloqani tashkil etish;
- razvedkani, kuzatishni va nazorat qilishni tashkil etish;
- Fuqaro muhofazasi kuchlari guruhini tashkil etish;
- odamlarni va moddiy boyliklarni muhofaza qilish tadbirlari;

- moddiy va moliyaviy ta'minotning hamma turlarini tashkil etish;
- favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni tugatishni tashkil etish.

Reja ob'ektlar uchun ishlab chiqarilayotgan bo'lsa birinchi bo'limi ikki qismdan iborat bo'ladi.

1. Ob'ektning tavsifi (xarakteristikasi) yoritiladi.

Unga asosan ob'ektning tavsifi:

- joylashgan joyi,
- ishchilarining soni,
- ish smenalarining boshlanishi va tugashi,
- muxandistlik tizimlari va ko'shimcha manbalar
- imoratlarning konstruksiyasi,
- omborlar, ulardagi moddalarning turi va miqdori
- muhofaza inshootlari, shaxsiy muhofaza to'g'risida ma'lumot.
- ta'sir etishi mumkin bo'lgan atrofdagi potensial xavfli ob'ektlar, temir yo'llar to'g'risida ma'lumot.

2. Ehtimoli mavjud favqulodda vaziyatlarga xarakteristika beriladi.

Favqulodda vaziyatning ko'lami, keltiradigan zararlari, okibatlari, jabrlanishi mumkin bo'lgan kishilar soni, yong'inlar sodir bo'lishi ehtimoli mavjud joylar ko'rsatiladi va har bir favqulodda vaziyat turi uchun alohida yoziladi.

Masalan. Zilzila maksimal 9 ball bo'lish ehtimoli mavjud. 1-sexning imorati kuchli buzilishi mumkin. Yoqilg'i-moylash mahsulotlari saqlanadigan omborda yong'in bo'lishi, suv va kanalizatsiya tizimida shikastlanishlar ehtimoli mavjud.

----- ta kishi jabrlanishi, -----mln. sumlik moddiy zarar ko'rish ehtimoli mavjud.

Rejaning ikkinchi bo'limida yirik ishlab chiqarish avariyalari, halokatlari va tabiiy ofatlar sodir bo'lish xavfi tug'ilgandagi va sodir bo'lgandagi quyidagi tadbirlar rejalashtiriladi: (bo'lim ikki qismdan iborat bo'ladi).

I-qism. Yirik ishlab chiqarish avariyalari, xalokatlari tabiiy ofatlar sodir bo'lish xavfi tug'ilganda (yuqori tayyorgarlik rejimida):

1. Favqulodda vaziyat sodir bo'lish xavfi tug'ilgani haqida boshqaruv organlarini, ishchilar va xizmatchilarni va qolgan aholini xabardor qilish tartibi;
2. Favqulodda vaziyatning oldini olish yoki ular ta'sirini kamaytirish tadbirlarining hajmi, amalga oshirilish muddatlari va tartibi, jalg etiladigan kuchlar va vositalar.
3. Fuqaro muhofazasi (FVDT) kuchlarini, mavjud muhofaza inshootlarini shay holga keltirish.
4. Shaxsiy muhofaza vositalarini ishchi va xizmatchilarga berishga tayyorlash va berish.

5. Odamlarni evakuatsiya qilish va ko‘chirish uchun avtotransportni va shahardan tashqari zonani tayyor holga keltirish.

6. Aholini tibbiy va epidemiyaga qarshi muhofaza qilish tadbirlarini o‘tkazish.

7. Yong‘indan saqlash profilaktik tadbirlar o‘tkazish.

8. Ishlab chiqarishni avariyasiz to‘xtatishga tayyorlash.

FVDT ishida amalga oshiriladigan asosiy tadbirlar quyidagilar hisoblanadi:

- tegishli boshqaruv organlari FVDT kichik tizimlariga va bo‘g‘inlariga bevosita rahbarlik qilishni o‘z zimmasiga olishi;
- zarurat bo‘lsa sharoit yomonlashgani sabablarini ehtimoli bor falokat joyining bevosita o‘zida aniqlash uchun, sharoitni normallashtirish takliflarini ishlab chiqish uchun operativ guruhlar tuzish;
- doimiy dislokatsiya punktlarida rahbarlar tarkibining kecha kunduz navbatchilik qilishini tashkil etish;
- operativ navbatchilik xizmatini kuchaytirish;
- atrof tabiiy muhit ahvolini, potensial xavfli ob'ektlardagi va unga tutash hududlardagi sharotini kuzatish va nazorat qilishni kuchaytirish;
- boshqaruvni tashkil etish;
- rahbarlar tarkibiga Fuqaro muhofazasi tuzilmalariga xabar berish, yig‘ish, taqvim rejasiga, vazifalarga aniqliq kiritish;
- razvedkani, nazoratni, kuzatishni tashkil etish;
- vaziyat rivojini oldindan taxminlash rejalashtiriladi.

Demak, har bir favqulodda vaziyat uchun alohida –alohida rejaning bo‘limlari, ya’ni suv toshqini xavfi sezilganda, kimyoviy zaxarlanish xavfi sezilganda kabi avvaldan aniqlangan favqulodda vaziyatlar uchun bo‘limlar ishlab chiqiladi.

II-qism. Yirik ishlab chiqarish avariyalari, halokatlari va tabiiy ofatlar sodir bo‘lganda (favqulodda rejimida):

Bu bo‘limda ham xar bir favqulodda vaziyat uchun alohida-alohida ya’ni zilzila sodir bo‘lganda, yong‘in sodir bo‘lganda kabi bo‘limlar ishlab chiqiladi. Bo‘limni ichida quyidagi tadbirlarini rejalashtirish ta’lab etiladi:

- favqulodda vaziyat sodir bo‘lganihaqida boshqaruv organlariga, ishchi va xizmatchilarga, qolgan aholiga xabar berish tartibi. Favqulodda vaziyat o‘chog‘ida razvedkani tashkil etish va sharoitni oldindan bashoratlash;
- qutqarish va boshqa shoshilinch ishlarga jalg qilingan kuch va vositalarni shaylik holatiga keltirish va yo‘lga qo‘yish. Ularning tarkibi, shay bo‘lish muddati, vazifalari. Ishlarni tashkil etish;

- aholini muhofaza qilish: muhofaza inshootlariga yashirish, shaxsiy muhofaza vositalari (ShMV), dozimetrik va kemyoviy priborlar bilan ta'minlash, davolash va epidemiyaga qarshi tadbirlar. Aholini evakuatsiya qilish va ko'chirish, ularning hajmi, muddatlari, tartibi va buning uchun jalg qilinadigan kuchlar va vositalar;
- qutqarish va boshqa shoshilinch ishlar o'tkazishga jalg etiladigan, shuningdek aholini, qishloq xo'jaligi hayvonlarini, chorvachilik va ekin mahsulotlarini, moddiy va madaniy boyliklarni muhofaza qilish tadbirlari o'tkazilishiga jalg qilinadigan FVDT hududiy kichik tizimi kuch va vositalarining faoliyatini ta'minlash;
- odamlar hayoti va salomatligiga bevosita xavfni yo'qqilish yuzasidan qutqarish va boshqa shoshilinch ishlarni o'tkazish, aholi hayot faoliyatini qayta tiklash;
- harbiy qo'mondanlik organlari, Fuqaro muhofazasi xizmatlari bilan hamkorlik qilish;
- FVDT hududiy kichik tizimi tadbirlarini boshqarish, boshqarish punktlariga joylashish tartibi, FVDT boshqaruv organlari kuchlarini, ishchilar, xizmatchilar va qolgan aholini sharoit haqida, ularning favqulodda vaziyat o'chog'idagi faoliyatlarini va xatti-harakat qoidalari hakida xabarlash va axborot bilan ta'minlash, bo'ysunuvchi, yuqori va hamkorlik qiluvchi boshqaruv organlari bilan aloqa tashkil etish;
- favqulodda vaziyat joyida atrof tabiiy muhit holatini, avariya holatidagi ob'ektlar va ularga tutash hududlardagi sharoitni uzlusiz nazorat qilish rejalashtiriladi.

Rejaga quyidagilar ilova qilinadi:

1. Fuqaro muhofazasi boshlig'ining favqulodda vaziyatni tugatish qarori (viloyat xaritasi va shaharlarning rejasi).
- 2.FVDT hududiy kichik tizimining ishlab chiqarish avariyalari, halokatlari va tabiiy ofatlar xavfi tug'ilgandagi va ular sodir bo'lgandagi asosiy tadbirlarining kalender rejasi.
- 3.FVDT hududiy kichik tizimining ishlab chiqarish avariyalari, halokatlari va tabiiy ofatlar xavfi tug'ilgandagi va ular sodir bo'lgandagi tadbirlarini bajarishga jalg qilinadigan kuch va vositalarining hisobi (har bir tadbir hakidagi umumiyl ma'lumotlar).
- 4.Ishlab chiqarish avariyalari, halokatlari va tabiiy ofatlar xavfi tug'ilganda boshqaruv, xabarlash va aloqani tashkil qilish (sxemasi).

Izohlar:

- Respublika, shahar, tuman, qo'rg'on, jamoa xo'jaligi, qishloq kengashi, mahalla qo'mitasi va iqtisodiyot ob'ekti (IO) rejalarini bir xil strukturada ishlab chiqiladi;

- ikkinchi bo‘lim ishlab chiqarish avariysi, halokati va tabiiy ofatning viloyat uchun ehtimoli bor har qaysi turi bo‘yicha ishlab chiqiladi;
- rejalarни tegishli Fuqaro muhofazasi boshliqlari tasdiqlaydi, itoat tartibiga binoan kelishib olinadi, reja ikki nusxada tuzilib, ikkinchi nusxasi yuqori tashkilotga jo‘natiladi.

2.3. Fuqaro muhofazasi rejasining tuzilishi

O‘zbekiston Respublikasi “Fuqaro muhofazasi to‘g‘risida”gi qonunining 8-moddasiga binoan, O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi o‘z vakolati doirasida davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun bajarilishi majburiy bo‘lgan qarorlar qabul qiladi;

O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi fuqaro muhofazasining rejasi loyihasini ishlab chiqadi;

10-moddasida Mahalliy davlat hokimiyati organlari Fuqaro muhofazasi rejalarini ishlab chiqadilar va ularning tegishli hududda amalga oshirilishiga rahbarlik qiladilar;

- tegishli hududdagi tashkilotlar, fuqarolarning o‘z-o‘zini boshqarish organlari tomonidan FM tadbirlari ni bajarilishini tashkil etadilar va nazorat qilib boradilar;

11-moddasi “Tashkilotlarning Fuqaro muhofazasi sohasidagi vakolatlari” moddasida tashkilotlar o‘z vakolatlari doirasida Fuqaro muhofazasi tadbirlarini rejalashtiradilar va amalga oshiradilar deb belgilangan.

Qonun talablarini inobatga olgan holda, hududlarda va tashkilotlarda Fuqaro muhofazasi rejalarini ishlab chiqiladi. Ushbu reja xarbiy darvda ya’ni alohida davrlarda aholini muhofaza qilishga mo‘ljallangan bo‘lib, quyidagi tuzilishga ega. Reja 3 ta bo‘lim va 8 ta ilovadan iborot.

Asosiy bo‘limlari:

1. Ob‘ektda dushman xujumi ta’sirida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan vaziyatlarni qisqacha baholash.
2. Tinchlik davridan xarbiy davrga reja asosida o‘tishda ob‘ektda Fuqaro muhofazasi tadbirlarining bajarilishi.
3. Dushman to‘satdan hujum qilganda ob‘ektda Fuqaro muhofazasi tadbirlarini amalga oshirilishi.

Ilovalar:

1. Ob‘ekt hududida bo‘lishi mumkin bo‘lgan vaziyat (Ob‘ektning asosiy rejasi , tushuntirish xati bilan)
2. Ob‘ektni tinchlik davridan harbiy davrga o‘tkazishda bajariladigan asosiy tadbirlarning taqvim rejasi.
3. Xodimlarni muhofaza qilish va avariya qutqaruv va boshqa tadbirlarni amalga oshirish rejasi.

4. Ob'ekt xodimlarini ob'ektdagi muhofaza inshotlariga, xavfsiz hududga yashirish hisobi.
5. Muhofaza inshootlarini shay holatga keltirish rejasি.
6. Fuqaro muhofazasi kuch va vositalar xisobi.
7. Shaxsiy muhofaza vositalarini ob'ekt xodimlariga tarqatish tartibi.
8. Boshqaruv aloqa va xabar berish chizmasи.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 iyundagi "Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish tizimi samaradorligini tubdan oshirish chora - tadbirlari to'g'risida"gi PF-5066-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 iyundagi "O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha tashkiliy tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3029-sonli qarori
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 iyundagi "Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida mutaxassislar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3030-sonli Qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 21 avgustdagи "Aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorgarligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 650-sonli qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 10 dekabrdagi "Xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarining sanoat xavfsizligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar haqida"gi 271-sonli qarori.
6. Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishning huquqiy asoslari (me'yoriy-huquqiy hujjatlar to'plami). I tom. – 2007.– 328 b.
7. Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishning huquqiy asoslari (me'yoriy-huquqiy hujjatlar to'plami). II tom. – 2012.–368 b.

3-mavzu: Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida xalqaro tashkilotlar va xorij mamlakatlari bilan hamkorlik

Reja:

1. Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bilan shug‘ullanuvchi xalqaro tashkilotlar
2. O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining xalqaro hamkorligi
3. Xorij mamlakatlarida favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tizimi

Tayanch iboralar: aholi va hududlarni tabiiy favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, aholi va hududlarni texnogen va harbiy xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik, Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi, Fuqaro mudofaasi xalqaro tashkiloti, Koreya xalqaro hamkorlik agentligi, tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish Osiyo markazi, yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti.

3.1. Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bilan shug‘ullanuvchi xalqaro tashkilotlar

“O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida. Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” asarida shunday jumlalar bor “Taraqqiyotning hozirgi bosqichida inson bilan tabiatning o‘zaro ta’siriga oid bir qator muammolarni hal etish faqat bir mamlakat doirasida cheklanib qola olmaydi. Ularni butun sayyoramiz ko‘lamida hal qilish zarur. Ko‘rinib turibdiki, tabiiy muhitni inson yuritadigan ho‘jalik faoliyatining zararli ta’siridan himoya qilish bilan bog‘liq ko‘pgina muammolar keng ko‘lam kasb etadi. Shu sababli ular faqat xalqaro hamkorlik asosida hal qilinishi mumkin”

“O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”ning beshinchi ustuvor yo‘nalishida esa “Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minalash, chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish” - Respublikaning Konstitutsiyaviy tuzumini, suverenitetini, hududiy yaxlitligini himoya qilishga doir chora-tadbirlarni ro‘yobga chiqarish, kiberxavfsizlik sohasida axborot, normativ-huquqiy asoslar tizimini takomillashtirish, aholini favqulodda vaziyatlardan xabardor qilish tizimini tashkil etish va rivojlantirish, Orol fojiasining oqibatlarini yumshatish, shuningdek Millatlararo munosabatlar sohasidagi siyosatning ustuvor yo‘nalishlari konsepsiyasini hamda Diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasini ishlab chiqish nazarda tutilmoqda.

Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, aholi xavfsizligini ta’minalash bo‘yicha shug‘ullanuvchi xalqaro tashkilotlar, jumladan,

- BMT TD (BMTning Taraqqiyot dasturi)
- YXHT (yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti)
- BMT IYoMB (BMTning insonparvarlik yordami malalalari bo‘yicha boshqarmasi)
- ADRC (Tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish Osiyo markazi)
- JICA (Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi)
- KOICA (Koreya xalqaro hamkorlik agentligi)
- FMXT (Fuqaro mudofaasi xalqaro tashkiloti)

Fuqaro mudofaasi xalqaro tashkiloti (FMXT)

1931 yil – Parijda «Jeneva zonalari assotsiatsiyasi» tashkil etildi, 1958 yil - «Jeneva zonalari assotsiatsiyasi» Fuqaro mudofaasi xalqaro tashkilotiga qayta tashkillashtirildi. 1972 yil – FMXT hukumatlararo maqomiga ega bo‘ldi va 1972 yildan boshlab, 1 mart – Butunjahon fuqaro mudofaasi kuni deb belgilandi.

FMXTning asosiy vazifalari – fuqaro mudofaasi milliy tashkilotlari bilan aloqalar o‘rnatish, aholini muhofaza qilish sohasida tadqiqotlar o‘tkazishga ko‘maklashish, favqulodda vaziyatlarni oldini olish, ular sodir bo‘lganda aholini harakat qilishga tayyorlash bo‘yicha tajriba almashishni amalga oshirishdan iborat.

Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT)

Shtab-kvartirasi: Pekin shahrida — ShHT Kotibiyati, Toshkent shahrida — ShHT Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi (MATT). 2001 yil 15 iyun ShHT tashkil topgan kun.

Tashkilotning asosiy vazifalari: ishtirokchi mamlakatlarni birlashtiruvchi keng maydonda xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash, terrorizm, separatizm, ekstremizm, narkotrafikka qarshi kurash, iqtisodiy hamkorlikni, ilmiy va madaniy o‘zaro hamkorlikni rivojlantirishdir.

Atom energiyasi xalqaro agentligi

Atom energiyasi xalqaro agentligi 1957 yil BMT qaroriga asosan tashkil topgan. Shtab-kvartirasi Venada (Xalqaro Vena markazi).

Atom energiyasidan tinchlik maqsadida foydalanish sohasida hamkorlikni rivojlantirish xalqaro agentligi.

3.2. O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining xalqaro hamkorligi

2017 yilning 24 avgust kuni Qirg‘iziston Respublikasining Cho‘lpon ota shahrida ShHTga a’zo davlatlarning favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish masalalari bilan shug‘ullanuvchi idoralari rahbarlarining to‘qqizinchi yig‘ilishi doirasida O‘zbekiston Respublikasi FVV hamda FMXTning ikkitomonlama uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. 2018-2020 yillarga mo‘ljallangan hamkorlik rejasি imzolandi.

2017 yilning 24 avgust kuni Qirg'iziston Respublikasining Cho'lpon ota shahrida ShHTga a'zo davlatlarning favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish masalalari bilan shug'ullanuvchi idoralari rahbarlarining to'qqizinchi yig'ilishi bo'lib o'tdi. 2016-2017 yillar sarhisobi muhokama etildi, 2018-2019 yillarda amalga oshiriladigan tadbirlar rejasি tasdiqlandi.

ShHTga a'zo davlatlarning 9-yig'ilishi doirasida O'zbekiston Respublikasi FVV hamda Rossiya Federatsiyasi FVVning ikkitomonlama uchrashuvi bo'lib o'tdi. 2018-2019 yillarga mo'ljallangan hamkorlik rejasи imzolandi.

2017 yilning 2 oktyabr kuni Ozarbayjonning Baku shahrida MDHga a'zo davlatlarning tabiiy va texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlar bo'yicha davlatlararo kengashining navbatdagi yig'ilishi bo'lib o'tdi. O'zbekiston Respublikasi FVV hamda

Ozarbayjon

Respublikasi

FVVning

2018-2019 yillarga mo'ljallangan o'zaro hamkorlik rejasи imzolandi.

2017 yil 13 dekabr kuni "Ko'ksaroy"da O'zbekiston Respublikasi FVV va

Qirg'iziston Respublikasi FVV tomonidan 2018 yilga hamkorlik rejasи imzolandi.

3.3. Xorij mamlakatlarida favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tizimi

Turli mamlakatlarda o'zlariga yarasha alohida xususiyatlari mavjud. Masalan, AQSh, Buyuk Britaniya va Kanadada aholi fuqaro mudofaasi tuzilmalarida xizmat qilishga ko'ngilli ravishda jalb qilinadi.

Amerika Qo'shma Shtatlarida halokat va tabiiy ofatlarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish va davlat siyosatini amalga oshirish ishlariga davlat miqyosida bevosita mamlakat Prezidentiga bo'ysinuvchi qator idoralar javob beradi.

Halokatlar sodir bo'lganda 1979 yili AQSh Prezidentining buyrug'i bilan tashkil etilgan Favqulodda sharoitlarda harakat qilish federal agentligi (FeMA) alohida rol o'ynaydi. FeMA Mudofaa vazirligi, Safarbarlik tayyorgarligi federal boshqarmasi, Yong'indan muhofaza qilish ma'muriyati, Halokatlarda aholiga yordam ko'rsatish federal boshqarmasi va Federal sug'urta ma'muriyati negizida avvalo yirik raketa-yadro urushi sharoitlarida, favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda mamlakat iqtisodiyotini boshqarishga qaratilgan xatti-harakatlarni bitta qo'l ostida muvofiqlashtirish maqsadida tashkil etilgan.

Bundan tashqari FeMA avariya-qutqaruv ishlariga markaziy rahbarlikni amalga oshiradi, mahalliy hokimiyat organlari va jabrlangan aholiga zarur moliyaviy va moddiy-texnik yordam ko'rsatadi.

yevropa mamlakatlari. Finlyandiyada 100 yildan ortiq mustaqil tashkilot sifatida faoliyat ko'rsatib kelgan yong'in xavfsizligi xizmati

1975 yilda qabul qilingan qonunga muvofiq qayta tashkil etilib, yagona Qutqaruв xizmatiga aylantirildi. Bundan tashqari Qutqaruв xizmati tez yordam vazifasini ham o‘taydi.

Qutqaruв xizmatining tarkib topishi bir necha yil davom etib, 1991 yilga kelibgina aholini turli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va xavfsizlikni ta'minlash talablariga javob bera oladigan bo‘ldi. Bunday qayta tashkil etishdan maqsad maxsus qutqaruв tashkilotlarini funksional-tezkor, zamonaviy taktik, texnik va iqtisodiy talablarga javob beruvchi, aholining har tomonlama xavfsizligini ta'minlovchi modelga o‘tkazishdan iborat edi.

Qutqaruв xizmati mahalliy byudjet hisobidan mablag‘ bilan ta'minlanadi.

Finlyandiyada aholini muhofaza inshootlari bilan ta'minlanishi masalasiga hal qiluvchi o‘rin berilgan. Xususan, Xelsinkida 4400 dan ortiq bombadan berkinish joylari mavjud. Qutqaruв xizmati bilan bog‘lanish uchun 112 raqamini terish kifoya.

Shveytsariyada mamlakat Konstitutsiyasiga asosan aholini va hududlarni tabiiy, texnogen va harbiy xususiyatlari favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish vazifasi Konfederatsiya zimmasiga yuklatilgan.

Shveytsariya xavfsizlik doktrinasining bosh tamoyili - birinchi navbatda mahalliy kuch va vositalarga hamda boshqaruvning quyi zvenolariga tayanishdan iborat. Tayyorgarlik va muhofaza tadbirlarining asosiy qismi kommunalar darajasida olib boriladi.

Germaniyada aholi va hududlarni tabiiy, texnogen va harbiy xususiyatlari favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bilan bog‘liq barcha muammolarni hal etish Ichki ishlar vazirligiga yuklatilgan. Ichki ishlar vazirligi IV qoshida doimiy Fuqaro mudofaasi shtabi tashkil etilgan. Bu qo‘mita tarkibiga kiradi, unga joylardagi Ichki ishlar vazirligi Fuqaro mudofaasi bo‘limlari tobe hisoblanadi.

Fransiyada tinchlik va harbiy davrda aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tizimiga umumiyoг rahbarlikni Ichki ishlar vazirligi Fuqaro muhofazasi departamenti orqali amalga oshiradi

Buyuk Britaniyadagi aholi va hududlarni tabiiy, texnogen va harbiy xususiyatlari favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tizimi Germaniya va Fransiya tizimidan deyarli farq qilmaydi. Bu tizimga umumiyoг rahbarlik Ichki ishlar vazirligiga tegishli boshqarma hamda vazirliklar va idoralar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Vazirliklararo reja qo‘mitasi orqali amalga oshiradi. Mahalliy darajada asosiy tadbirlarning bajarilishini grafliklar, ma’muriy rayonlar, shaharlar munitsipalitetlari kengashlari maxsus tuzilgan qo‘mitalar orqali tashkil etadilar.

Italiyada maxsus tashkiliy tizim - Fuqaro muhofazasi milliy xizmati (FMMX) tashkil etilgan. FMMX faoliyatiga umumiyoг rahbarlik va muvofiqlashtirishni Fuqaro

muhofazasini muvofiqlashtirish vaziri Fuqaro muhofazasi vazirligi orqali amalga oshiradi.

Shvetsiyada halokatlarda tibbiy tez yordam xizmati fransuzlarnikiga o‘xshab mamlakat Ichki ishlar vazirligining o‘t o‘chirish boshqarmasi tasarrufida. 1986 yili Qutqaruv xizmati milliy boshqarmasi tuzilgan bo‘lib, u favqulodda vaziyatlarda 284 ta mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish boshqarmalari qutqaruvchilari ishiga rahbarlikni amalga oshiradi. Boshqarma munitsipal va kommunalarning qutqaruv xizmatlarini tashkil etish va o‘qitishga mas’ul, favqulodda vaziyatlarda ularning ishlarida axborot-maslahat yordamini beradi, aholini zarur axborotlar bilan ta’minlaydi va h.k.

Belgiyada Ichki ishlar vazirligi rahbarligidagi favqulodda vaziyatlar sodir bo‘lganda tez ishga kirishish tizimi 5 ta kritik vaziyatlar markazini o‘z ichiga oladi.

Mustaqil davlatlar hamdo‘sstligi mamlakatlari. **Rossiyada** aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish ishlari 1990 yil 27 dekabrda RSFSR hukumati qarori bilan Rossiya qutqaruvchilar korpusi tuzilishi bilan boshlangan. 1994 yil yanvarida Fuqaro mudofaasi, favqulodda vaziyatlar va tabiiy ofatlar oqibatlarini tugatish ishlari bo‘yicha davlat qo‘mitasi negizida shu nomdagi vazirlikning tashkil etilishi muhim qadamlardan biri bo‘ldi.

1992 yil aprel oyida Rossiya hukumatining qarori bilan favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ogohlantirish Rossiya tizimi tashkil etildi. Shu yili iyul oyida Qidiruv-qutqaruv xizmatini va Davlat markaziy aeromobil otryadini tashkil etish boshlandi.

Belorussiya Respublikasi Prezidenti 1998 yilning 11 sentyabrida Favqulodda vaziyatlar vazirligini qayta tashkil etish to‘g‘risidagi Farmonga imzo chekdi. Farmonga asosan Ichki ishlar vazirligidan harbiylashtirilgan yong‘in xizmati (HYoX) ajratib olindi va u FVV ning negizi bo‘lib qoldi. Unga avval tashkil etilgan Chernobil AESi halokati oqibatlari muammolari bo‘yicha qo‘mita, Sanoatda va yadro energetikasida ishlarni xavfsiz olib borishni nazorat qilish qo‘mitasi, shuningdek Minsk shahar harbiylashtirilgan yong‘in qismi boshqarmasi to‘liq tarkibda va Belorussiya HYoXning to‘la tarkibi qo‘shildi.

Qozog‘iston Respublikasida 2004 yili tashkil etilgan Favqulodda vaziyatlar vazirligi faoliyat ko‘rsatadi. U yirik avariya, halokat va tabiiy ofatlarda tezkor harakatni amalga oshiradi, favqulodda vaziyatning oldini olish tadbirlarini muvofiqlashtiradi, sanoatda texnika xavfsizligi ustidan nazorat olib boradi, davlat yong‘in xavfsizligi xizmatiga rahbarlik qiladi, mamlakat fuqaro mudofaasi tizimi faoliyatini ta’minlaydi.

2014 yil Qozog‘iston Favqulodda vaziyatlar vazirligi qisqartirildi. Hozirda Qozog‘iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tasarrufida favqulodda vaziyatlar qo‘mitasi faoliyat yuritmoqda.

Qirg‘iziston Respublikasida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish masalalari bilan shug‘ullanuvchi davlat organi 1991 yilda tashkil etilgan. Qirg‘iziston Respublikasi favqulodda vaziyatlar vazirligi texnogen, tabiiy, ekologik va ijtimoiy xususiyatli favqulodda vaziyatlarning oldini olishga tezkor munosabat bildiruvchi davlat tashkilotlarini birlashtirish asosida dunyoga kelgan. Vazirlilik tarkibida tashkil etilgan favqulodda vaziyatlar monitoringi, bashoratlash va radiatsiyaviy chiqindixonalar bilan ishlash departamenti Milliy Fanlar Akademiyasi institutlari, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari bilan hamkorlikda tez-tez yuz beradigan xavfli tabiiy jarayonlar bo‘yicha bashoratlash ishlarini amalga oshiradi hamda ma'lumotlarni davlat idoralari va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlariga yetkazadi.

Tojikiston Respublikasi hukumati qoshidagi favqulodda vaziyatlar va fuqaro mudofaasi qo‘mitasi 1994 yil 17 avgustda Fuqaro mudofaasi shtabi negizida tashkil etilgan. Keyinchalik u Favqulodda vaziyatlar va fuqaro mudofaasi vazirligiga aylantirildi. Bu bilan respublikada favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish davlat tizimini qurish yo‘lidagi birinchi qadam tashlandi.

Bosh vazirning o‘rinbosarlaridan biri rahbarlik qiladigan davlat tizimi favqulodda vaziyatlar komissiyalari kabi boshqaruv organlarini o‘zida birlashtiradi.

Xorij mamlakatlar tajribasini o‘rganish shuni ko‘rsatib berdiki, favqulodda vaziyatlarda aholi va hududlarni muhofaza qilish va qutqarish tizimini tashkil etishda har mamlakat o‘ziga xos xususiyatga ega.

Nazorat savollari:

1. BMT TDning faoliyati.
2. BMT “YuNISeF” bolalar fondi faoliyati.
3. ShXTning asosiy vazifalari.
4. Atom energiyasi xalqaro agentligi faoliyati.
5. Rossiya Federatsiyasi favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tizimi faoliyati.
6. Belorussiya Respublikasi favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tizimi faoliyati.
7. Qozog‘iston Respublikasi favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tizimi faoliyati.
8. Yaponianing Xalqaro JICA tashkiloti bilan hamkorlik.
9. Xorij mamlakatlarida aholi tayyorgarligi.
10. “Yosh qutqaruvchi”, “Ko‘ngillilar” xizmatlarini tashkil etilishi (O‘zbekiston, Yaponiya, Germaniya misolida).

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 24 avgust kunidagi “O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 242-sonli Qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 iyundagi PF-5066-sonli“Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish tizimi samaradorligini tubdan oshirish chora - tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 iyundagi PQ-3029-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha tashkiliy tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 iyundagi “Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida mutaxassislar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3030-sonli Qarori.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 10 apreldagi PF-5706-sonli “O‘zbekiston Respublikasida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish hamda yong‘in xavfsizligini ta‘minlashning sifatli yangicha tizimini tadbiq etish to‘g‘risida”gi Farmoni.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 10 apreldagi PQ-4276 – sonli “Favqulodda vaziyatlar tuzilmalarining faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha tashkiliy tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori.

4-mavzu: Xalqaro terrorizmning oqibatlari va unga qarshi kurashda

O‘zbekistonning tutgan o‘rni

Reja:

1. Terrorizm va uning mohiyati.
2. Terrorchilik harakatlarini amalga oshirish usullari va vositalari.
3. Terrorizmga qarshi kurash.
4. Terrorizm bilan bog‘liq ekstremal va favqulodda vaziyatlarda aholining harakatlari.

Tayanch iboralar: favqulodda vaziyatlarda aholining harakatlari, siyosiy terrorizm, mafkuraviy terrorizm, millatchilik terrorizmi, dunyoqarash bilan bog‘liq terrorizm, yadroviy terrorizm, kamyoviy terrorizm, biologik terrorizm, kiberterrorizm, ruhiy terrorizm.

4.1. Terrorizm va uning mohiyati

Dunyo hamjamiyati terrorizmning har qanday ko‘rinishlarini, jumladan, ijtimoiy-siyosiy maqsadlarga erishish yo‘lidagi vosita sifatida ham qoralaydi. Biroq, shunga qaramay terrorizm hamon qator ekstremistik guruhlarning quroli bo‘lib

qolmoqda. Shu sababli ushbu hodisaning ko‘lami va xavfini hisobga olgan holda unga qarshi kurash Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan xalqaro siyosatning ustuvor masalalaridan biri deb e’lon qilingan. Shu munosabat bilan terrorizmning mohiyatini tushunib yetish o‘ta muhim bo‘lib, u terrorizmga qarshi kurashning vosita, shakl va usullarini aniqlashga imkon beradi. Terrorizmning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri, shu bilan birga mohiyati shundan iboratki, terrorchilar o‘z maqsadlariga erishish yo‘lida odamlarni qo‘rquv, dahshatga solish, ko‘pincha esa umuman aybsiz insonlarni yo‘q qilishdan ham tap tortishmaydi.

Terrorizm aniq bir maqsadlarga erishish vositasi sifatida qadim zamonlardan beri ma'lum. Eng yorqin misol sifatida fransuz revolyusion hukumatining kontrevolyusion oppozitsiyaga qarshi 1793 yilgi siyosatini keltirish mumkin. XIX asrning ikkinchi yarmida terrorizm bomba portlashlariyu, millatchilar guruhlari tomonidan amalga oshirilgan qotilliklar va vayronaliklarda namoyon bo‘ladi.

XX asrning oxirgi o‘n yilligi terrorchilik harakatlari avj olgan yillar bo‘ldi, desak aslo yanglishmaymiz. Statistik ma'lumotlar ham bu fikrni tasdiqlab turibli. 1968-1991 yillar davomida dunyo mamlakatlarida 6850 marta terrorchilik xurujlari amalga oshirilgan, ularda 5683 kishi halok bo‘lgan, 15462 kishi tan jarohati olgan. 1992 yildan 2000 yilgacha bo‘lgan davrda esa 2054 ta terrorchilik harakati sodir etilib, oqibatda 2547 kishi halok bo‘ldi, 20555 kishi jarohatlandi.

Biz XXI asr ekstremistlarining har bir chiqishiga tayyor turmog‘imiz zarur. Buning uchun avvalo terrorizmning kelib chiqish sabablari, maqsadlari va keltiradigan talafotlarini bilib olishimiz zarur.

Terrorizm – hozirgi kunning eng xavfli jarayoni bo‘lib, XXI asrda insoniyat va davlat oldida turgan vazifalarni hal etish yo‘lidagi asosiy to‘siqlardan biridir.

2000 yil 15 dekabr kunidagi O‘zbekiston Respublikasining «Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida»gi qonuni qabul qilingan va unda terrorizmning asosiy tushunchalari berilgan:

Hozirgi kunda terrorizm – jinoyatchilik faoliyatining eng xavfli shakllaridan biridir. Bir qator rivojlangan mamlakatlarning qonunlarida va xalqaro hujjatlarda (masalan, 1977 yil 27 yanvardagi yevropa Terrorizmga qarshi kurash konvensiyasida) ham u kelib chiqish sababi, maqsadidan qat‘iy nazar jinoyat deb tasniflanadi.

Oxirgi vaqtarda yuz bergen hodisalar: Toshkentdagi Isroil va AQSh elchixonalari oldida, Ispaniyadagi temir yo‘l transportida sodir etilgan portlashlar, Checheniston Respublikasi Prezidentining o‘ldirilishi, Rossiya samolyotlarining havoda portlatilishi, Beslan shahrida bolalarning qonxo‘rlarcha yo‘q qilinishi, Amerika, Iraq, Isroil va boshqa davlatlardagi ommaviy terrorchilik harakatlari

insoniyatning kelajak taraqqiyotini xavf ostiga qo‘ydi. Global ekstremizm yer yuzining barcha joylariga yoyilib bormoqda.

Terrorizmning keng geografiysi va rang-barang xususiyatlariga qaramay, uning mohiyati bitta – o‘zi to‘g‘risida bildirish, jamiyatni larzaga tushishga majbur etish, qo‘rquvgaga solish, hukumatni terrorchilar talablarini bajarishga undashdan iboratdir. Terrorchilar bosqinchilarcha harakat qilsalar-da, o‘zlarini bosqinchi, deb hisoblashmaydi. Ular chiroyli siyosiy «kiyim»larga o‘ranib olishadi, o‘zlarini buyuk g‘oyalar kurashchilari kabi ko‘rsatishadi, ammo bir vaqtning o‘zida biror bir aybi bo‘lmagan odamlar hayotini xavf ostiga qo‘yish huquqiga ega deb biladilar.

Terrorchilar faoliyatining xususiyatiga ko‘ra terrorizm quyidagi larda bo‘linadi:

- 1. Ichki:** fuqarolarning o‘z hududida o‘z davlatiga qarshi harakatlari.
- 2. Transmilliy:** fuqarolarning boshqa davlatdan turib o‘z vatandoshlariga qarshi harakatlari.
- 3. Xalqaro:** terrorchilar xalqaro, millatlararo guruhlarining boshqa davlat yoki davatlarga qarshi harakatlari.

Terrorchilik faoliyati sabablari bo‘yicha terrorizm quyidagi mustaqil turlarga bo‘linadi:

1. Siyosiy terrorizm: tarafdarlari uni siyosiy kurash metodlaridan biri, deb hisoblashadi. Ushbu metodning mohiyati siyosiy dushmanlarni bartaraf etish, hokimiyat tuzilmalarini muayyan ishni qilishga yoki qandaydir ishni qilmaslikka majburlash maqsadida amalda o‘ta zo‘ravonlik choralarini ko‘rish yoki shunday qilish bilan tahdid solishdan iborat.

2. Mafkuraviy terrorizm: tub ichki ijtimoiy-siyosiy mojarolar negizida shakllanadi hamda so‘l va o‘ng terrorizmda namoyon bo‘ladi (uning sub'ektlari dunyoni, mamlakatni o‘z mafkuraviy konsepsiyalariga muvofiq ijtimoiy qayta qurishning turli variantlarini olg‘a surishadi).

3. Millatchilik terrorizmi: etnik belgilarga ko‘ra amalga oshiriladi. Ayrim millatlar va etnoslarning huquq hamda manfaatlari chinakam yoki soxta buzilishiga qarshi kurashdek nomonand shaklda bo‘ladi. Lekin terrorning bu turi, siyosiy maqsadlarga - mavjud konstitutsiyaviy tuzumni, mamlakatning davlat tuzilishini, ma‘muriy-hududiy tuzilmalarini va sh.k.ni zo‘ravonlik bilan o‘zgartirishga ham yo‘naltirilgan bo‘ladi.

4. Dunyoqarash bilan bog‘liq terrorizm: hukmron normalar va munosabatlar bilan mutlaqo kelishmaslik sabablariga ko‘ra amalga oshiriladi. Bu turga diniy terrorizm kiradi. Diniy fanatizm “kofirlarni” o‘ldirgan kishi jannatga tushadi, degan mutlaq e’tiqodga asoslanadi.

5. Narkoterrorizm.

Terrorning namoyon bo‘lish shakli asosida terrorizm quyidagilarga bo‘linadi:

1. Portlovchi qurilmalardan terrorchilik maqsadida foydalanish.

2. Transport vositalaridan terrorchilik harakatlarida foydalanish.

3. Garovga olish.

4. Telefon terrorizmi. Yovuz, g‘arazli maqsadli keng yoyilgan “xazil”. Aholi o‘rtasida vahima uyg‘otish, texnogen avariya yoki ekologik halokat sodir bo‘lganligi to‘g‘risidagi yolg‘on xabarlarni tarqatish.

5. Yadroviy terrorizm. Uni yuzaga keltiruvchi shart-sharoit: yadro quroliga ega mamlakatlarning ko‘pligi; yadro quroli yaratish bo‘sag‘asida turgan mamlakatlar mavjudligi, tadqiqot reaktorlarining mavjudligi, xilma-xil yadroviy ob'ektlar borligi.

6. Kimyoviy terrorizm. Kimyoviy qurollarni, ularning elementlari yoki zaharovchi moddalarni jamoat joylarida qo‘llash, kimyoviy qurollar saqlanadigan joylarda texnogen yoki ekologik holatlarni tashkil etish bilan tahdid qilish, aholi o‘rtasida vahima uyg‘otish.

7. Biologik terrorizm. Biologik vositalar – bakteriyalar, viruslar, rikketsiyalar va h.k.dan foydalaniladi.

8. Kiberterrorizm. Kompyuter vositasida ishlov beriladigan axborotga, kompyuter tizimlari yoki tarmog‘iga qasddan hujum qilish, kishilar hayoti va salomatligiga xavf tug‘dirish, aholini cho‘chitish, harbiy to‘qnashuvlarni keltirib chiqarish maqsadida og‘ir oqibatlarni yuzaga keltirish.

9. “Ruhiy terrorizm”. Ruhiy shantaj yo‘li bilan jamoatchilikka tazyiq o‘tkazish va b..

Terrorizm namoyon bo‘lishining asosiy shakllari tavsifi qisqacha shulardan iborat. Lekin bunday tasnifni ko‘pincha shartli, deb atash mumkin, chunki amalda konkret shakllar “sof” holda ham, “aralash” holda ham uchraydi.

Terrorizmning xalqaro va milliy miqyosda namoyon bo‘lishi (xalqaro huquqiy hujjatlar, xususan, 1999 yil 4 iyundagi terrorizmga qarshi kurash bo‘yicha MDH ishtirokchi-davlatlar hamkorligi shartnomasiga muvofiq) quyidagilarda belgilanadi:

jismoniy yoki yuridik shaxslarga nisbatan zo‘rlik yoki uning qo‘llanilish tahdidi;

odamlar o‘limi xavfini keltirib chiqaradigan mol-mulk va boshqa moddiy ob'ektlarning yo‘q qilinishi (shikastlantirilishi);

odamlar o‘limi xavfini keltirib chiqaradigan mol-mulk va boshqa moddiy ob'ektlarning yo‘q qilinishi (shikastlantirilishi) bilan qo‘rqitish;

mol-mulkka jiddiy zarar yetkazish yoxud ijtimoiy xavfli jinoyatlarni amalga oshirish;

davlat yoki jamoat arbobining davlat yoki boshqa siyosiy faoliyatini to‘xtatish yoxud bunday faoliyat uchun o‘ch olish maqsadida uning hayotiga tahdid solish;

xalqaro himoya ostidagi xorijiy davlat vakili yoki xalqaro tashkilot xodimiga hujum qilish;

xalqaro himoya ostidagi shaxslarning xizmat xonalari yoxud transport vositalariga hujum qilish;

yadroviy, kimyoviy yoki boshqa yuqori texnologik va ekologik xavfli ob'ektlarni bosib olish, ishdan chiqarish va vayron qilish;

agar bu harakatlar jamoat xavfsizligiga putur yetkazish, aholini qo‘rqtish, hokimiyat organlarining qaror qabul qilishiga ta’sir ko‘rsatish, siyosiy, g‘arazli yoxud boshqa ixtiyoriy maqsadlarga erishish maqsadida amalga oshirilgan bo‘lsa, shahar va aholi manzilgohlarning hayotiy faoliyat tizimlarini bosib olish, ishdan chiiqarish va vayron qilish;

xuddi shu maqsadlarda yuqorida qayd etilgan jinoyatlarni amalga oshirishga urinish;

yuqorida qayd etilgan jinoyatlarni amalga oshirayotgan yoki amalga oshirishga urinayotgan shaxsga hamkor yoki ko‘makchi sifatida rahbarlik qilish, moliyalash yoki ishtirok etish.

Terrorizm ijtimoiy-huquqiy jarayon sifatida bir qator asoslarga, jumladan, harakatlar ko‘lami, maqsad va yo‘nalganligiga, oqibatlariga (amalga oshirilgan yoki kutilayotgan), odamlarga qo‘llanilish ko‘lamiga – ommaviy, guruh, yakka; moddiy zarariga - halokatli, o‘ta yirik, yirik; ma’naviy-ruhiy zarariga – vahima yuzaga keltirgan, aholini qo‘rqtgan, hukumatga ishonchsizlik uyg‘otgan, qatnashchilarning soni va uyushganligiga (sekta va yashirin terrorchilik tashkilotlarini qo‘shgan holda) ko‘ra tasniflanishi mumkin. Qo‘llanilgan qurollari, usullari va moliyaviy vositalariga ko‘ra ham tasniflanishi mumkin: ommaviy qirg‘in qurollari – oddiy avtomatik o‘q otar qurollari, yaqin jang qurollari, o‘limga olib kelmaydigan quollar, maxsus vositalar va h.k. Terrorchilik harakatlarini amalga oshirish usullarining tasnifini qo‘llaniladigan vositalar (portlovchi modda, o‘q otar yoki sovuq qurol, ommaviy qirg‘in qurollari, biologik vi viruslarning yangi turlari; axborot, axborot tashuvchilar - shaxsiy kompyuter viruslari, dasturli mahsulotlar, dasturlar, algoritm tillari) tasnifi bilan to‘ldirish lozim.

Terrorchilik harakatlari odatda, o‘q otar qurollarni qo‘llash, yong‘in va portlashlarni keltirib chiqarish, odamlarni garovga olish, kimyoviy, radioaktiv moddalarni, biologik yoki bakteriologik vositalarni qo‘llash, ishlab chiqarish avariyalarini keltirib chiqarish, transport vositalarini yo‘q qilib tashlash yoki olib qochish, turli mish-mishlarni tarqatish va boshqa yo‘llar bilan amalga oshirilishi mumkin.

Terrorchilik harakatlari yuzaga kelishiga sabab jamiyat, davlat va dunyodagi ijtimoiy va iqtisodiy tengsizlik, milliy-diniy qarama-qarshilik, odamlar moddiy ahvolining nochorlashib qolishi, ishsizlik, jinoyatchilikka qarshi olib borilayotgan kurashning samarali tashkil etilmaganligi bo‘lishi mumkin.

Agar avvallari terrorchining asosiy quroli bomba yoki pistolet bo‘lsa, hozirgi kunda u inson tomonidan kashf etilgan ixtiyoriy vosita: o‘q otar va sovuq qurol, portlovchi va zaharovchi moddalar, biologik agentlar, radioaktiv moddalar va yadro zaryadlari, ommaviy axborot vositalari va hokazolarni qo‘llashi mumkin.

1998 yili AQShda sodir etilgan qotillik kiberjinoyatchilikka doir dastlabki misollardan biri hisoblanadi. AQSh dagi klinikalardan biriga Federal Razvedka Byurosi tomonidan qo‘riqlanayotgan o‘ta muhim guvoh joylashtirilgandi. Internet tarmog‘i orqali klinikaning mahalliy tarmog‘iga qator muhofaza to‘siqlarini yengib o‘tgan holda ruxsatsiz kira olgan xaker-qotil bemorning yurak faoliyatini ta‘minlab turgan qurilmani qayta sozlab qo‘yishi oqibatida bemor hayotdan ko‘z yumgan.

2017 yilning sentyabr – oktyabr oylarida Rossiya Federatsiyasining Moskva shahri va viloyati, Rostov – Don, Krasnodar o‘lkalari va boshqa hududlarida 850 dan ortiq terror haqida yolg‘on xabarlar tarqatilgan va bunda 1 milliondan ortiq fuqarolar evakuatsiya qilingan.

Zamonaviiy terrorizmning maqsadi – davlat siyosati va davlat qurilishini zo‘rlik yo‘li bilan o‘zgartirish, shuningdek o‘z xalqi va dunyo hamjamiyati ko‘z o‘ngida beqarorlashtirish; davlatning jinoyatchilikka qarshi kurashdagi urinishlarini beqarorlashtirish va buzish, ijtimoiy va iqtisodiy masalalarni hal etish, dunyo hamjamiyatiga integratsiya qilinish qudratiga ega demokratik siyosiy tuzumni yaratish va mustahkamlash bo‘yicha qabul qilinayotgan qarorlarni beqarorlashtirish va buzish; shaxsga, jamiyatga, davlatga to‘g‘ri kelmaydigan siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy zarar keltirishdan iboratdir.

4.2.Terrorchilik harakatlarini amalga oshirish usullari va vositalari

O‘z maqsadlarini amalga oshirish uchun terrorchilar qo‘llayotgan usullar kundan kunga ko‘payib bormoqda. An'anaviy bo‘lib qolgan qotillik, portlatish, garovga olish kabi usullardan tashqari kimyoviy va biologik moddalardan ham foydalanilmoqda. Agar avvallari bosqinchilarning asosiy qurollari granata va pistolet bo‘lgan bo‘lsa, endilikda esa, ma'lumki, ular insoniyat tomonidan kashf etilgan barcha vositalarni qo‘llashlari mumkin bo‘lib qoldi: ixtiyoriy sovuq va o‘t otar qurol, portlovchi va zaharovchi moddalar, biologik agentlar, radioaktiv moddalar, elektromagnit impulslari tarqatuvchilar, keng tarqalgan aloqa vositalari (pochta, telefon, kompyuter) va h.k.

Terrorchilik harakatlarini amalga oshirish uchun foydalaniladigan vositalar

| Sovuq qurollar | O‘q otar qurollari | Portlovchi modallar | Zaharovchi modallar | Biologik agentlar | Radioaktiv moddalar | Yadro zaryadlari | Elektromagnit impulse tarqatuvchilar | Transport vositalari |
|----------------|--------------------|---------------------|---------------------|-------------------|---------------------|------------------|--------------------------------------|----------------------|
|----------------|--------------------|---------------------|---------------------|-------------------|---------------------|------------------|--------------------------------------|----------------------|

Ekspertlar fikriga ko‘ra, hozirgi kunda terrorchilar uchun hatto radioaktiv izotoplar, kimyoviyy va biologik qurollarning tarkibiy qismlari, parchalanuvchi materiallar, jumladan, yuqori boyitilgan uran va plutoniydan ham osongina foydalanishlari mumkin. Bu holat kompyuter tarmoqlarini «buza olish» ehtimolligi, chegaralarning «shaffofligi», eksport nazoratining bo‘shligi, yangi ishlab chiqilgan qurollanish turlari to‘g‘risidagi ma'lumotlarning oshkoraliqi, jinoyatchilikning internatsionallashuvi kuchayib borayotganligi bilan izohlanadi.

Terrorizm qo‘rkitishning yangi va yangi, yanada qahrliroq usullarini qidirib topmoqda. Terrorchilar prinsipial chegaradan o‘tib ketishdi – ommaviy qirg‘in vositalarini qo‘llay boshlashdi (Yaponiya metrosida). Xorijiy ekspertlar bahosiga ko‘ra, terrorchilar bundan avval ham bir necha bor ommaviy qirg‘in qurollariga ega chiqish yo‘llarini qidirib ko‘rishgan, ularga ega chiqmoqchi yoki ishlab chiqarmoqchi bo‘lishgan, yadro muassasalari yoki ob’ektlariga kirishga, kuchli ta’sir qiluvchi zaharli moddalarni qo‘llashga, ishlab turgan yoki qurilayotgan atom qurilmalari va AESlarga qarshi qo‘poruvchilik ishlarini amalga oshirishga urinib ko‘rishgandi.

Terrorizmnинг yuqori toksik kimyoviy zaharovchi moddalarni va biologik birikmalarni qo‘llaydigan nisbatan yangi turi xavotir uyg‘otadi. Qator mamlakatlarda yovuz niyatli terrorchilar Ebola virusiga o‘xshash biologik retseptlar va ayrim etnik guruh va irqlarga ta’sir ko‘rsata oluvchi mikroorganizmlarning patogen turlarini yaratish yo‘lida ishlar olib borishmoqda. Buning ustiga terrorchilar va ularning

rahnamlari kimyoviy va biologik quollar to‘g‘risidagi ma'lumotlarni Internet tarmog‘i orqali ayirboshlashlari ham mumkin.

Terrorchilar guruuhlarini tayyorlash dasturlaridan zarin tipidagi zaharli moddalar va gazlar bilan ishlash bo‘limlari mavjud. Ushbu guruh a'zolari suv havzalarini zararlash uchun ochiq savdoda mavjud bo‘lgan kimyoviy preparatlar asosida kuchli ta'sir etuvchi zaharlovchi moddalarni tayyorlash usullari o‘rgatiladi.

Kanada strategik tahlil markazi sodir etilgan 200 ta kimyoviy-biologik terrorchilik harakatlarini o‘rganib chiqib, jinoyatchilar tomonidan eng ko‘p qo‘llaniladigan, keng tarqalgan va olish oson bo‘lgan kimyoviy va biologik agentlar quyidagilar degan xulosaga keldi:

zaharli gerbitsid va zaharli insektitsidlar;

kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalar: xlor, fosgen, sinil kislotasi;

zaharlovchi moddalar: zarin, zoman, iprit, lyuizit;

psixogen va giyohvand moddalar;

Sibir yarasi, tabiiy chechak, tulyaremiya kabi xavfli infeksiyalar qo‘zg‘atuvchilar;

tabiiy zahar va toksinlar: strixin, ritsin, butulotoksin, neytronotoksinlar.

Hozirgi kunda yuqori toksik kimyoviy moddalar va o‘ta xavfli biologik agentlarni olish terrorchi uchun hal etib bo‘lmaydigan masalalar qatoriga kirmaydi. Bu moddalarni qo‘llagan holda terrorchilik harakatlarini amalga oshirish uchun samarali va ishonchli qurilmalarni yaratish qiyinroqdir. Bunday qurolning ta'sir ob'ekti metropolitenlar, aeroportlar va temir yo‘l vokzallari, idoralar, magazinlar va supermarketlar, yopiq sport va konsert zallari, ko‘rgazma pavilonlari, shuningdek katta shaharlarni suv bilan ta'minlash tizimi, oziq-ovqat mahsulotlari partiyalari bo‘lishi mumkin.

Tez ta'sir qiluvchi fosfororganik zaharlovchi moddalar ayniqla katta xavf tug‘diradi. Bunday moddalarni odamlar ko‘p to‘planadigan shamollatish tizimi bo‘lgan yopiq joylarda terrorchilik maqsadlarida qo‘llanilishi qurbanlar sonining juda katta bo‘lishiga olib keladi.

Terrorchilik faoliyatini amalga oshirish uchun eng ko‘p tarqalgan vositalar odamlar o‘limiga olib keluvchi yoki anchagina katta moddiy zarar keltiradigan portlatish qurilmalari, shuningdek aloqaning turli kanallari (pochta, ko‘proq telefon) hisoblanadi. Ular orqali jinoyatchilar zo‘ravonlik yoki jismoniy o‘ch olish tahdidlarini yuboradilar. Portlovchi qurilmalarni qo‘llash bilan bog‘liq xavfli harakatlar aholiga salbiy ma’naviy-ruhiy ta’sir ko‘rsatadi, odamlarda o‘z hayotlari uchun asoslangan qo‘rquv uyg‘otadi, aholi manzilgohlari, tumanlar va butun boshli mamlakatlarda sharoitni beqarorlashtirishi mumkin.

4.3. Terrorizmga qarshi kurash

O‘zbekiston Respublikasining «Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida»gi qonuniga muvofiq respublikamizda terrorizmga qarshi kurash qonuniylik, shaxs huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi, terrorizmning oldini olish choralari ustuvorligi, jazoning muqarrarligi, terrorizmga qarshi kurash oshkora va nooshkora choralari uyg‘unligi, jalb etiladigan kuchlar va vositalar tomonidan terrorchilikka qarshi o‘tkaziladigan operatsiyaga rahbarlik qilishda yakkaboshchilik tamoyillari asosida olib boriladi.

Ko‘plab mamlakatlarning mutaxassislari terrorizm bilan kurash murakkab xarakterga ega bo‘lib, davlat va jamiyatdan maksimum kuch talab etadi. Unga barcha: hokimiyat organlari ham, qurolli kuchlar ham, aholi ham tashkiliy tadbirlarning, texnika va boshqa vositalarning barcha arsenalidan foydalangan holda tayyorgarlik ko‘rishi lozim. Ehtimoliy terrorchilik harakatlarining oldini olish muhim hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida terrorizmga qarshi kurashda Milliy xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Davlat bojxona qo‘mitasi, Mudofaa va Favqulodda vaziyatlar vazirliklari ishtiroy etadi.

Terrorizmga qarshi kurashda ishtiroy etayotgan davlat organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish hamda terrorchilik faoliyatining oldini olish, uni aniqlash, unga chek qo‘yish va uning oqibatlarini minimallashtirish borasida hamkorlikda harakat qilishlarini ta‘minlash O‘zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati tomonidan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmatining terrorizmga qarshi kurash sohasidagi vakolatlari:

terrorchilik faoliyatining oldini olish, uni aniqlash va unga chek qo‘yish yo‘li bilan terrorizmga, shu jumladan xalqaro terrorizmga qarshi kurashni amalga oshiradi;

terrorchilar, terrorchilik guruhlari va terrorchilik tashkilotlari faoliyati to‘g‘risidagi axborotlarni to‘playdi hamda tahlil qiladi, ulardan kelib chiqayotgan tahdidning milliy xavfsizlikka qay darajada xavfli ekanligini baholaydi, tegishli vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarga zarur axborotlar taqdim etadi;

O‘zbekiston Respublikasining alohida muhim va kategoriyalangan ob‘ektlarini, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida joylashgan davlat muassasalarini, ushbu muassasalarning xodimlari va ularning oila a‘zolarini himoya qilishni ta‘minlaydi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi hududida bo‘lgan davrda chet el davlatlari, hukumatlari boshliqlari va xalqaro tashkilotlar rahbarlarining xavfsizligini va qo‘riqlanishini ta‘minlaydi;

xalqaro terrorizmga qarshi kurash sohasida chet el davlatlarining va xalqaro tashkilotlarning tegishli organlari bilan hamkorlik qiladi;

terorchilikka qarshi kurashuvchi qo'shinlar, bo'linmalar va muassasalarning terrorchilik guruhlari va tashkilotlarini aniqlash, zararsizlantirish va yo'q qilish ishlari tashkil etilishini ta'minlaydi;

terorchilarning O'zbekiston Respublikasi hududiga kirishidan Davlat chegarasining qo'riqlanishi va himoya qilinishini ta'minlaydi;

O'zbekiston Respublikasi Davlat chegarasi orqali quroq, o'q-dorilar, portlovchi, radioaktiv, biologik, shuningdek kimyoviy yoki boshqa zaharovchi moddalarning, terrorchilik harakatini sodir etish vositasi sifatida ishlatilishi mumkin bo'lgan predmet yoki materiallarning noqonuniy olib o'tilishini aniqlash va unga chek qo'yish choralarini ko'radi;

chevara oldi mintaqasida va chevara oldi zonasida terrorchilarni zararsizlantiradi, qarshilik ko'rsatilgan taqdirda yo'q qilish choralarini ko'radi;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining terrorizmga qarshi kurash sohasidagi vakolatlari:

terorchilik faoliyatining oldini olish, uni aniqlash, unga chek qo'yish hamda uning oqibatlarini minimallashtirish yo'li bilan terrorizmga qarshi kurashni amalga oshiradi;

alohida muhim, kategoriyalangan va boshqa ob'ektlarning qo'riqlanishini va xavfsizligini ta'minlaydi;

davlat hokimiyati va boshqaruvning tegishli organlariga terrorchilik faoliyatiga aloqador shaxslar, guruhlar va tashkilotlar to'g'risida axborot taqdim etadi;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining terrorizmga qarshi kurash sohasidagi vakolatlari:

O'zbekiston Respublikasi Davlat chegarasi orqali o'tkazish punktlarida giyohvandlik vositalari, psixotrop va portlovchi moddalar, portlatish qurilmalari, quroq-yarog'lar, qurollar va o'q-dorilar, yadroviy, biologik, kimyoviy yoki boshqa turdag'i yalpi qirg'in qurollari, terrorchilik harakatlarida ishlatilishi mumkin bo'lgan materiallar va asbob-uskunalarni noqonuniy olib o'tishga urinishlarning oldini olish, aniqlash va ularga chek qo'yish choralarini ko'radi;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining terrorizmga qarshi kurash sohasidagi vakolatlari:

O'zbekiston Respublikasining havo bo'shlig'i xavfsizligini, mamlakat ma'muriy, sanoat-iqtisodiy markazlari va hududlari, muhim harbiy va boshqa

ob'ektlarning havodan beriladigan zarbadan himoya qilinishi va qo'riqlanishini ta'minlaydi;

o'z tasarrufidagi harbiy ob'ektlarning qo'riqlanishi va mudofaa qilinishini amalga oshiradi;

terorchilikka qarshi operatsiyalarda ishtirok etadi;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining terrorizmga qarshi kurash sohasidagi vakolatlari:

favqulodda vaziyatlardan aholini himoya qilish, terrorchilar harakat qilayotgan zonada joylashgan alohida muhim, kategoriyalangan va boshqa ob'ektlar barqaror ishslashini, shuningdek terrorchilik harakatlari oqibatlarini tugatish yuzasidan vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar va mahalliy davlat hokimiyati organlarining faoliyatini muvofiqlashtiradi hamda tadbirlar o'tkazadi;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Davlat boshqaruv organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, mansabdor shaxslar, shuningdek fuqarolar terrorizmga qarshi kurashni amalga oshiruvchi davlat organlariga ko'maklashadilar va zarur yordam beradilar.

Hozirgi kunda terrorizmga qarshi kurash uning aniq bir shakl va tarixiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda kompleks holda, bir necha yo'naliш bo'yicha olib borilishi lozim:

1. Terrorizmga qarshi kurashish bevosita vazifasi hisoblangan maxsus strukturalar faoliyatini takomillashtirish yo'li bilan. Hozirgi sharoitda terrorchilik harakatlarining oldini ola oluvchi razvedka tadbirlarining o'rni keskin oshib bormoqda.

2. Jangovar operatsiyalarni o'tkazish yo'li bilan. Xalqaro huquq terrorchilik harakatlarining ijrochisi shubha tug'dirmagan vaqtida terrorchilarga qarshi javob harakatlarini amalga oshirish mumkin, deb hisoblaydi.

3. Terrorchilik faoliyatiga chek qo'yishga qaratilgan muzokara jarayonlaridan foydalanish, o'tkir ijtimoiy dasturlarni sekin-asta hal etish va mamlakatda yoki regionda mustahkam tinchlikni o'rnatish bilan.

Xalqaro tajriba muzokaralar yutuqqa erishishi mumkin ekanligini ko'rsatdi.

4. Xalqaro terrorizmning global tahdidiga aylanishi munosabati bilan dunyo mamlakatlarining terrorizmga qarshi kurashish va unga qarshi turish uchun urinishlarini muvofiqlashtirish zarur.

Terrorizmga qarshi kurashning muhim sharti qat'iyatlilik, kelisha olmaslik va javob reaksiyalarining qattiqligi, yaxshi o'qitilgan, mashq qildirilgan, texnik

tomondan jihozlangan va kiyim-bosh bilan ta'minlangan maxsus bo'linmalar hisoblanadi.

Terrorchilik harakatlarida ishtirok etganlik uchun jazo

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksida terrorchilik faoliyati bilan bog'liq jazo choralari ko'zda tutilgan:

155-modda. Terrorizm

Xalqaro munosabatlarni chigallashtirish, urush chiqarish uchun ig'vo qilish yoki O'zbekiston Respublikasidagi vaziyatni beqarorlashtirish maqsadida davlat, xalqaro tashkilot, jismoniy yoki yuridik shaxsni biron harakat sodir etishga yoki biron harakat sodir etishdan o'zini tiyishga majbur qlishga qaratilgan harakatlar, o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish, mol-mulkni bosib olish yoki qo'lida tutib turish yoki shaxsni garov sifatida ushlab turish bilan qo'rqitib, xalqaro himoya ostida bo'lgan chet el davlatlari vakolatxonalarining yoki xalqaro tashkilotlarning xizmat binolariga, ularga qarashli yoki ular ijaraga olgan uy-joy binolariga hujum qilish bilan bog'liq holda sodir etilsa mol-mulk musodara qilinib, sakkiz yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Vaziyatni beqarorlashtirish yoki davlat organlari tomonidan qaror qabul qilinishiga ta'sir ko'rsatish yoxud siyosiy yoki boshqa ijtimoiy faoliyatga to'sqinlik qilish maqsadida davlat yoki jamoat arbobi yoxud hokimiyat vakilining davlat yoki jamoatchilik faoliyati munosabati bilan uning hayotiga suiqasd qilish yoki uning badaniga shikast yetkazish mol-mulk musodara qilinib, o'n yildan o'n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Ushbu moddaning birinchi yoki ikkinchi qismida nazarda tutilgan harakatlar:

a) odam o'lishiga;

b) boshqa og'ir oqibatlar kelib chiqishiga sabab bo'lsa mol-mulk musodara qilinib, o'n besh yildan yigirma yilgacha ozodlikdan mahrum qilish yoki o'lim jazosi bilan jazolanadi.

157-modda. Davlatga xoinlik qilish

Davlatga xoinlik qilish, ya'ni O'zbekiston Respublikasi fuqarosining O'zbekiston Respublikasining suvereniteti, hududiy daxlsizligi, xavfsizligi, mudofaa salohiyati yoki iqtisodiyotiga zarar yetkazgan holda qasddan sodir etgan qilmishi: dushman tomoniga o'tish; josuslik; davlat sirlarini chet el davlatiga yetkazish; O'zbekiston Respublikasiga qarshi dushmanlik faoliyati olib borishda chet el davlatiga yordam ko'rsatish mol-mulk musodara qilinib, o'n yildan yigirma yilgacha ozodlikdan mahrum qilish yoki o'lim jazosi bilan jazolanadi.

Chet el davlat yoki tashkiloti tomonidan O'zbekiston Respublikasiga qarshi qaratilgan davlatga zarar yetkazuvchi faoliyatni amalga oshirishda hamkorlik qilish uchun jalb qilingan O'zbekiston Respublikasining fuqarosi o'zining bunlday

hamkorligi to‘g‘risida hokimiyat organlariga ixtiyoriy ravishda arz qilsa, uning faoliyati esa respublika manfaatlariga zarar yetkazmagan bo‘lsa, javobgarlikdan ozod qilinadi.

Basharti, O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi, o‘z qilmishi to‘g‘risida hokimiyat organlariga ixtiyoriy ravishda xabar qilib, jinoyatni ochishga faol yordam bergen va buning natijasida davlat uchun kelib chiqishi mumkin bo‘lgan og‘ir oqibatlarning oldi olingan bo‘lsa, jazodan ozod qilinadi.

158-modda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga tajovuz qilish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hayotiga tajovuz qilish mol-mulk musodara qilinib, o‘n yildan yigirma yilgacha ozodlikdan mahrum qilish yoki o‘lim jazosi bilan jazolanadi.

O‘zbekiston Respublikasi prezidenti badaniga qasddan shikast yetkazish mol-mulk musodara qilinib, besh yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O‘zbekiston Respublikasi prezidentini omma oldida haqoratlash yoki unga tuhmat qilish, guningdek, matbuot yoki boshqa ommaviy axborot vositalaridan foydalangan holda uni haqoratlash yoki unga tuhmat qilish uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki olti oygacha qamoq yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

161-modda. Qo‘poruvchilik

Qo‘poruvchilik, ya’ni O‘zbekiston Respublikasining davlat organlari faoliyati yoki ijtimoiy-siyosiy vaziyatning barqarorligiga yoki iqtisodiyotiga putur yetkazish maqsadida odamlarni qirib yuborish, ularning sog‘lig‘iga ziyon, mulkkka shikast yetkazish yoki uni nobud qilishga qaratilgan harakatlar mol-mulk musodara qilinib, o‘n yildan yigirma yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

216¹-modda. Faoliyati taqiqlangan jamoat birlashmalari va diniy tashkilotlar faoliyatida qatnashishga undash

Faoliyati taqiqlangan jamoat birlashmalari va diniy tashkilotlar, oqimlar, sektalar faoliyatida qatnashishga undash, shunday harakatlar uchun ma’muriy jazo qo‘llanilgandan keyin sodir etilgan bo‘lsa, eng kam ish haqining yigirma besh baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

244-modda. Ommaviy tartibsizliklar

Qurol yoki qurol sifatida foydalaniladigan boshqa narsalarni ishlatib yoxud ishlatish bilan qo‘rkitib shaxsga nisbatan zo‘rlik ishlatish, qirg‘in solish, o‘t qo‘yish, mulkkka shikast yetkazish yoki uni nobud qilish, hokimiyat vakiliga qarshilik ko‘rsatish orqali sodir etilgan ommaviy tartibsizliklar tashkil qilish, shuningdek,

ommaviy tartibsizlikdarda faol qatnashish mol-mulk musodara qilinib, o‘n yildan o‘n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

245-modda. Shaxsni garov sifatida tutqinlikka olish

Garov sifatida tutqunlikka olingen shaxsni ozod qilish sharti bilan davlat, xalqaro tashkilot, jismoniy yoki yuridik shaxsdan biron-bir harakat sodir etish yoki biron-bir harakat sodir etishdan o‘zini tiyib turishni talab qilish maqsadida shaxsni garov tariqasida tutqunlikka olish yoki tutqunlikda ushlab turish, ushbu Kodeksning 155, 165-moddalarida nazarda tutilgan alomatlar bo‘lmasa mol-mulk musodara qilinib, besh yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O‘sha harakatlar:

- a) voyaga yetmagan shaxsga nisbatan;
- b) ikki yoki undan ortiq shaxsga nisbatan sodir etilgan bo‘lsa;
- v) og‘ir oqibatlar kelib chiqishiga sabab bo‘lsa, mol-mulk musodara qilinib, o‘n yildan o‘n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

267-modda. Transport vositasini olib qochish

Transport vositasini olib qochish uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O‘sha harakat:

- a) takroran yoki xavfli retsdivist tomonidan;
- b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo‘lsa, mol-mulk musodara qilinib, besh yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O‘sha harakat:

- a) o‘ta xavfli retsdivist tomonidan;
- b) uyushgan guruh tomonidan;
- v) zo‘rlik ishlatib yoki zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqtib sodir etilgan bo‘lsa, mol-mulk musodara qilinib, o‘n yildan o‘n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

4.4. Terrorizm bilan bog‘liq ekstremal va favqulodda vaziyatlarda aholining harakati

Terrorizm muammosi bilan to‘qnash kelgan xalqlar, xususan inglizlar shunday deyishadi: “Biz ushbu hol yuz berishi mumkinligini bilamiz, bunga har daqiqada tayyormiz. Shunchalik tayyormizki, bu haqda o‘ylamay ham qo‘ydik. Bunday hol istalgan daqiqada yuz berishi mumkinligi to‘g‘risidagi bilimlar hayot kechirishimizga halaqit bermasligi lozim. Aksincha sarosimaga tushishimizga yo‘l qo‘yilmasligi zarur”.

Agar bundan bir necha yillar muqaddam terrorchilar tomonidan portlatilgan uyjoy binolari, metroda ular tomonidan qo‘llanilgan zaharovchi moddalar, garovga

olinganlar va h.k. to‘g‘risida faqat kinolarda ko‘rgan yoki ommaviy axborot vositalarida o‘qigan bo‘lsak, keyinroq bunday hodisalar bilan bir necha bor O‘zbekistonda ham to‘qnash keldik.

Hayotimizda uchrashi mumkin bo‘lgan barcha holatlarda qanday harakat qilish to‘g‘risida yuz foiz tavsiya berishning iloji yo‘q. Chunki yuz berishi mumkin bo‘lgan vaziyatning biri ikkinchisiga o‘xshamaydi. Ammo, umumiy tavsiyalar vaziyatdan chiqib ketishda asqotib qolishi mumkin.

Aholini terrorizmdan muhofaza qilish tadbirlari quyidagicha bo‘lishi mumkin:

1. Korxona, tashkilot va muassasalarda qo‘riqlash rejimini tashkil etish va qat’iylashtirish (jumladan, audio-, videokuzatuv va signalizatsiya vositalarini o‘rnatish yo‘li bilan).

2. Korxona, tashkilot va muassasalar xodimlarining xushyorligi va ehtiyyotkorligini oshirish. Qo‘riqlash va xavfsizlik bo‘linmalariga ish tajribasiga ega bo‘lgan shaxslarni ishga olish kerak. Ob'ekt hududi va xonalarni shubhali buyumni topish maqsadida aylanib, tekshirib chiqish qo‘riqlash va xavfsizlik xizmatlarining funksional vazifalari qatoriga kiritilishi kerak. Qo‘riqlash va xavfsizlik xizmati xodimlari kichik hajmdagi asbob-anjomlar bilan ta'minlanishi lozim. Tashkilotlar xodimlari terrorizm namoyon bo‘lishi bilan bog‘liq sharoitlarda huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorlikdagi harakatlarni tashkil eta bilishlari uchun ular tayyorgarlikdan o‘tishlari kerak. Tashkilot, korxona va muassasalarga keluvchilar va xodimlarni evakuatsiya qilish rejasini ishlab chiqilishi zarur.

Olib kelinayotgan buyum, tovarlar, asbob-uskunalar soni, tashqi ko‘rinishi va boshqa belgilariga qarab sinchiklab tekshirilishi lozim. Ijaraga topshirilayotgan xonalar (hududlar) holatini tekshirish bo‘yicha ma’muriyatning funksiyalarini aniqlab olish zarur. Avtomobillar to‘xtab turish joyi odamlar to‘planadigan joydan kamida 100 m narida bo‘lishi lozim. Ob'ekt hududida yong‘in xavfsizligi qoidalariga rioya qilinishi kerak. Xizmat xonalari, zinapoyalar, hudud ortiqcha buyumlardan holi bo‘lishi lozim.

Shubhali buyum topib olinganda yoki terrorchilik harakati tahdidining belgilari paydo bo‘lganda xabar berilishi lozim bo‘lgan huquqni muhofaza qilish organlarining telefon raqamlarini barcha xodimlar bilishi zarur.

Ob'ekt xodimlariga notanish odamlardan saqlab turish uchun qandaydir bir buyum yoki predmetni olishlari taqiqlab qo‘yilishi kerak.

3. Aholi terrorchilik harakatlarini amalga oshirish uchun foydalanish mumkin bo‘lgan buyumlarning belgilari to‘g‘risidagi axborotlar yetkazilishi zarur. Shubhali buyum sumka, tuguncha, paket, yashik, portfel ko‘rinishida bo‘lishi va odamlar ko‘p

to‘planishi ehtimol bo‘lgan joyda, portlash va yong‘indan xavfli joylarda, turli kommunikatsiya tarmoqlari yonida egasiz yotishi mumkin.

O‘zining tashqi ko‘rinishiga ko‘ra u portlovchi qurilma (granata, mina, snaryad mulyaji)ga o‘xhashi, undan simlar, arqonlar chiqib turgan bo‘lishi; izolyasiya tasmasi, skotch bilan o‘ralgan bo‘lishi; soat mexanizmi chiqillab turishi, mexanik g‘ing‘illash va boshqa ovozlar chiqishi; undan bodom yoki boshqa biror notanish hid kelishi mumkin.

Xavotirlanish uchun quyidagilar sabab bo‘lishi mumkin:

ob'ekt hududida yoki uning yaqinida shubhali shaxslarning yurishi; shaxsan, telefon yoki pochta jo‘natmalari orqali tahdidlar.

Shubhali buyum topib olinganda

Zudlik bilan topilgan shubhali buyum to‘g‘risida Ichki ishlar vazirligi (tel. 102), Milliy havfsizlik xizmati, Favqulodda vaziyatlar vazirligining navbatchilik xizmatlari (tel. 1050), hokimlikning tezkor navbatchisiga xabar qiling. Shubhali buyum topilgan vaqt va joyni qayd qilib qo‘ying. Xavfli zonani kamida yuz metrlik radiusda odamlardan bo‘shating. Imkonni boricha, shubhali buyumni va xavfli zonani qo‘riqlashni ta'minlang.

Vahimaga yo‘l qo‘ymang. Odamlarni xavfli zonaga yondosh hududlardan uyushgan holda evakuatsiya qilinishlarini ta'minlang yoki ta'minlashshga ko‘maklashing.

Shubhali buyumga yaqinlashmang, uni qo‘l bilan ushlamang va boshqalarning ham ma'lum masofada yaqinlashishlariga yo‘l qo‘ymang.

Huquqni muhofaza qilish organlari vakillarining yetib kelishini kuting. Shubhali buyum turgan joyni ko‘rsating. Bundan so‘ng mutasaddi organlar ko‘rsatmasiga muvofiq harakat qiling.

Portlovchi qurilma portlagan vaqtida zARB to‘lqini (ZT)ni hisobga olgan holda xavfli va xavfsiz masofalar

| Portlovchi qurilma nomi | ZARB to‘lqini ta’siriga ko‘ra o‘lim ko‘rsatkichi, m | ZARB to‘lqini ta’siridan xavfsiz masofa, m | ZARB to‘lqini ta’sirida oynalarning sinishi, m | Maksimal xavfsiz masofa (shisha parchalari ta’sirini hisobga olganda), m |
|--------------------------------|---|--|--|--|
| Granata RGD-5 | 1 | 7 | 35 | 35 |
| Granata F-1 | 1 | 6 | 30 | 200 |
| Trotil shashka (200 g, TP-200) | 1.5 | 9 | 45 | 45 |
| Trotil shashka (400 g, TP-400) | 2 | 11 | 55 | 55 |
| Pivo bankasi, 0,33 l. | 2 | 12 | 60 | 60 |

| | | | | |
|----------------------------|----|-----|------|------|
| MON-52 minasi | 2 | 14 | 70 | 85 |
| Jomadon (keys) | 7 | 50 | 230 | 230 |
| Yo‘l jomadoni | 10 | 66 | 350 | 350 |
| “Jiguli” rusumli avtomobil | 13 | 87 | 457 | 457 |
| “Volga” rusumli avtomobil | 16 | 110 | 575 | 575 |
| Mikroavtobus | 26 | 175 | 912 | 912 |
| Yuk mashinasi (furgon) | 35 | 240 | 1240 | 1240 |
| Yuk mashinasi (treyler) | 50 | 342 | 1785 | 1785 |

Radio aloqa vositalari, uyali telefon va radioportlatgichning ishlab ketishiga olib keluvchi boshqa vositalardan foydalanmang.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar vakillarning kelishlarini kuting. Ularga shubhali buyum topilgan joyni ko‘rsating.

Xodimlari garovga olingan ob'ekt rahbarining harakati

Tashkilot xodimlari bu kabi hollarda harakat qilishga o‘rgatilgan bo‘lishi kerak. Bular hammasi qandaydir ma’noda tashkilot joylashgan hududda xodimlarning garovga olinish ehtimolligini kamaytiradi.

Sodir bo‘lgan hodisa to‘g‘risida zudlik bilan mutasaddi organlarga va yuqori organ rahbariga xabar berish kerak.

Garovga olinmay qolgan xodimlarni binodan zudlik bilan olib chiqish lozim. Terrorchilarning qaysi joydaligini aniqlash kerak. Begonalarning binoga kirishlariga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida binoni kuzatish ishlarini tashkl etish zarur.

O‘z tashabbusiga ko‘ra terrorchilar bilan muzokara olib borish mumkin emas. Zaruriyat talab etsa, terrorchilarning talablarini, agar bu odamlar sog‘lig‘iga zarar yetkazish bilan bog‘liq bo‘lmasa, bajarish kerak. Terrorchilarga qarshi borish, atrofdagilarning va o‘zining hayotini xavf ostiga qo‘ymaslik lozim. Terrorchilar tomonidan o‘q otar qurollarni qo‘llanishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan harakatlarga yo‘l qo‘ymaslik darkor.

Hodisa sodir bo‘lgan joyga tegishli kuchlarning to‘siksiz kirib kelishlarini ta‘minlash zarur. Milliy xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi maxsus bo‘linmalarining jangchilari yetib kelishi bilan ular komandirlarining savollariga bat afsil javob berish va ular ishini ta‘minlash kerak.

Tashkilotlar xodimlarining terrorchilik harakatlarining oldini olish va tahdid tug‘ilgan sharoitlarda harakat qilish bo‘yicha bilim va malakalarini ta‘minlash uchun tashkilot faoliyati xususiyatlarini hisobga olgan holda ushbu tashkilotlar rahbarlari

tomonidan Davlat xavfsizlik xizmati va Ichki ishlar vazirligi organlari bilan hamkorlikda yo‘riqnomalar ishlab chiqiladi va tashkilot fuqaro muhofazasi rejasiga kiritiladi.

Garovga tushib qoldingiz...

Garovga ushlab turilgan shaxs – qo‘lga olingan yoki ushlab turilgan shaxsnini ozod etish shartlari sifatida davlat hokimiyati va boshqaruv organlarini, xalqaro tashkilotlarni, shuningdek ayrim shaxslarni biron-bir harakatlar sodir etishga yoki bunday harakat sodir etishdan tiyilishga majbur qilish maqsadida terrorchilar tomonidan qo‘lga olingan yoki ushlab turilgan jismoniy shaxs.

Terrorchilik harakatlarini amalgalash oshirish jarayonida odamlarni garovga olish, shuningdek pul undirish yoki ayirboshlash maqsadida o‘g‘irlash jinoyatning keng tarqalgan turidan biriga aylandi. Bundan tashqari tasodifan, masalan, magazin, bank, xonodon, dala hovliga o‘g‘ri tushishi yoki odamlarning terrorchilar tomonidan qo‘lga olinishi oqibatida garovga tushib qolish mumkin.

Har bir inson taqdir taqozosiga ko‘ra terrorchilar yoki bosqinchilar qo‘liga garovga tushib qolishi mumkin. Bunda uning hayoti siyosiy yoki g‘arazli savdo predmetiga aylanib qoladi.

Garovga olingan shaxs – jinoyatchilar hukmi ostida bo‘lgan shaxs. Bu u tushib qolgan sharoitidan chiqib ketish imkoniyatidan umuman mahrum degani emas. Aksincha, unga ko‘p narsa bog‘liq. Garovga olingan shaxsning to‘g‘ri harakatlarni tanlab olishi tegishli bilimlarni talab etadi. Terrorchilik harakatlari va binolarni egallab olishning potensial qurbonlari shunday bilimlarga ega bo‘lishlari shart.

Jinoyatchilar qo‘lidan mustaqil chiqib ketishning real va ko‘pchilik hollarda yagona ehtimoli garovga olishning boshlang‘ich bosqichida, hujum qilish vaqtida bo‘ladi. Agar mabodo ozod bo‘lishga urinishning muvaqqiyatsizligi aniq bo‘lsa, yaxshisi bundan voz kechish va yuzaga kelgan sharoitdan kelib chiqib harakat qilish kerak.

Garovga olinish vaqtidan boshlab harakatlarni nazorat ostida ushlab turish va ozod bo‘lishga ko‘mak berishi mumkin bo‘lgan barcha holatlarni qayd qilib borish lozim. Garovga olinish joyidan transportirovka qilish detallarini, harakatlanish vaqtini va tezligini, ko‘tarilish va tushishlarni, keskin burilishlarni, svetofor oldida to‘xtashlarni, temir yo‘l pereezdlarini, o‘ziga xos tovushlarni eslab qolishga harakat qilish kerak. Imkon qadar barcha ma'lumotlarni imo-ishora bilan yoki yozma shaklda jinoyatchilar bilan muzokara olib borayotgan shaxsga berishga harakat qilish lozim. Agar bunday imkoniyat tug‘ilmasa, qanday bo‘lganda ham sizni ushlab turishgan joy haqidagi eng ahamiyatsiz bo‘lib tuyulgan axborot ham sizni ozod qilish uchun, jinoyatchilarini ushslash va fosh etish uchun foyda berib qolishi mumkin. Tutqinlikda bo‘lgan vaqtida ko‘rilgan va eshitilgan barcha narsalarni – deraza, eshik,

zinapoyalarning joylashgan o‘rni, devor qog‘ozlari rangi, o‘ziga xos hidlarni, hatto jinoyatchilarning ovozi, tashqi ko‘rinishi va maneralari to‘g‘risidagi barcha ma'lumotlarni eslab qolish kerak. Shuningdek, ularning xatti-harakatlarini kuzatish, suhabatlarini diqqat bilan tinglash, ular orasida rollarning qay tarzda taqsimlanganligini tushunib olish kerak. Qisqasi, fikran ulardan har birining aniq ruhiy suratini yaratish lozim.

O‘g‘irlangan odamlar to‘xtash joylarida shartli belgilar qoldirgan, tashqariga yozma belgilarni tashlagan, u yoki bu usulda o‘zining tutqunlikda saqlanish joyini aniqlagan hollar ma'lum. Biroq, bunday ishlarni ehtiyotkorlik bilan bilan amalgamoshirish kerak. Zero, bu ishlarni jinoyatchilar bilib qolishsa, ayab o‘tirmasliklari muqarrar.

Garovga olingandan so‘ng odam ruhiy qotib qolish (shok) holatiga tushib qoladi. Bu holat xotirjamlik fazasidan stress fazasiga o‘tish bilan izohlanadi. Odamlar bunday vaziyatlarda o‘zlarini turlicha tutishadi. Ayrimlar qo‘rquvdan o‘zlarini yo‘qotib qo‘yishadi, ayrimlari esa bosqinchilarga qarshi borishga harakat qilishadi. Bunday vaziyatda yetti o‘lchab bir kesgan holda ish tutish garovga olinganlarning hayotini saqlab qolish garovidir.

Eng avvalo, vahimaga berilmaslikka harakat qiling. Albatta, ushbu daqiqalarda bu oson ish emas. Ammo qo‘rquvingizni yengib olish uchun asos yetarli. Sababi, siz terrorchiga tirik holda keraksiz. Zero, sizning hayotingiz terrorchiga muzokara olib borish uchun zarur. Shunday ekan, hayotingizni saqlab qolish imkoniyati ham mavjud.

Terrorchilar dastlabki daqiqalarda kuchli hayajon va zo‘riqish holatida bo‘lishadi. Ular o‘z maqsadlariga yetishish uchun hyech narsadan tap tortmaydilar. Shu sababli ham ularning harakatlari qo‘pol, tajovuzkorona ruhda bo‘ladi. Sizning vahima ichra qilgan harakatlariningizni bo‘ysinmaslik deb tushunmasliklari uchun barcha buyruq va ko‘rsatmalarga itoat qilishingizga to‘g‘ri keladi. Bu hol sizning hayotiy tamoyillaringizga, dunyoqarashingizga tamomila zid bo‘lishi ham mumkin. Ammo, hayotingizni asrab qolish uchun, yaxshisi, biroz muddat ulardan voz kechib turganingiz ma’qulroq emasmi?

Iloji boricha xotirjam ovozda gaplasting. Bo‘lar-bo‘lmasga sizni garovga olganlar bilan muloqotga kirishishga intilmang. Jinoyatchilarning belgilarini, yuz tuzilishini, kiyimi, ismi, laqabi, chandiqlari, badanidagi yozuvlar, nutqi, o‘zini tutishi, so‘zlashuv mavzusi va boshqalarni eslab qolishga harakat qilish kerak. Bu ma'lumotlar keyinchalik bosqinchilarning shaxsini aniqlashda maxsus xizmat vakillariga qo‘l kelib qolishi mumkin.

Siz qancha vaqt davomida tutqunlikda bo‘lishingizni bilmaysiz. Har holda uzoq muddatga ruhan tayyor turing. Yegulik u yoqda tursin, chanqog‘ingizni

qondirish uchun ichimlik ham bermasliklari mumkin. Demak, kuchingizni tejashta harakat qilishingiz zarur. Ortiqcha harakat qilmang. Tilingiz ostiga tashlab olgan kichkina tosh bo‘lagi yoki mato parchasi chanqog‘ingizni qondirish hissini uyg‘otishi mumkin. Sizga qanday yegulik taklif etishmasin, uni rad etmang, o‘zingizni majbur qilib bo‘lsa-da, uni iste‘mol qiling.

Terrorchi tubanlikka borib, sizga hatto hojatga chiqish uchun ham ruxsat bermasligi mumkin. Uyatni yig‘ishtirib qo‘yishingizga, biror muddat shundoqqina odamlar ko‘z o‘ngida hojatga chiqishga to‘g‘ri kelib qolar. Ammo, keling, maqsadimiz tirik qolishlik ekanligini esdan chiqarmaylik-da, buyruqni bajaraylik.

Jarohatlangan bo‘lsangiz, kamroq harakat qilish kerak. Shunda ko‘p qon ketishining oldi olinadi.

Ruhiy barqarorlikni qo‘ldan bermaslikka harakat qiling. Diqqatingizni boshqa narsalarga jalb qilishga urinib ko‘ring. Masalan, o‘zingizdan zaifroq ko‘ringanlarga g‘amxo‘rlik qiling, ularni tinchlantirish uchun biror qiziqroq voqyeani so‘zlab bering, avval mutoala qilgan kitoblariningizni eslang, yod olgan she’rlaringizni xotirangizda tiklang, matematik tenglamalarni yeching, yaxshi kunlaringizni xotirlang va h.k. Juda bo‘lmaganda 1 dan 100 gacha yoki 100 dan 1 gacha sanang. Eng muhimmi, “peshonamda borini ko‘raman”, degan fikrdan yiroqroq bo‘ling.

Ishonchingiz komil bo‘lsinki, sizning garovga olinganligingiz to‘g‘risidagi xabarni oliboq, vakolatli organlar harakatni boshlashgan. Va, ular albatta, sizni ozod qilish uchun bor kuch-mahoratlarini ishga solishadi.

Garovdan ozod qilingandan so‘ng

Iliq dush qabul qiling. Buni kun davomida bir necha marta amalga oshirishingiz mumkin, suv nafaqat tanangizni tozalaydi, balki xavotiringizni bosib, xotirjamlik baxsh etadi. Ko‘chaga, odamlar oldiga chiqing. Quyosh nuri, toza havo, esayotgan shabboda ruhingizni ko‘taradi.

Ruhiy holati siznikidan ham pastroq bo‘lishi mumkin bo‘lgan odamlarni qidirib toping. Ularga ko‘maklasha turib, o‘zingiz ham madad olasiz.

Chuqur nafas oling va yo‘tal bilan nafas chiqaring (bir necha bor). Tomir urishingiz joyiga tushadi va vahima hissi ortga chekinadi. Oyoqda tik turing, oyoqlaringiz uchida bir necha bor yuqori ko‘tariling va boshlang‘ich holatga qayting; mushaklaringiz kuchga to‘lib, qo‘l va oyoqlaringiz isiydi, o‘zingizni bardam sezasiz. Panjalaringizni aylana shakli bo‘ylab aylantiring. Panjalaringiz faolligi sizni bo‘shashtirib, o‘zingizni bosib olishingizda yordam beradi.

Qisqa vaqt ichida ekstremal vaziyatga tushib qolgan insonda hayoti uchun real xavf bilan to‘qnashuv sodir bo‘ladi (odatiy kunda inson ruhiyati o‘limni uzoq bir narsa yoki hatto amalga oshib bo‘lmaydigan ro‘yo kabi tasavvur qildirib muhofazani yuzaga keltiradi). Dunyoqarash o‘zgaradi, haqiqiy hayot turli tasodiflarga to‘la bo‘lib

tuyuladi. Inson o‘z hayotini ikkiga – voqyeaga qadar va undan so‘nggi qismlariga bo‘la boshlaydi. Insonga go‘yoki atrofdagilar uning xissiyotlari va qayg‘ularini tushunmayotgandek bo‘lib tuyuladi.

Yodda tuting! Garchi inson jismoniy tomondan zo‘rlanmagan bo‘lsa ham, u baribir kuchli ruhiy jarohat olgan bo‘ladi.

Jabrlanuvchiga, sodir bo‘lgan hodisa bilan bog‘liq xissiyotlarini namoyon qilishiga yordam bering (agar u suhbatdan bosh tortsa, sodir bo‘lgan voqyeani, o‘z xissiyotlarini kundalik daftarida yoki hikoya tarzida bayon etib berishini taklif qiling).

Jabrlanuvchiga, hatto eng dahshatli hodisadan ham keyingi hayot uchun foydali bo‘lgan xulosalarni chiqarib olish mumkin ekanligini ko‘rsatib bering (u yaxshisi hayotiy sinovlar davomida orttirgan tajribasi ustida o‘zi fikr yuritib ko‘rsin). Jabrlanuvchiga fojiali vaziyatlarni boshidan kechirgan odamlar bilan muloqotda bo‘lishi uchun imkon yaratib bering (hodisa ishtirokchilarining telefon raqamlarini ayirboshlash yo‘li bilan). Jabrlanuvchiga «qurban» rolini o‘ynashga, ya’ni fojiali hodisadan foyda olish maqsadida foydalanishiga yo‘l qo‘ymang («Men hyech nima qilolmayman, axir men shuncha narsani boshimdan kechirdim»). Hyech qachon unga tazyiq bildirmang, u sizni o‘zidan itarsa ham e’tibor qaratishda va qo‘llab-quvvatlashda davom eting.

Agar ruhiy ko‘mak o‘z vaqtida berilsa, salbiy ta’sirlar kuchsizlanadi. Ularning hodisadan keyingi birinchi oy davomida yuzaga kelishi me’yoriy holat hisoblanadi. Biroq, ular uzoq vaqt davomida saqlanib qolsa yoki yarim yildan so‘nggina ilk bor yuzaga kelsa, bu jarohatdan keyingi stress buzilish belgilari hisoblanadi.

Nazorat savollari:

1. “Terror” so‘ziga qaysi tildan olingan?
2. Terrorizmning turlariga nimalar kiradi?
3. Favqulodda vaziyatlar vazirligining terrorizmga qarshi kurash sohasidagilar qanday vakolatlarga ega?.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.– T.: “O‘zbekiston”, 2017 y.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasining 2000 yil 15 dekabrdagi “Terrorizmga qarshi kurash” to‘g‘risidagi Qonuni.

IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

1-amaliy mashg'ulot. Aholi va xududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tadbirlarini rejalashtirish

Ishdan maqsad: Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi bo'yicha rejalashtirish tadbirlarini amaliy bajarish.

Tinglovchilarga amaliy mashg'ulot boshilanganda aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo'yicha hududlarda, iqtisodiyot ob'ektlarida ishlab chiqiladigan rejalar ochib beriladi.

Ma'ruzada bayon etilgan fikrlarni mustahkamlash maqsadida tinglovchilarining toifalarini inobatga olgan holda, hududlarda yoki ob'ektlarda ishlab chiqiladigan rejalarning bir qismini ishlab chiqish topshiriladi.

80 daqiqaga rejalashtirilgan guruh tinglovchilariga guruhlarni 3 ta guruhlarga bo'lgan holda, har bir guruh tinglovchilarga ob'ektning favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish xarakatlari rejasini qisqa ko'rinishda ishlab chiqishni topshiriq sifatida beriladi va vaqt ajratiladi. Belgilangan vaqt ichida guruhchalar o'z ichlaridan tanlagan ob'ektlari bo'yicha guruh a'zolari maslaxatlashgan, kelishgan holda rejaning qisqa ko'rinishini ishlab chiqadilar. Guruh tinglovchilar vazifani bajarishda qiynalayotgan taqdirda 1-ilovadagi tavsiyalar tarqatiladi.

40 daqiqa dars rejalashtirilgan guruhlarga bir ob'ekt miqyosida favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartarf etish harakatlari rejasini ishlab chiqish vazifasi topshiriladi.

Guruh tinglovchilar bir necha guruhchalarga bo'linadi va ularga quyidagi vazifalar topshiriladi:

1. Rejaning birinchi bo'limini ishlab chiqing.
2. Rejaning ikkinchi bo'limini ishlab chiqing.
3. Rejaning 1, 2-ilovalarini tayyorlang.
4. Rejaning 3, 4-ilovalarini tayyorlang.

Keyingi bosqichda guruhdan bir tinglovchi doskaga chiqib, guruh tomonidan tayyorlangan rejani prezintatsiya qiladi, tushuntirib beradi.

Barcha guruhlar tinglangandan so'ng, boshqa guruhlarni ishlab chiqilgan rejalarini to'ldirish, ular bo'yicha fikr bildirishlari so'raladi.

O'qituvchi javoblarni tahlil qiladi, to'ldiradi. Berilgan topshiriqlarini bajarilish samarasini inobatga olgan holda tinglovchilar baholanadi.

2- amaliy mashg‘ulot: Yuzaga kelgan xavflarni bartaraf etishda qutqaruv ishlarini o‘tkazish.

Mashg‘ulot maqsadi: Tinglovchilarga favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda ularning oqibatlarini bartaraf etishni tashkil etish, birinchi navbatda qutqaruv ishlari va boshqa kechiktirib bo‘lmaydigan ishlarni tashkil qilish uchun kuch va vositalardan foydalanish amaliy ko‘nikmalarini hosil qilish.

Mavzuni o‘qitishda foydalaniladigan interfaol ta’lim metodlarini qo‘llash.

“Venn diagrammasi” metodi


Ushbu uslubdan o‘tilgan mavzu bo‘yicha tinglovchilar bilan ma'lum bir ob'ekt, tushuncha, g‘oya, hodisani taqqoslash faoliyatini tashkil etish jarayonida foydalaniladi. Buning uchun quyida keltirilgan diagramma yordamida ko‘rib o‘tilgan mavzu bo‘yicha ikki va uch jihatlarni hamda umumiy tomonlarni solishtirish, taqqoslash yoki qarama-qarshi qo‘yish mumkin. Ushbu uslub tinglovchilarning tizimli fikrlash, solishtirish, taqqoslash va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Uslubning maqsadi: tinglovchilarga berilgan diagramma orqali ko‘rib o‘tilgan mavzudagi tayanch tushunchalar, turli hodisalar va boshqa turdagи xarakatlarning o‘zaro o‘xhashlik tomonlari, farqini yanada chuqurroq o‘zlashtirib olishlari uchun sharoit yaratish.

Uslubning qo‘llanilishi: tinglovchilar bilan o‘tilgan mashg‘ulotni takrorlab olishda yoki mustaqil ish, uyga vazifa sifatida foydalanish mumkin. Buning uchun mashg‘ulot davomida oldindan tayyorlangan materiallarni tinglovchilar guruhiiga berish, buning natijasida ularning yaxlit bir jamoa tarzda bir birlarining fikrlarini to‘ldirishlariga imkon yaratish mumkin. Mustaqil ish yoki uyga vazifa sifatida foydalanish orqali ularning yakka tartibda o‘tilgan mavzu bo‘yicha olgan bilimlarini baholash imkoniga ega bo‘linadi.

Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi: mashg‘ulot rahbari tinglovchilarni mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi bilan tanishtiradi va oldindan tayyorlangan tarqatma materialni yakka tartibda yoki guruhlarga berib chiqadi. Berilgan topshiriqni bajarish uchun vaqt belgilaydi.

Mashg‘ulot mavzusi



Tinglovchilar diagrammaning 1 bo‘limlariga biror xodisa, tayanch tushuncha va aniq predmetning o‘ziga xos tomonlari, diagrammaning 2 bo‘limiga ularning o‘zaro o‘xshashlik tomonlari yoziladi. Mashg‘ulotni yakunlagan guruhlardan bir tinglovchi tanlanadi va u guruhning ishini o‘quv doskasiga o‘rnatib, tinglovchilarga o‘qib eshittiradi.

Ushbu uslubni quyidagi misol bilan ko‘rib chiqamiz:

Mavzu: Gidrometriologik xavfli xodisalar.

Mashg‘ulot rahbari tomonidan oldindan tayyorlangan diagrammaga suv toshqini va selning vujudga kelish sabablari, ularning o‘zaro o‘xshash va farqli tomonlari diagrammaning bo‘limlariga tushirilgan xolda guruhlarga beriladi. Guruhlar tomonidan bajarilgan ishlar yakunda quyidagi ko‘rinishda bo‘lishi mumkin:



Misolda keltirilganidek diagrammaning doiralar kesishmagan qismida ko‘rib o‘tiladigan mavzu bo‘yicha taqqoslanadigan fikrlar keltirildi (masalan: Suv toshqini sabablari - Sel kelishi sabablari). Doiralar kesmasiga o‘ng doirada va chap doirada bir xil bo‘lgan a’lomatlar yozildi. Boshqa guruh tinglovchilar har bir taqdimot yakuni bo‘yicha o‘z fikrlarini bildirishlari, turli qo‘sishchalar kiritishi mumkin. Mashg‘ulot rahbari ularning fikrlarini umumlashtiradi va topshiriq savoli bo‘yicha yakuniy hulosani beradi.

Ta’kidlash lozimki, o‘tkazilayotgan mashg‘ulot davomida ushbu uslubni qo‘llash orqali o‘tilgan mavzuni og‘zaki takrorlab, tinglovchilar esiga solishga sarflangan vaqtdan birmuncha kamroq vaqt sarflanadi. Shu bilan birga ularni mashg‘ulotga tez kirishib ketishlariga, o‘tilgan mavzuni qisqa muddatda takrorlab olishlariga zamin yaratiladi.

“Blits o‘yin” uslubi

Ushbu uslub orqali amalga oshiriladigan muayyan bir harakatlar, tadbirlar va qoidalar ketma-ketligi bo‘yicha tinglovchilar olgan nazariy bilimlarini sinovdan o‘tkazish hamda amaliy jihatdan mustahkamlash mumkin. Uslubni afzallik tomonlaridan biri bir vaqtda tinglovchilarda yakka va guruhlar shaklida qo‘llaniladi. Uslubiy qo‘llanmani tuzuvchilar tomonidan o‘tkazilgan mashg‘ulotlar jarayonida ushbu uslub qo‘llanilganda yakka tartibda berilgan javoblarga nisbatan guruh tarkibida berilgan javoblar bahosi yuqoriligi kuzatildi. Bu o‘z navbatida tinglovchilarning guruh bo‘lib ishlashda mavzu bo‘yicha olgan bilimlarini amaliy qo‘llashiga, to‘g‘ri javobni tanlash jarayonidagi babs-munozaralari natijasida bilimlari yanada mustahkamlanishiga sabab bo‘ladi.

Uslubning maqsadi: ushbu uslub orqali tinglovchilarda tarqatilgan qog‘ozlarda ko‘rsatilgan harakatlar ketma – ketligini avval yakka tartibda mustaqil ravishda belgilash, kichik guruhlarda o‘z fikrini bashqalarga o‘tkaza olish yoki o‘z fikrini boshqalarga o‘tkaza olish yoki o‘z fikrida qolish, boshqalar bilan xamfikr bo‘la olish kabi ko‘nikmalarni shakillantirish.

Uslubning qo‘llanilishi: o‘quv mashg‘ulotlarining barcha turlarida muayyan bir xarakatlar tartibini tinglovchilar bilishini aniqlash, o‘tilgan mavzuni o‘zlashtirganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash yoki turli nazorat sinovlarini o‘tkazish uchun mo‘ljallangan. Ushbu uslubni mashg‘ulot jarayonida yoki mashg‘ulotning bir qismida yakka tartibda tashkil etish mumkin. Shuningdek, tinglovchilarni biror bir jarayonning qat‘iy bajariladigan ketma-ketlikdagi tartibiga rioya qilishlariga o‘rgatishda ham qulay sanaladi.

Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi: Ushbu uslub bir necha bosqichda o‘tkaziladi:

- mashg‘ulot rahbari tinglovchilarga ushbu mashg‘ulot bir necha bosqichda o‘tkazilishi haqida tushuncha beradi. Har bir bosqichga mo‘ljallangan vazifalarni bajarishga aniq vaqt berilishi, o‘quvchilar esa shu vaqtdan unumli foydalanishlari kerakligi haqida ularni ogohlantiradi:

- mashg‘ulot rahbari tinglovchilarning har biriga tarqatma material beradi va ulardan ushbu materialni sinchiklab o‘rganishlarini so‘raydi, (shu o‘rinda tinglovchilarga har bir noto‘g‘ri belgilangan ketma-ketlik o‘z navbatida keyingi xatolikga olib kelishini uqtirib o‘tish kerak);

- mashg‘ulot rahbari tarqatma material mazmuni va bajariladigan vazifa(tarqatma materialda berilgan harakatlar ketma – ketligini to‘g‘ri belgilash, belgini qog‘ozda alohida ajratilgan bo‘limga raqamlar bilan qo‘yish kerakligi)ni tushuntiradi;

- tarqatma materialda berilgan vazifa dastlab yakka tartibda bajarilishini ta’kidlaydi;

Tayyorlangan jadval va harakatlar, tadbirlar, qoidalar ketma-ketligining chalkashlik bilan joylashtirilgan ko‘rinishi:

| Guruh bahosi | Guruh xatosi | To‘g‘ri javob | Yakka xato | Yakka baho | Harakatlar mazmuni |
|---------------------|---------------------|----------------------|-------------------|-------------------|--|
| | | 7 | | | aholini suv, oziq-ovqat va eng zarur narsalar bilan ta'minlash; |
| | | 4 | | | jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordamni ko‘rsatish hamda ularni shifoxonalarga joylashtirish; |
| | | 5 | | | aholini xavfsiz joylarga ko‘chirish; |
| | | 2 | | | harakat marshrutlari va ish uchastkalari (ob'ektlari)dagi yong‘inlarni cheklash va bartaraf etish; |
| | | 1 | | | harakat marshrutlari va ish uchastkalari (ob'ektlari)da razvedka ishlarini olib borish; |
| | | 6 | | | epidemiya yuzaga kelishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida kerakli sanitariya-gigiena choralarini va epidemiyaga qarshi tadbirlarni tashkil etish; |
| | | 3 | | | jabrlanganlarni qidirib topish va ularni vayron bo‘lgan, zararlangan, yonayotgan binolardan, suv, gaz, tutun bosgan bino hamda vayrona uyumlari orasidan olib chiqish; |

Tinglovchilar yuqorida berilgan tartib asosida avval yakka xolda jadvalning “yakka baho” ustunini, so‘ngra kichik guruh tarkibida “guruh bahosi” ustunlarini to‘ldiradilar. Mashg‘ulot rahbari to‘g‘ri javob ustunini to‘ldiradi va u quyidagi ko‘rinishga keladi:

| Guruh bahosi | Guruh xatosi | To‘g‘ri javob | Yakka xato | Yakka baho | Harakatlar mazmuni |
|---------------------|---------------------|----------------------|-------------------|-------------------|--|
| 7 | 0 | 7 | 0 | 7 | aholini suv, oziq-ovqat va eng zarur narsalar bilan ta'minlash; |
| 6 | 2 | 4 | 2 | 6 | - jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordamni ko‘rsatish hamda ularni shifoxonalarga joylashtirish; |
| 5 | 0 | 5 | 0 | 5 | aholini xavfsiz joylarga ko‘chirish; |
| 2 | 0 | 2 | 0 | 2 | harakat marshrutlari va ish uchastkalari (ob'ektlari)dagi yong‘inlarni cheklash va bartaraf etish; |
| 1 | 0 | 1 | 0 | 1 | harakat marshrutlari va ish uchastkalari (ob'ektlari)da razvedka ishlarini olib borish; |
| 6 | 0 | 6 | 0 | 6 | epidemiya yuzaga kelishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida kerakli sanitariya-gigiena choralarini va epidemiyaga qarshi tadbirlarni tashkil etish; |
| 3 | 0 | 3 | 0 | 3 | jabrlanganlarni qidirib topish va ularni vayron bo‘lgan, zararlangan, yonayotgan binolardan, suv, gaz, tutun bosgan bino hamda vayrona uyumlari orasidan olib chiqish; |

Baholash me'zoni:

9 ta to‘g‘ri javob - “a’lo”

7-8 ta to‘g‘ri javob – “yaxshi”

6 ta to‘g‘ri javob – “qoniqarli”

5 ta va undan kam to‘g‘ri javob – “qoniqarsiz”.

3-amaliy mashg‘ulot:Kuchli ta'sirli zaharli moddalar (KTZM) qo'llaniladigan ob'ektlardagi avariyalarda kimyoviy holatni baholash

Ishdan maqsad:- kimyoviy holatni aniqlash va baholashni o‘rganish.

- havodagi zaharli moddalarni aniqlash .

- joylarda, kiyimlarda va har xil predmetlarda zaharli moddalarni aniqlash.

Kimyoviy ta'sirlarga qarshi omillar. KTZM ta'sirini kamaytirishga mo‘ljallangan kompleks tadbirlar. Ularni amalga oshirishni o‘rganishda quyidagi vazifalarga alohida e'tibor qaratish:

a) kimyoviy holatni aniqlash va baholash;

b) kimyoviy nazoratni tashkil etish va o‘tkazish;

v) kimyoviy ta'sirlarga qarshi himoyalanish rejimlarini ishlab chiqish;

g) kimyoviy shikastlanishda fuqarolarni himoyalash uslublari hamda KTQ omillari bilan ta'minlash (bunda gazniqoblar, maxsus kiyim-kechaklar va boshqa vositalarni yig‘ish, saqlash, taqsimlash);

d) kimyoviy shikastlanish oqibatlarini tugatish omillari (maxsus sanitar qayta ishslash, ish joylarini, inshootlarni zararsizlantirish va boshqa omillar).

ye) fuqarolarni himoya inshootlarida saqlash.

yo)xavfli hududdan xavfsiz hududga evakuatsiya qilish.

Kuchli tasir etuvchi zaxarli moddalarni qo'llaniladigan obektlardagi avariyyada kimyoviy holatini aniqlash

Kimyoviy holat deb, dushman tomonidan kimyoviy quollar ishlatilganda yoki kimyoviy obektlarda falokat yuz berganda atrof-muhitga kuchli tasir etuvchi zaxarli moddalar (KTZM) tarqaganligi natijasida hosil bo‘lgan sharoitga aytildi.

Kimyoviy holatni baxolashda havoning turg‘unlik darajasini bilish kerak. Havoning turg‘unligi uchta darajaga bo‘linadi:

- Inversiya
- Izotermiya
- Konveksiya

Inversiyada havoning pastki qatlami yuqori qatlamidan sovuqroq bo‘ladi hamda bu holat zaxarlangan havoning balandlikka tarqalishiga qarshilik ko‘rsatadi va zaxarlangan havoning uzoq vaqt saqlanishiga qulay sharoit yaratib beradi.

Konveksiyada havoning pastki qatlamlari yuqoridagilaridan ko‘ra ancha issiq bo‘ladi va bunday xolat zaxarlangan havoning tez tarqalishiga , oqibatda zaxarlanish tasirining kamayishiga olib keladi. Izotermiya –bulutli havoga xos , KTZM bo‘lgan joylardagikimyoviy holatni baholashda, kimyoviy zaxarlangan xudud o‘lchamini, kimyoviy shikastlanish o‘chog‘ini, zaxarli havoning xududga yetib kelish va shikastlash vaqtini hamda kimyoviy shikastlash o‘choqlarida fuqarolarning talofatlanish extimollari qo‘zda tutiladi.

1-misol. Zichligi $\rho_0 = 0,68 \text{ t/m}^3$ bo‘lgan G_T ammiakli himoyalanmagan idish buzilgan. Atrofi ochiq shamolning yerga yaqin qismidan tezligi V_m/s ga teng.

$$\text{Kimyoviy shikastlanish hududini va o‘lchamini, yuzasini topamiz} = \frac{G}{\rho \cdot 0,05};$$

Bu yerda:

G - kuchli tasir etuvchi zaxarli moddalar miqdori, t ;

$P=0,68$ ammiak zichligi t/m^3

$0,05$ - to‘kilgan ammiak qatlaming qalinligi.

Kimyoviy zararlanishnig chuqurligini 1-jadvaldan topamiz.

1-jadval

| KTZM Nomi | Idishdagি KTZM miqdori (G), t | | | | | |
|---------------------------------|-------------------------------|-----|------|-----|-----|-----|
| | 5 | 10 | 25 | 50 | 75 | 100 |
| Xlor fozgen h, m | 4,6 | 7 | 11,5 | 16 | 19 | 21 |
| Ammiak h, m | 0,7 | 0,9 | 1,3 | 1,9 | 2,4 | 3 |
| Oltingugurt h, m | 0,8 | 0,9 | 1,4 | 2 | 2,5 | 3,5 |
| Vodorod sulfid h, m | 1,1 | 1,5 | 2,5 | 4 | 5 | 8,8 |

$$G = h \cdot 5 \cdot k; \text{km}$$

Bu yerda:

h - kimyoviy zaxarlangan havoning tarqalish chuqurligi (1-jadval.)

k - to‘g‘rilovchi koefitsient (2-jadval.)

2-jadval

| Turg‘unlik darjasи | Shamol tezligи, V_m/s | | | | | |
|-----------------------|-------------------------|------|------|------|------|------|
| | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 |
| Inversiya | 1 | 0,6 | 0,45 | 0,38 | - | - |
| Izotermiya | 1 | 0,71 | 0,55 | 0,5 | 0,45 | 0,41 |
| Konvektsiya | 1 | 0,7 | 0,62 | 0,55 | - | - |

Shikastlangan kimyoviy xududning kengligi.

A) inversiyada- 0,03 G

B) izotermiyada- 0,15 G

V) konvektsiyada- 0,8 G

Hudud kengligi

A) inversiyada

$$K = 0,03 \text{ G}$$

B) izotermiyada

$$K = 0,15 \text{ G}$$

V) konvektsiyada

$$K = 0,8 \text{ G}$$

4. Kimyoviy shikastlanish hududining yuzasini topamiz.

$$S_{\text{hudud}} = \frac{1}{2} \cdot G \cdot K ; \text{ km}^2$$

5. Zaharlash vaqtini topamiz.

$$T_{\text{zaharlanish}} = t \cdot k ; \text{ soat}$$

bu yerda: t- bug'lanish vaqt, (3-jadval)

k- to'g'rilovchi koefitsient, (2-jadval)

3-jadval

| KTZM nomi | Bug'lanish vaqt | | |
|----------------|-----------------|--------------|--|
| | Himoyalanmagan | Himoyalangan | |
| Xlor | 1,3 | 22 | |
| Fosgen | 1,4 | 23 | |
| Ammiak | 1,2 | 20 | |
| Oltингugurt | 1,3 | 20 | |
| Vodorod sulfid | 1 | 19 | |

4-masalani yechish uchun variantlar

| Berilgan | Variantlar | | | | | | | | |
|------------------------------|------------|------------|-------------|-------------|----------------|-------------|-----------|------------|----------------|
| | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 |
| KTZM miqdori, G _t | 5 | 10 | 25 | 50 | 75 | 100 | 5 | 10 | 25 |
| Shamol tezligi, Vt/s | 2 | 1 | 4 | 3 | 5 | 6 | 1 | 2 | 3 |
| KTZM nomi | Xlor | Fosgen | Ammiak | Oltингugurt | Vodorod sulfid | Xlor | Fosgen | Ammiak | Vodorod sulfid |
| Turg'unlik darajasi | Inversiya | Izotermiya | Konvektsiya | Inversiya | Izotermiya | Konvektsiya | Inversiya | Izotermiya | Konvektsiya |

| Berilgan | Variantlar |
|----------|------------|
|----------|------------|

| | 10 | 11 | 12 | 13 | 14 | 15 | 16 | 17 | 18 |
|------------------------------|-----------|------------|-------------|------------|----------------|-------------|-----------|------------|-------------|
| KTZM miqdori, G _t | 50 | 75 | 100 | 5 | 10 | 25 | 50 | 75 | 100 |
| Shamol tezligi, Vt/s | 4 | 5 | 6 | 1 | 3 | 2 | 4 | 5 | 6 |
| KTZM nomi | Xlor | Xlor | Fosgen | Oltinugurt | Vodorod sulfid | Ammiak | Xlor | Fosgen | Ammiak |
| Turg'unlik darajasi | Inversiya | Izotermiya | Konvektsiya | Inversiya | Izotermiya | Konvektsiya | Inversiya | Izotermiya | Konvektsiya |

4-amaliy mashg'ulot:Fuqarolarni himoya qilish uslubiyotlarini o'rghanish Ishdan maqsad :

- FV da fuqarolarni himoya qilish usullarini o'rghanish;
- Favqulodda vaziyatlarda shaxsiy himoya vositalaridan foydalanishni o'rghanish.

Ushbu amaliy ish davomida quyidagilarni **bajarish lozim**:

- FV da fuqarolarni 5 ta asosiy himoya qilish usullarini egallashga o'rgatish;
- Ogohlantirish to'g'risida matn tuzishga o'rgatish;
- FV da fuqarolarni o'z o'zini himoya qilishga, tegishli tartibda hatti harakatga o'rgatish;
- FV da fuqarolarni himoya inshootlarida saqlanishga, oddiy va tez quriladigan panajoylarni qurishga o'rgatish ;
- FV da fuqarolarni xavfsiz xududga harakatlanishga o'rgatish ;
- FV da fuqarolarni tegishli shaxsiy himoya vositalaridan foydalanishga o'rgatish.
- Bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirishga doir masala va mashqlarni bajaishga o'rgatish

Topshiriq namunasi

1-Topshiriq: Berilgan topshiriq variantlari bo'yicha FV yuzaga kelganda fuqarolarni qanday himoya vositalari va usullari bilan himoyalash zarurligini tahlil qiling:

| FV turlari | Variantlar | | | | | | | | | |
|--|------------|------|------|------|-------|------|------|------|------|-------|
| | 1,20 | 2,19 | 3,18 | 4,17 | 5,16, | 6,15 | 7,14 | 8,13 | 9,12 | 10,11 |
| Fuqarolarni FV xususida ogohlantirish (matn tuzish) | X | | | | | | | | | |
| Fuqarolarni himoya inshootlarida saqlash qoidalari. | | X | | | | | | | | |
| Aholini xavfsiz hududlarga evakuatsiya qilish tartibi va qoidalari | | | X | | | | | | | X |
| Shaxsiy saqlovchi vositalar qanday holatlarda qo'llaniladi | | | | X | | | | | X | |
| Terini himoya qiluvchi vositalarning qo'llanishi, turlari, xususiyatlari va ularga qo'yiladigan talablar | | | | | X | | | X | | |
| Shaxsiy dorixona (ShD 2) ning tuzilishi va qo'llanilishi | | | | | | X | X | | | |

Xavfli zonada yakka tartibda saqlovchi vositalar bilan tanishish

Yakka tartibda saqlovchi vositalar inson tanasiga ichki organlariga , terisiga va kiyim-kechaklariga radioaktiv moddalarni, zaxarli birikmalarni va biologik tumanlarni tushishidan saqlaydi.

Yakka tartibda saqlovchi vositalar qo'llanilishiga ko'ra: terini saqlovchi, nafas organlarini, yuz-ko'zni saqlovchi vositalarga bo'linadi.

Nafas organlarini saqlovchi vositalar.

Bularga gazniqoblar, respiratorlar, matoli niqoblar, paxta, dokali taqqichlar kiradi. Gazniqoblar filtrlovchi va izolyasiyalovchi xillarga bo‘linadi. Filtrlovchi gazniqoblar: GP-5, GP-5M, GP-7 болалар учун –PDF-Sh, PDF-D.

Respiratorlar – asosan radioaktiv va mexanik changlardan nafas organlarni saqlovchi vosita xisoblanadi. Fuqarolar muhofazasida asosan R-2 ва ShB-1 rusumli respiratorlar ishlatalidi.

Matoli niqoblar – nafas organlarini saqlovchi vositalarning oddiy uslubi sanalib, u radioaktiv moddalardan, biologik tumanlardan saqlovchi vosita hisoblanadi va uning rusumi MM-1 deb ataladi.


Terini saqlovchi vositalar – filtrlovchi va izolyasiyalovchi xillarga bo‘linadi. Izolyasiyalovchi vositalar havo o‘tkazmaydigan rezinali elastik materiallardan (PVX) tayyorlanadi.

Oddiy terini himoya qiluvchi vositalar – oddiy xech narsa shimdirlmagan yopg‘ich va plashlar, qalin zich to‘qilgan paltolar, paxtali va charm terili kurtkalar va boshqalar kiradi. Trikotajdan , sherstdan va paxtali materiallardan tayyorlangan kiyimlar, qo‘lqoplar faqat radioaktiv changlardan va biologik tasirlardan saqlaydi.


Yakka tartibdagi tibbiyot vositalari. Ionlantiruvchi nurlardan, zaxarlovchi moddalardan, bakterial vositalardan xamda kuyishdan saqlashda shaxsiy (ShD-2) doriqutilardan foydalaniлади. Bu vosita 130 gr bo‘lib, saqlanish muddati – 3 yil.

TIBBIY HIMOYA VOSITALARI

Shaxsiy dori qutichasi ShDQ-2




Bog'lovchi paket (shaxsiy)



Kimyoviy qurolda qarshi shaxsiy paket (KQShP-8)



Kimyoviy qurolda qarshi shaxsiy paket KQShP-10



Doriqutiga dori va moddalar joylashtirilgan.

A) shaxsiy tibbiyot doriqutisiga og'riq qoldiradigan shprits – tyubik ninasi bilan joylashtirilgan;

B) fosfor organik zaharli moddalar bilan zaxarlanganda ishlatiladigan taren-B tabletka dorisi bor. Bu doridan kimyoviy ogohlantirishda bitta tabletkadan ishlatiladi;

V) bakterologik vositalarga qarshi ishlatiladigan dori (oq shishada – tetratsiklen gidroxlorid) joylashgan. Bunda bir yo'la 5 ta tabletka ichiladi va 6 soatdan keyin yana 5 tasi ichiladi;

G) biologik tasirlarga qarshi ishlatiladigan dori (sulfodolitoksin tabletkasi 15 ta qo'yilgan). Bu dorini oshqozon-ichak kasali boshlanganda bir yo'la 7 ta tabletkasi va keyingi kunlarda to'rtadan ichiladi.

D) radiosaqlovchi vositalar (sistalin). U gamma nurlanish yuz berganda bir yo'la 6 ta tabletkasi ichiladi.

E) quşishga qarshi ishlatiladigan vosita – etaperazin (havo rangli) joylashtirilgan. Bu doridan odam nur qabul qilganda eti uzilganda ichish tavsiya etiladi.

| Berilganlar | Variantlar | | | | | | | | | | | | |
|-------------------------|------------|------------|--|-------------------------------|--|------------------|------------|------------|--|-------------------------------|--|-----------------|------------|
| | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | 10 | 11 | 12 | 13 |
| Himoyalovch i vositalar | Respirator | Protivogaz | Nafas organlarini himoyalovchi vositalar | Terini saqlovichchi vositalar | Oddiy terini himoya qiluvchi vositalar | Matoli nikobolar | Respirator | Protivogaz | Nafas organlarini himoyalovchi vositalar | Terini saqlovichchi vositalar | Oddiy terini himoya qiluvchi vositalar | Matoli niqoblar | Respirator |

V. KEYSLAR BANKI

1-Keys. Fuqaro muhofazasi tizimlarining raditsiyaviy shikastlanish o‘chog‘iga $t_2=2$ soatdan keyin kirgandagi nurlanish dozasi $D_2=20$ rad/soat bo‘lib, boshlang‘ich nurlanish dozasi $D_1 = 40$ rad/soatni tashkil etgan. Obektning nurlanish dozasini susaytirish koeffitsienti $K_{sus}=1$ ga teng.

Fuqaro muhofazasi tizimlarining shikastlanish o‘chog‘ida ishchilar uchun ruxsat etilgan vaqt ni aniqlang?

yechish:

$$P_n = \frac{D_1 \cdot K_{sus}}{D_2} = \frac{40 \cdot 1}{20} = 2$$

endi ilovadagi 2-jadvalga qarab, portlatilgandan keyin o‘tgan vaqt 2 soat va chiqqan natija 2 ekanligini bilib, to‘g‘ri javobnni qo‘yamiz.

2-Keys. Obekt da yadroviy portlashdan 2 soat keyin nurlanish dozasi o‘lchanadi - $R_2=100$ rad/soat. Yadroviy portlashdan bir soat keyin nurlanish dozasi qancha bo‘lganini toping ?

yechish: Ilovadagi 1- jadvaldan foydalanib, 2 soatga to‘g‘ri keladigan qiymatini topamiz va u 2,30 min.ga to‘g‘ri keladi.

Javob: aslaha portlagandan 1 soatdan keyingi nurlanish dozasi 230 R/soat.

3- Keys. Radiatsiyaviy avariyanan keyin ionlashtiruvchi nurlanish 40 rad / soat bo‘lib, 2 soatdan keyin o‘lchanganda 20 rad/soatni tashkil qildi. Shu hududda harakatlanuvchan FM tizimlarining ishslash uchun ruxsat etilgan vaqt ni toping ?

yechish:

$$\frac{D_{oxir} \cdot K_{sus}}{D_{oxir}}$$

Keltirilgan formuladan foydalanamiz. Masala shartidagi qiymatlarni formulaga qo‘ysak:

$$\frac{D_{boshl} \cdot K_{sus}}{D_{oxir}} = \frac{40 \cdot 1}{20} = 2$$

Bu erda:

D_{oxup} -shikastlangan hududdagi oxirgi o‘lchangan radiatsiya darajasi;

D_{6om} -boshlang‘ich radiatsiya darajasi, rad;

K_{cyc} - radiatsiyani susaytirish koeffitsienti.

Ilovadagi 2-jadvaldan foydalanib, topilgan qiymatga to‘g‘ri keladigan vaqt aniqlanadi. Yani 4 soat 6 daqiqa davomida fuqarolar muhofazasining xizmatchilari 20 rad/soatli shikastlangan hududda ishlarini olib borishlari mumkin.

4-Keys. Zichligi $0,68 \text{ t/m}^3$ bo‘lgan 100 t ammiakli himoyalanmagan idish buzilgan. Atrofi ochiqlik, shamolning yerga yaqin qismidagi tezligi 2 m/s ga teng (inversiya). Kimyoviy shikastlanish hududining o‘lchamini va yuzasini toping ?

yechish. 1. Suyuq ammiak to‘kilgan hududning taxminiy yuzasi quyidagi formuladan topiladi:

$$Syuza = \frac{G}{\rho \cdot 0,05} = \frac{100}{0,68 \cdot 0,05} = 3000 \text{ m}^2$$

Bu yerda: G – KTZM miqdori, t ;

ρ - Ammiak zichligi, t/m^3 ;

$0,05$ – To‘kilgan ammiak qatlaming qalinligi (to‘g‘rilovchi koeffitsient).

2. Kimyoviy zararlanishning chuqurligini ilovadagi 6,7-jadvallardan foydalanib, topamiz:

$$Gq = 3 \cdot 5 \cdot 0,6 = 9 \text{ km.}$$

3.Zararlangan kimyoviy hududning kengligini topamiz:

Inversiyada-0,03 G

Izotermiyada-0,15 G

konveksiyada-0,8 G

Hudud kengligi: $K = 0,03 \cdot 9 = 0,27 \text{ km.}$

4.Kimyoviy zararlanish hududining yuzasini topamiz:

$$S = 1/2 G \cdot K = 0,5 \cdot 9 \cdot 0,27 = 1,2 \text{ km}^2$$

5-Keys. 4-Keys sharti bo‘yicha ammiakning zaharlash vaqtini toping?

Ammiakning ta’sir etuvchi vaqtি ilovadagi 8-jadvaldan foydalanib, topiladi: T zaharlanish $= 1,2 \cdot 0,7 = 0,84$ soat (50 daqiqa)

6-Keys. Kimyoviy shikastlanish o‘chog‘ida joylashgan turarjoy binosidagi odamlarning talofatlanish sonini toping (Binoda 300 ta odam yashaydi, ular 90 foiz gazniqob bilan ta‘minlangan).

yechish. Ilovadagi 9-jadvaldan foydalanib, odamlarning talofatlanish soni: 9 foiz (27 kishi), shulardan engil darajada talofatlanganlar soni: $27 \cdot 0,25 = 7$ kishini; o‘rtachava og‘ir darajada $27 \cdot 0,4 = 11$ kishi, o‘lim bilan yakunlanadigani $27 \cdot 0,35 = 9$ kishini tashkil etadi.

Mavzuni o'zlashtirish jarayonida talabalar o'rtasidagi his-hayajonni pasaytirish, shuningdek yoddan ko'tarilgan ba'zi tayanch so'z va iboralarni esga solish maqsadida mavzuga doir krossvorlarni yechish xam tavsiya etiladi. Krossvordlarni yechish o'yin xarakteriga ega bo'lganligi uchun, u talabalarni mavzuni oson o'zlashtirishlariga imkon beradi. Chunki krossvordlar talabalarning nafaqat bilim olishdagi faolligini oshiradi, balki o'rganayotgan mavzuni qanchalik darajada o'zlashtirganini, o'ziga ishonchini, zehnini sinash imkoniyatini ham beradi.

Krossvordlarni yechishda 4 ta kichik guruhlarga bo'lingan talabalarga 4 ta variantdan iborat krossvordlarni bittadan varianti tarqatiladi va ularga kataklarni to'ldirish uchun 10 daqiqa vaqt ajratiladi. Guruhlardagi talabalar krossvord kataklarini to'ldirib, to'g'ri deb hisoblangan javoblarni qog'oz chetiga yozib qo'yadilar. O'qituvchi talabalarni javobini tekshirib, krossvordlarning to'g'ri javoblarini krossvord kataklarida proektor yordamida namoyish etadi. Bunda talaba bir daqiqada o'z javoblarini to'g'ri yoki xato ekanligini anglab oladi, va o'rganayotgan mavzuga oid ma'lumotlarni xotirasida uzoq vaqt saqlab qoladi.

7- Keys. Namuna 1 . Krossovorning tuzilishi.

Bo'yiga:

1.Zilzilaning o'chog'i nima deb ataladi.

2. 9 balli yer silkinishiga bardoshli inshootlar qanday qurilish materillaridan quriladi.

3. Uylarning konstruksiyasini buzilishi qaysi tabiiy ofat darakchisi hisoblanadi

4. Epizootik va epifitotik vaziyatlar qaysi tabiiy ofat turiga kiradi.


5. Zilzila kuchini o'lchashda xalqaro o'lchov birligi kim tomonidan taklif qilingan.

eniga:

6. yer zaminining eng maksimal silkinishi o'chog'ini nima deb ataladi.

7. Sel ofatida fuqaro muhofazasining qaysi tizimlari asosiy vazifalarni bajaradi.

8. Ohangaronning (Toshkent viloyati) qaysi yerida 1991-yilda yer ko'chki ofati kuzatiladi.



VII. GLOSSARIY

| | | | |
|----------------------|-----------------------------|-------------------------|--|
| Ball | Ball | Ball | biror-bir hodisa (shamol kuchi, bulutlilik, dengizning to‘lqinlanishi)ni baholash uchun qabul qilingan shartli raqamlı birlik. |
| Seysmik ball | Сисмическое балл | Seismic rating | Er yuzasidagi zilzila entensevligining shartli birligi (raqamli baholash). |
| Barometr | Барометр | Barometr | atmosfera bosimini o‘lchaydigan asbob. Simobli barometrlar eng aniq atmosfera barometrlari hisoblanadi. Ularning ko‘rsatkichlari bo‘yicha atmosfera bosimi o‘lchanadi. |
| Ofat | Бедствие | Disaster | odatdagи hayot tarzining keskin buzilishi, odamlarning muhofazaga kiyim-boshga, tabiiy va ijtimoiy yordamga muhtoj bo‘lishiga olib keladigan halokatli vaziyat. Ofat ikki guruhga ajratiladi: 1) tabiiy hodisa sabab bo‘lgan ofat.; 2) Inson omili sabab bo‘lgan ofat. (urushlar avariylar va boshqa fv epidemiyalar). |
| Tabiiy ofat | Природная катастрофа | Natural disaster | odamlarning hayoti va sog‘ligiga tahdid tug‘ilishi mumkin bo‘lgan yoki tug‘ulgan shuningdek moddiy boyliklar va atrof tabiiy muhitning tarkibiy qismlari vayron bo‘lishi yoki yo‘q qilinishi mumkin bo‘lgan katta ko‘lamda vayronalik keltiruvchi tabiiy-antropogen hodisa yoki jarayon. |
| Ekologik ofat | Экологические | Environme | tuproq, atmosfera, gidrosfera va |

| | | | |
|---|--|--|---|
| (ekologik halokat) | катастрофы (экологическая катастрофа) | ntal disasters (environmental disaster) | biosfera holatining o‘zgarishi (antropogen ta’sirlar ostida) oqibatida kelib chiquvchi va odamlar sog‘ligiga ularning ma’naviy sohasiga yashash muhitiga iqtisodiyotiga gen va genafonga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi juda katta ko‘lamdagi favqulodda hodisa. Ekologik ofat ko‘pincha tabiiy muhitning orqaga qaytmas o‘zgarishlari bilan birga kechadi. |
| Biologik xavfsizlik | Биологическая безопасность | Biological security | odamlar, hayvonlar, o‘simgiliklar, atrof muhitning biologik favqulodda vaziyat manbai keltirib chiqargan yoki keltirib chiqaradigan havflardan muhofazalanganlik holati. |
| Favqulodda vaziyatlarda havfsizlik | Безопасность в случае возникновения чрезвычайной ситуации | Security in case of an emergency | aholining iqtisodiyoti ob’ektlarining atrof-muhitning favqulodda vaziyatlar havfidan muhofazalanganlik holati. |
| Yong‘in xavfsizligi | Пожарная безопасность. | Fire safety. | odamlarning, yuridik va jismoniy shaxslar mol – mulkinining shuningdek atrof tabiiy muhitning yong‘indan muhofazalanganlik holati. |
| Bofort shkalasi | Шкала Бофорта | Beaufort scale | butun dunyo metrologiya tashkiloti tomonidan shamolning tezligini uning er ustidaga buyumlarga ta’siri yoki ochiq dengizdagi tulqinlanishga qarab aniqlar uchun qabul qilingan 12 balli shkala. SHamolning o‘rtacha tezligi standart – ochiq tekis yuzadan 100 m balandlikda ko‘rsatiladi. SHkala ingliz |

| | | | |
|-----------------------------------|----------------------------------|-------------------------------|--|
| | | | admerali F. Bofort (1774 – 1857) tomonidan 1806 yili ishlab chiqilgan. 1874 – yildan boshlab xalqaro senompit amaliyotda foydalanish uchun qabul qilingan. |
| Rixter shkalasi | Шкала Рихтера | The Richter scale | zilzila vaqtida vujudga keladigan seysmik to‘lqinlarning enegriyasi baholashga asoslangan magnitudaning seysmik shkalasi. Rixter shkalasi bo‘yicha zilzila magnitudasi va uning 12 balli shkala bo‘yicha epitsentrдagi kuchi o‘rtasidagi munosabat o‘choq chuqurligiga bog‘liq bo‘ladi. SHkala 1935 yili amerikali seysmolog CH.Rixter tomonidan tashkil etilgan, 1941 – 1954 yillarda B.Butenberg tomonidan nazariy asoslangan. |
| Antropogen omil | Антропогенные факторы | Anthropogenic factors | atmosfera, gidrosfera va litosfera tarkibi va rejimning o‘zgarishi, havo, daryolar, dengizlar va okeanlarning shuningdek tuproqlarning sanoat texnologiyalari maxsulotlari va radiaktiv moddalar bilan ifloslanishi, ekotizm tarkibi va tuzilishining buzilishi va boshqalarni keltirib chiqaradigan inson faoliyati, uning atrof muhitiga ta’siri bilan yuzaga keltirilgan omil. |
| Radiatsiyavi y xavfli omil | Радиационный фактор риска | Radiation risk factor. | havo tarkibida radon (toron), radon (toron) parchalanishining qisqa yashovchi mahsulotlari, radon (turon) parchalanishining uzoq yashovchi mahsulotlari, radiaktiv chang bo‘lishligi, uran |

| | | | |
|---------------|---------------|-------------------|---|
| | | | radi, tori, poloniy, qo‘rg‘oshin-210 bo‘lgan umumiyl radiaktivlik: suvda texnologik eritmalarda va pulpa tarkibida uran, radi, tori, radon (toron), poloniyning bo‘lishi: radiaktiv ifloslanganlik (bino, asbob – uskuna, tranport vositalari, maxsus kiyim va h.k): tashqi muhit (tuproq, o‘simpliklar, tog‘ jinslari) da radionuklitlar-radi, uran, toriy, qo‘rg‘oshin-210 bo‘lishi; ish vaqtida radiaktiv moddalar bilan bevosita mashg‘ul bo‘lgan hodimlarning va radiaktiv moddalar bilan bog‘liq bo‘lmagan hodimlarning tashqi va ichki nurlanishi bilan keltirib chiqarilgan insonning, hodimlarning tabiiy texnologen nurlanishi. |
| Vabo | Чумма | The plague | (lot. Cholera yunon. Chole-zarda, jahl, zahar) – ingichka ichakning shkastlanishi, suv-tuz balansining buzilishi, suyuqlik yo‘qotilishi tufayli organizmning turli darajada suvsizlanishi bilan tavsiflanuvchi o‘tkir yuqumli kasallik. Vabo vibrionini keltirib chiqaradi. Kasallik vibrion tashuvchidan suv, ovqat, iflos ko‘llar orqari yuqadi. |
| Sunami | Цунами | Tsunami | suv osti yoki sohil bo‘yi zilzilalar chog‘ida dengiz tubi cho‘ziq maydonlarning yuqoriga yoki pastga siljishi natijasida yuzaga keladigan, dengiz to‘lqinlaridan iborat xavfli tabiat hodisasi, S. Katta tezliklarda (1000 km/s |

| | | | |
|---------------------------------------|--|-------------------------------|--|
| | | | gacha) bir necha ming kilometr masofaga tarqaladi. Suv devori oldida havoning zo'r to'lqini tarqaladi. U portlash to'lqin kabi bino va inshootlarni vayron qiladi. Vayronalikning ehtimoliy ko'lamlari ball bilan o'lchanadi: kuchsiz (1-2 ball) dan vayronali keltiruvchi (5-6 ball) gacha. |
| Texnosfera | Техносфера | Texnospher e | o'tmishda beosferaga taaluqli bo'lgan keyinchalik insonlarning o'zining moddiy va ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini yanada yaxshilash maqsadida tug'ridantug'ri yoki sirdan texnik vositalar bilan ta'sir etgan hududdir. |
| Maishiy muhit | Среда обитания | Living environment | bu maishiy sharoitdagi insonga ta'sir qiluvchi barcha omillarning yig'indisidir. Organizmni maishiy omillarga reaksiyasini fanning sog'lom turmmish tarzi, sog'lom turmish tarzining kasallik profilaktikasi bilan aloqasi masalalariga bag'ishlangan mavzularda o'qish mumkin. |
| Ishlab chiqarish muhiti | Производствен ная среда | Production environment | bu mehnat faoliyati jarayonida insonga ta'sir qiluvchi omillar yig'indisidir. |
| Tabiiy muhitdagi xavfsizlik | Экологическая безопасность | Environmental security | bu ekologiya sohalaridan biridir. |
| Baxtsiz hodisa (jarohatlanish) | От несчастных случаев. (Травмы) | Accident (injury) | inson tanasining teri yoki ayrim qismlari tashqi mehanik, kimyoviy, issiqlik va elektr ta'siri natijasida shikastlansa, buni baxsiz hodisa (jarohatlanish) deb ataladi. |
| Xavf | Риск | The risk | inson hayotiga va sog'lig'iga zarar |

| | | | |
|---------------------------|------------------------------|-------------------------------|--|
| | | | keltirishi, yong'in, portlashlami yuzaga keltirishi, zararli va zaharli moddalarning atrof muhitga tarqalishi, bino va inshootlarning buzilishi, hududlaming suv bosishi va boshqa ko'ngilsiz oqibatlarga olib kelishi. |
| Xavfsizlik | Безопасность | Security | inson faoliyatining holati bo'lib, u muayyan ehtimollikda yuzaga keladigan xavflami bartaraf qilishga yo'naltirilgan xavflar majmuyi. |
| Texnosfera | Техносфера | Texnosphere | ishlab chiqaiish jarayonidagi yoki ish zonasidagi sodir bo'lishi mumkin bo'ladigan xavfli joy. |
| Gomosfera | Гомосфера | Gomosphere | ishlovchining ishlab chiqarish obyektida bo'lmadigan joyi. |
| Himoya vositalari | Защитное оборудование | Protective equipment | ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etadigan insonlarga zararli va xavfli ishlab chiqaiish omillarining ta'sirini kamaytirish yoki uning oldini olish uchun qo'llaniladigan vositalar majmuyi. |
| Favqulodda vaziyat | Чрезвычайная ситуация | An emergency situation | muayyan hududda o'zidan so'ng odamlarning qurban bo'lishi, odamlar sog'lig'i yoki atrof-tabiiy muhitga ziyon yetkazishi, kishilarning hayot faoliyatiga kattagina moddiy zarar va uning buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan avariya, halokat, tabiiy ofat, epidemiya, epizotiya, epifitoliyalar natijasida yuzaga keladigan holat. |
| Hudud | Регион | Region | yer, suv, havo makoni, ishlab chiqarish yoki ijtimoiy maqsadlardagi obyektlar, shuningdek, atrof-tabiiy muhit |

| | | | |
|---|---|--|---|
| | | | majmuyi. |
| Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish | Ликвидация чрезвычайных ситуаций | The elimination of emergency situations | favqulodda vaziyat yuzaga kelganda amalga oshiriladigan hamda odamlarni qutqarish va insoniar sog‘lig‘ini saqlash, atrof -tabiiy muhitga zararining, hamda moddiy zararlar miqdorini kamaytirish. |
| Favqulodda vaziyatlar | Чрезвычайная ситуация | Emergency Situation | favqulodda vaziyatlar vazirligi avariylar, halokatlar va tabiiy ofatlar tufayli vujudga kelgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ulaming oqibatlarini bartaraf etish sohasidagi ishlarga rahbarlikni hamda ulami muvofiqiashtirib borish ishlarini amalga oshiruvchi markaziy davlat boshqaruvi organi hisoblanadi. |
| Fuqaro muhofazasi | Гражданской защиты | Civil Protection | favqulodda vaziyatlarning, halokatlaming oldini olish va ulaming oqibatlarini bartaraf etish, aholining hududlarini va moddiy boyliklarini muhofaza qilish maqsadida o‘tkaziladigan tadbirlarni amalga oshiruvchi davlat tizimi. |
| Tabiiy ofat | Стихийный бедствия | Natural disaster | tabiatda yuz beradigan favquloddagi o‘zgarish boiib, u birdan, katta tezlikda insonlaming mo‘tadil yashash, ishslash sharoitlarining buzilishi, odamlarning va qishloq xo‘jalik hayvonlarining o‘iimi, moddiy boyliklarning buzilishi yoki yo‘q bo‘lib ketishi va boshqa salbiy oqibatlarga olib keluvchi hodisalar. |

| | | | |
|--|---|---|--|
| Tektonik yer silkinishi | Тектонические землетрясения | Tectonic earthquake | yerning chuqur qisimida yuzaga keladigan tektonik kuchlaming tarqalish jarayonida yer ustki qatlamining tebranishini xarakterlaydigan o‘zgarish. |
| Giposentr | Гипоцентр | Gipocentr | yer silkinishining chuqur ichki qismidagi o‘chog‘i markazi. |
| Episentr | Эпицентр | Epicenter | yer silkinishining, yer ustki qatlamining eng maksimal silkinish joyi. |
| Sel ofati | Наводнение бедствий | Flood disaster | togli hududlarda kuchli yomg‘irlaming yog‘ishi, muzlik va qorlaming tez erishi natijasida hosil bo‘ladigan daryo toshqinlarining tog' yonbag'rilarida nuragan tog' jinsi bo'laklarining, daraxt ildizlari va shox-shabbalari bilan pastlik tomon oqizib kelishi. |
| Geologik xavfli hodisalar | Опасных геологических событий | Dangerous geological events | odamlar o’limiga, ma’muriyishlab chiqarish binolarini, texnologik asbob-uskunalar, energiya ta’rninoti, transport kommunikatsyalari va infratuzilma tizimlarining, ijtimoiy yo’nalishdagi binolarning va uy-joylaring turlicha darajada buzilishiga, ishlab chiqarish va odamlar hayot faoliyatining izdan chiqishiga olib keladi. |
| Gidrometologik xavfli hodisalar | Гидрометрологических опасные события | Gidrometer ologik dangerous events | odamlar o’limiga, aholi yashash joylarini, ba’zi sanoat va qishloq xo’jaligi obyektlarini suv bosishiga, infratuzilma va transport kommunikatsyalari, ishlab chiqarish va odamlar hayot faoliyatining buzilishiga olib kelgan va shoshilinch ko’chirish |

| | | | |
|-----------------------------------|------------------------------------|---------------------------------|---|
| | | | tadbirlari o'tkazilishini talab qiladigan tabiiy ofatlar. |
| Epidemeologik vaziyatlar | Эпидемиологический ситуаций | Epidemiologic situations | odamlar o'rtasida xavfli infeksiyalar: o'lat, vabo, isitma; epidemik toshma, terlama, Bril kasalligi; zoonoz infeksiyalar: Sibir yarasi, quturish; bezgak kasalliklari; zaharli moddalar bilan zaharlanish; oziq-ovqatdan zaharlanish holatlari. |
| Epizootiya | Эпизоотическая | Epizootic | hayvonlaming ommaviy tarzda kasallanishiga yoki nobud bo'lishiga olib keladigan vaziyat. |
| Epifitotiya | Эпифитотия | Epifitotiya. | o'simliklaring ommaviy nobud bo'lishiga olib keladigan vaziyat. |
| Fuqaro muhofazasi xizmati | Служба гражданской защиты | Civil Protection service | fuqaro muhofazasi maxsus tadbirlarini bajarish, fuqaro muhofazasi tizimlarining harakatlarini ta'minlash uchun kuchlar va vositalami tayyorlash maqsadida tuzilgan funksional bolinnialar majmuyi. |
| Fuqaro muhofazasi kuchlari | Силы гражданской обороны | Civil Defenses Forces | qutqaruv va boshqa kechiktirib bo'laydigan ishlarni (QBTI) amalga oshirish uchun tuziladigan fuqaro muhofazasi harbiy qismlari, umumiy va maxsus hududiy, funksional va obyekt tizimlari. |
| Himoya inshootlari | Защитные сооружения | Protection facilities | aholini va ishlab chiqarish xodimlarini hamma ta'sir omillaridan: yuqori harorat, radioaktiv, portlovchi va kuchli zaharli moddalardan, inshootlar buzilganda ularing qismlaridan hamda qirg'in qurollar ta'sirlaridan saqlashga moljallangan muhandislik |

| | | | |
|---------------------------------------|-----------------------------------|-------------------------------|--|
| | | | inshootlari majmuyi. |
| Radiatsiyavi y avariya | Радиационная авария | Radiation accident | uskuna nosozligi, xodimlaring xatti-harakatlari (harakatsizligi), tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar tufayli kelib chiqqan, fuqarolarning belgilangan me'yordan ko'proq nurlanish olishiga yoki atrof muhitning radioaktiv ifloslanishiga olib kelishi mumkin bo'lgan, yoxud olib kelgan ionlashtiruvchi nurlanish manbayi ustidan boshqaruvning izdan chiqishi. |
| Xavflar taksonomiya si | Риски таксономию | Risks taxonomy | bu murakkab hodisalarining tushunchalarini, kishi faoliyatiga qaratilgan narsalarni turkumlash (klassifikatsiya) va sistemalash to'g'risidagi fandir. U faoliyat xavfsizligi sohasida ilmiy bilimlarni uyushtirishda, xavflarning tartibini yanada chuqurroq o'rghanishda katta ahamiyatga ega. |
| Ergonomika | Эргономика | Ergonomics | "Inson – mashina - muhit" tizimini o'rghanuvchi fan bo'lib, u insonning ish jaryonidagi harakatidir. Ergonomika ishlab chiqarish jarayonida ishchining charchamasdan, mehnat qobiliyati pasaymagan va sog'lig'ini yo'qotmagan holda eng yuqori ish unumdorligiga erishishda funksional imkoniyatlarini o'rghanuvchi fandir. |
| Kimyoviy zararlar | Химическое повреждение | Chemical damage | umumiy zaharlovchi, qichituvchi, rak kasaliga olib keluvchi va boshqa salbiy ta'sir etuvchi |

| | | | |
|------------------------|--------------------|--------------------------|--|
| | | | zararlovchilar kiradi. |
| Chang | Пыль | Dust | – qattiq va suyuq moddalarining juda kichik zarrachalaridan iborat bo‘lib, ular havoda muallaq uchib yuradi. |
| Yorug‘lik oqimi | Поток света | The flow of light | nur quvvatiga aytildi va birligi sifatida lyumen (lm) qabul qilingan. |
| To‘sıqlar | Препятствия | Obstacles | qurilish maydonida jarohatlanishlarning oldini olishni muhim omillaridan biri, bu to‘g‘ri va talabga javob beradigan konstruksiyali to‘sıqlardir. To‘sıqlar mustahkam, oddiy va ularni o‘rnatish oson bo‘ladi. Barcha qo‘llaniladigan to‘sıqlar qo‘llash maqsadlariga ko‘ra ikki guruhga bo‘linadi: turg‘un va olinib ko‘chiriladigan. |

VIII. ADABIYOTLAR RO'YXATI

Maxsus adabiyotlar

1.O'zbekiston Respublikasining sohaga oid qonunlari: «Aholini va hududlarni tabiiy va texnogen xususiyatlari favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida» (20.08.1999 y.); «Gidrotexnika inshootlarning xavfsizligi to'g'risida» gi (20.08.1999 y.), «Fuqaro muhofazasi to'g'risida» gi (20.05.2000 y.) ; «Radiatsiyaviy xavfsizlik to'g'risida» gi (31.08.2000 y.); qonunlar.

2.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining sohaga oid qarorlari: 4.03.1996 yildagi «O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida» gi 143-son; 23.12.1997 yildagi «O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi to'g'risida»gi 558- son; 7.10.1998 yildagi «O'zbekiston Respublikasi aholisini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga tayyorlash tartibi to'g'risida»gi 427-son; 27.10.1998 yildagi «Tabiiy, texnogen va ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi to'g'risida»gi 455- son qarorlar.

3. M.Tojiev, I.Nigmatov, M.Ilhomov «Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi» o'quv qo'llanma. T., M.Ch. «Ta'lim manbai», 2002 y.

4.Nigmatov I., Tojiev M. "Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi". Darslik (lotin imlosida) -T., Iqtisod-moliy, 2011 y.

5.Fuqaro muhofazasi asoslari (maruza matnlari to'plami). Mualliflar majmuasi. T., «Fuqaro muhofazasi instituti», 2003 y.

6.Rahmonov I., Vahobov U., Yoqubov N. "Favqulodda holatlarda shikastlanganarga birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish", T.: "FAN", 2004 y.

7. Yuldashev O., Xasanova O., Jalolov U., Turagalov T. , Art'ykov.A, Xusanova S. "Avaryino-spasatelnye raboty", Ucheb. posobie.-T.:2008 g

8.«Pervaya meditsinskaya romoш na meste proisшestviya», Ucheb.posobie dlya dobrovolnyx spasateley, T.: «Mejdunarodnaya strategiya snijeniya riska stixiynix bedstviy»,2008 g.

9. Cimini, Domenico, Marzano, Frank S., Visconti, Guido Applications for limate, Meteorology, and Civil Protection. 2011.

Internet resurslar

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Matbuot markazi sayti: www.press-service.uz

2.O'zbekiston Respublikasi Davlat Hokimiyati portalı: www.gov.uz

3.Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug'ati, 2004, UNDP DDI: Programme www.lugat.uz, www.glossaiy.uz

4.O'zbek internet resurslarining katalogi: www.uz

5.Infocom.uz elektron jurnali: www.infocom.uz

- 6.<http://www.bank.uz/uz/publisIVdoc/>
- 7.www.press-uz.info
- 8.www.ziyonet.uz
- 9.www.edu.uz
- 10.[www. cottonginning.com](http://www.cottonginning.com)